



UMIDA SAYDAZIMOVA

# KOREYS ADABIYOTI TARIXI

83.3 (5 kor)

179

S.22

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**UMIDA SAYDAZIMOVA**

# **KOREYS ADABIYOTI TARIXI**

*(moziydan to XIX asrgacha bo Igan davr)*

**«ISTIQLOL»  
TOSHKENT – 2014**

UO'K: 821.531(09)  
KBK: 83.3(5Kor)  
S 22

Taqrizchilar:

**U.U. Muxibova**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
**O.A. Kim**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**S 22 Saydazimova, Umida.**

**Koreys adabiyoti tarixi:** Umida Saydazimova. — Toshkent: «Istiqlol nashriyoti», 2014. — 148 b.  
ISBN 978-9943-4457-6-5

*Jahondagi ijtimoiy jarayonlarga Koreyaning ta'siri yildan yilga kuchayib bormoqda. Bu uning ilmiy-teknika taraqqiyoti bilangina emas, balki Koreya madaniy merosi jihatidan jahoning eng rivojlangan, boy mamlakatlaridan biri hisoblanishi bilan ham bog'liq.*

*Ushbu kitobda kitobxonga koreys an'anaviy adabiyotining rivojlanish tarixi, ilk yodgorliklari, XIX asrgacha bo'lgan nazm va nasrning namunalari taqdim etiladi. Shu bilan birga koreys adabiyoti rivojlanish bosqichlarini ko'rsatadigan davr bo'yicha asosiy xususiyatlarini oshib berishga, ulardan eng yorqinlarini ko'rsatib berishga harakat qilindi. U yoki bu adabiy davr manzarasini tavsiflab bergen yetakchi yozuvchi va shoirlarining ijodi hamda ularning mashhur asarlari ko'rsatilib o'tildi.*

*Mazkur monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi davlat ilmiy-teknika dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan F-1-139 «Sharq xalqlari adabiyoti tarixi va janrlar tipologiyasi» nomli ilmiy tadqiqot loyihasi asosida tayyorlandi hamda bu kitob koreys tili yo'nali shida tahsil olayotgan bakalavr va magistrantlarga asosiy o'quv yo'llanmalardan biri sifatida tavsija etiladi. Shuningdek, monografiya olyi o'quv yurtilarining filologiya yo'nali shida tadqiqotlar olib borayotgan va tahsil olayotgan barcha professor-o'qituvchilar va bakalavr-magistrantlar hamda keng doiradagi adabiyot muvlishilariga mo'ljallangan.*

*Ushbu monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Ilmiy Kengashining 2014 yil 30 oktabrdagi 3 sonli majlisida tasdiqlangan va nashrga tavsija qilingan.*

ISBN 978-9943-4457-6-5

UO'K: 821.531(09)  
KBK: 83.3(5Kor)

«Istiqlol nashriyoti», 2014

## SO‘ZBOSHI

Sharqdagi tarixiy-adabiy jarayonni yaxlit, tizimli o‘rganish, milliy adabiyotlarning o‘ziga xos tipologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, umuman sharq xalqlari adabiyotiga xos bo‘lgan mushtarak jihatlarning o‘rganilishi umumbashariy madaniyat tizimida Sharq-u G‘arb munosabati singari dolzarb masalaga ham ta’sir ko‘rsatishi tabiiydir. Ana shu yo‘nalishda koreys adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, uning shakllanish va taraqqiyot omillarini aniqlash, mumtoz va o‘rta asr koreys adabiyotini davrlashtirish masalalari bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

V.M. Jirmunskiy quydagicha yozadi: «O‘rta asrlar adabiyoti haqida gap ketganda, adabiy yo‘nalishlar almashinuvi va shaxsiy ta’sirlar haqida so‘z borishiga hojat yo‘q, adabiy yo‘nalishlarning almashinuvi janrlar izchilligi sifatida namoyon bo‘lgan. Hukmron mavqedagi janrlar doirasida individual ijod yashiringan: janr – individual o‘ziga xoslikni emas, balki ijtimoiy tipik dunyoqarash va uslubning ifodasidir»<sup>1</sup>.

Koreys adabiyoti Koreya Respublikasining o‘zida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, tizimli ravishda o‘rganila boshlandi. Xususan, koreys adabiyotshunoslari Ko Jon Ok, Lyu Chxan Son tadqiqotlarida koreys adabiyotining alohida jihatlari, ya’ni uni davrlashtirish va janrlar tizimi xususida so‘z boradi<sup>2</sup>. 1959-yili Pxenyanda «Koreys adabiyotidagi g‘oyaviy oqimlar va uslublarni o‘rganish»<sup>3</sup> nomli asarning nashr etilishi, koreys filologlarining koreys adabiyotiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirdi. 1960-yili

<sup>1</sup> Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. – Л., 1979. – С. 161–162.

<sup>2</sup> Ко Жон Ок. О корейских сорхва. – Пхеньян, 1972; Елисеев Д.Д. Новелла корейского средневековья. – М., 1977.

<sup>3</sup> 사상 사조와 한국문학 방식의 연구. – 평양, 1959.

«Choson omun» adabiy jurnalida mashhur koreys modernisti Chju Yu Guanning «Koreys nasrining paydo bo'lishida pxesolning o'rni»<sup>1</sup> nomli maqolasi chop etildi. Maqolada muallif koreys nasriy janrlaridan hisoblangan pxesolning G'arbiy Yevropadagi Uyg'onish davri novellasi bilan ba'zi bir o'xshashliklari borligini isbotlashga harakat qilgan.

Ushbu ishni yaratishda Koreya Respublikasining koreys adabiyoti bo'yicha mutaxassislari: Cho Tonilning besh jildli «Koreys adabiyoti umumiy tarixi» (20-nashr, 1989-y.), Xvan Pxegan, Chon Kyubok va Kim Tonguk tadqiqotlari, shuningdek KXDR adabiyotshunoslari Kim Xamyon, Yun Sepxyon, Ko Chonok asarlari asos bo'lib xizmat qildi.

Koreys she'riyatiga bag'ishlangan bo'limlarni yozishda M.I.Nikitinaning «Qadimgi koreys she'riyati marosim va mif munosabati bilan», «XV–XIX asrlar sijo janridagi koreys she'riyati» asarlariiga, qadimgi koreys madaniyati tasavvurlariga bag'ishlangan maqolalarga, shuningdek uning she'riy va nasriy asarlardan qilingan tarjimalariga tayanib ish ko'rildi. Xitoy tilida yaratilgan ilk she'riyat xususiyatlarining tavsifi ustida ishslashda L.V.Jdanovaning «Chxve Chxivonning she'riy ijodi» kitobi va uning Li Kyubo ijodi haqidagi maqolalari, D.D.Yeliseyevning pxesol adabiyoti va novella janrini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari («O'rta asrlar koreys pxesol adabiyoti» va «O'rta asr koreys novellasi») yordam berdi. Ishda L.R.Konsevich tomonidan e'lon qilingan ilmiy maqolalar va tarjimalaridan ham keng foydalanildi. Adabiyot tarixining ilk davri ustida ishslashda M.N.Pak asarlari: Kim Busikning «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» yodgorligiga bag'ishlangan tadqiqot ishi va uning tarjimasi; A.V.Solovyovning tarixiy biografiyaga bag'ishlangan asarlari, shuningdek R.Sh.Djarilgasinovaning ilk epigrafik yodgorliklarni, shu jumladan podsho Kogure Kvagetxo-van stelasining matnini o'rganishga bag'ishlangan «Koreyslar etnogenezi va etnik tarixi» kitobi katta yordam berdi.

<sup>1</sup> 사상 사조와 한국문학 방식의 연구. – 평양, 1960.

Koreys adabiyotining muayyan masalalari rus koreysshunos olimlari tomonidan ham tahlilga tortilgan. Xususan, D.D. Yeliseyev bilan bir qatorda Rossiya Federatsiyasi FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limining xodimlari M.I. Nikitina, A.F. Trotsevichlar XX asrning 60-yillarida birinchilardan bo'lib yozma adabiy yodgorliklarni nashrga tayyorlash borasida jiddiy harakat boshlashgan. Bu harakatning natijasi sifatida koreys adabiyoti tarixi, shuningdek, koreys o'rtta asr adabiyoti bo'yicha bir qator tadqiqotlar<sup>1</sup> yuzaga keldi. Rossiyalik koreysshunos olim D.D. Yeliseyevning «Новелла корейского средневековья» monografiyasida ko'tarilgan muammolarning ko'lami esa pxesol janri haqiqatan koreys adabiyotshunoslida katta qiziqish uyg'otganligidan darak beradi<sup>2</sup>.

Jumladan, XXI asr boshlarida A.F. Trotsevich Sankt-Peterburg universiteti Sharqshunoslik fakultetida 1952-yildan 2002-yillar davomida o'qigan ma'ruzalari asosida koreys o'rtta asr adabiyoti bo'yicha o'quv qo'llanma yaratgan<sup>3</sup>. Qo'llanmaga ilova qilingan o'rtta asr koreys adabiyoti xrestomatiyasi alohida qimmatga ega.

XX asrning 60-yillarida koreys tadqiqotchilari va rossiyalik koreysshunoslari o'rtasida koreys adabiyotini davrlashtirish masalasi dolzarblik kasb etgan. Zotan, koreys adabiyotini davrlashtirish masalasida asosiy mezon sifatida sulolalar davri diqqat markazida tutilgan. Xususan, rus adabiyotshunoslari M.N. Nikitina, A.F. Trotsevich tadqiqotlarida koreys adabiyotini davrlashtirish va asosiy adabiy janrlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan bo'lib<sup>4</sup>, ular koreys

<sup>1</sup> Никитина М.И., Троцевич А.Ф. Очерки истории корейской литературы до XVI в. — М.: Наука, 1969; Елисеев Д.Д. Новелла корейского средневековья. — М.: Наука, 1977; Еременко Л., Иванов В. Корейская литература: краткий очерк. — М.: Наука, 1964.

<sup>2</sup> Елисеев Д.Д. Новелла корейского средневековья. — М.: Наука, 1977.

<sup>3</sup> Троцевич А.Ф. История корейской традиционной литературы (до XX в.). Учебное пособие. — СПб: Издательство СПбГУ, 2004.

<sup>4</sup> Никитина М.И., Троцевич А.Ф. Очерки истории корейской литературы до XIV в. — М.: Наука, 1969; Троцевич А.Ф. История корейской традиционной литературы (до XX в.): Учебное пособие. — СПб: Издательство СПбГУ, 2004.

adabiyotshunoslari tomonidan taklif etilgan koreys adabiyoti tarixini davrlashtirish bo'yicha mulohazalarni inkor etishgan. Biroq, shu bilan birga, A.F. Trotsevich xulosaviy fikr tarzida koreys adabiyotini davrlashtirishda yana an'anaviy usulga murojaat qilib, koreys adabiyoti tarixini sulolalar tarixi bo'yicha davrlarga bo'lganligi kuzatiladi.

Ammo Uzoq Sharq madaniyati tadqiqotchilar sulolalar bo'yicha davrlashtirish usuliga sodiq qolganlar. Amalda Koreyada taxtga yangi sulolaning kelishi doim fitnalar va mamlakat ma'naviy hayotida o'zgarishlar davri bilan bog'liq bo'lgan. Tabiiyki, adabiyot shu o'zgarishlar bilan hamohang ruhda yashagan, ba'zan ulardan ildamlab ham ketgan: har bir davr o'z ustuvor mavzularini ilgari surgan, adabiyot tarixida turli janrlarga moyillik bilan ajralib turgan. Masalan, Koryo sulolasi xitoy tilidagi tarixiy asarlar va she'riyat bilan, Li sulolasi esa – she'riyat va milliy nasr janrlarining rivojlanishi bilan dovruq taratgan.

O'rta asr koreys adabiyotini o'rgangan koreys olimlari o'z adabiyoti tarixini davrlashtirishda bir necha tamoyilga asoslanadilar.

**Birinchi tamoyil** koreys adabiyoti tarixini davrlashtirishda sulolalar bo'yicha yondashilganligi bilan xarakterlanadi. Kim Txe Jun, Yun Se Pxon<sup>1</sup>, Ton Gin Xun<sup>2</sup>ning ishlarida mazkur tamoyilga asoslanganligi kuzatiladi. Ton Gin Xun buni tan olmasa ham, uning tasnidifa har bir adabiy davr u yoki bu sulolaning hukmronlik davri bilan aynan mos keladi (masalan, X–XIV asrlarda Koryo, XV–XIX asrlarda Li sulolalari hukmronligi tarzida).

**Ikkinci tamoyil** adabiy jarayonlarni asrlarga ko'ra davrlashtirishni nazarda tutadi. Masalan, KXDR FAning Til va adabiyot instituti tomonidan chop etilgan «Koreys adabiyotining umumiy tarixi» asarida mana shu tamoyilga asoslanilgan<sup>3</sup>. Bu

<sup>1</sup> *Yun Se Pxon*. Li sulolasi davrida koreys adabiyoti tarixi va janrlar haqida. — Pxenyan, 1984.

<sup>2</sup> *Ton Gin Xun*. Koreys adabiyoti tarixini davrlashtirish haqida (Munxak Yongu) — Pxenyan, 1980. — №4. — 65–77-b.

<sup>3</sup> Koreys adabiyoti umumiy tarixi. — Pxenyan, 1959. T.1.

tamoyilga asosan ish ko‘rliganda, adabiy jarayonning uzviyiligi buziladi, adabiyot tarixi esa xronologik jihatdan bir-biriga yaqin yozuvchilar ijodi sharhiga bog‘liq holda tasniflanadi.

***Uchinchi tamoyil*** Janubiy koreyalik adabiyotshunos Pak Son I tomonidan taklif qilingan bo‘lib, olim koreys adabiyoti tarixini quyidagi olti davrga ajratgan:

1) Ilk davr — eng qadim davrdan to Koryo, ya’ni 1392-yil davlat boshiga Li sulolasi kelgan davrgacha;

2) Shakllanish davri — Li sulolasi hukmronligi davridan (1392-yil) — Imjin vatan urushi (1592—1598-yillar)gacha;

3) Shiddatli taraqqiyot davri — Imjin vatan urushi davridan manjurlarning ikkinchi istilosи (1637-yil)ga qadar;

4) Ravnaq davri — Sukjon qiroli hukmronligi davri (1670—1720-yillar);

5) Jadal rivojlanish davri — Yon Jo va Chon Jo qiollarining hukmronligi davri (1725—1800-yillar);

6) Tushkunlik davri — Sun Jo, Chxol Chon qiollari hukmronligi davri (1801—1863-yillar)<sup>1</sup>.

Muallif, koreys adabiyoti taraqqiyotini davrlashtirishda mamlakat tarixidagi siyosiy va madaniy-tarixiy omillarga asoslanganligini ta’kidlasa-da, aslida, unda estetik va filogenetik tamoyillarning qorishib ketganligining guvohi bo‘lamiz.

Zamonaviy koreys adabiyotshunoslarning tadqiqotlarida, adabiyot tarixini Koreyaning iqtisodiy va siyosiy tarixi bosqichlari bilan muvosifqlashtirishga intilish seziladi. Ular davrlashtirishda adabiy jarayonlarning tahlili yoki uning o‘ziga xos xususiyatlari, belgilariga emas, aksincha, adabiyot bilan u yoki bu darajada bog‘liq bo‘lgan hodisalarga asoslanishgan. Ammo iqtisodiy va siyosiy omillar har doim ham adabiyotning rivojiga bevosita ta’sir qilmaydi, aksariyat hollarda ular bilvosita, masalan, falsafa, diniy oqimlar orqali astasekinlik bilan ta’sir qiladi. Biroq adabiy jarayonni davrlashtirish masalalari mamlakat tarixining davrlashtirilishi bilan to‘la mos kelishi mumkin emas, chunki adabiyot xalq tarixining bevosita emas, balki

---

<sup>1</sup> Qadimgi koreys adabiyoti tarixi. — Seul, 1981. — 32-b.

badiiy-tasviriy vositalar orqali namoyon bo‘ladigan aksidir. San’atning alohida turi sanaladigan badiiy adabiyot o‘z spetsifik xususiyatlari va ichki qonuniyatlariga ega.

Fikrimizcha, o‘rta asr koreys adabiyoti tarixini mamlakat adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, adabiyot taraqqiyotining umumiy tipologik tamoyillariga asoslanib davrlashtirish maqsadga muvofiqdir. Zotan, akademik D.S. Lixa-chyov asosli ta’kidlaganidek, tevarak-atrofdagi olamni, eng avvalo, insonni tushunish va tasvirlash mezoni adabiyotning tarixiy bo‘linishi uchun asos bo‘la oladi. Olamni tushunish va uni badiiy tasvirlash metodlarining o‘zgarishi, adabiyotda inson, tabiat, turmush tasvirining o‘zgarishiga olib keladi. Darhaqiqat, bu o‘zgarishlar, adabiyot taraqqiyotida davrlar almashinuvi ro‘y bergenini bildiradi<sup>1</sup>. Aynan ana shu nuqtayi nazardan o‘rta asr koreys adabiyoti taraqqiyotini boshqa adabiy davrlar bilan qiyosiy o‘rganish muhim ahamiyatga molikdir.

O‘rta asr koreys adabiyoti tarixining asosiy xususiyatlari, undagi inson va tabiat tasvirlaridagi o‘zgarishlarni c’tiborga olgan holda, o‘rta asr koreys adabiyoti tarixini quyidagicha davrlashtirish mumkin:

*Ilk davr* (X asrgacha) – bu davr yodgorliklarining saqlanib qolmagani tufayli noma’lumligicha qolmoqda. Uni shartli ravishda «notiqlik» davri deb atash mumkin.

*Ikkinchı davr* (XI – XIV asrlar) nasming novella shakllanishiga qadar bo‘lgan rivojlanish davri hisoblanadi. Bu davr adabiyoti rasmiy va norasmiy tarix tipidagi asarlarga syujetli va ba’zan folklor materiallarining kiritilganligi bilan xarakterlanadi.

*Uchinchi davr* (XIV – XVI asrlar) – bu davrda badiiy nasr shakllanib qaror topdi, *pxesol* to‘plamlari paydo bo‘ldi, folklor materiallarini adabiy ishlash boshlandi, badiiy tasvirning yangi vositalari ishlab chiqildi.

<sup>1</sup> Лихачёв Д.С. Культура Руси времен Андрея Рублева и Епифания Премудрого. – М.-Л., 1962; Его же. Исследования по древнерусской литературе. – Л.: Наука, 1986.

*To 'rtinchi davr* (XVI – XVIII asrlar) – yangi g'oya, yangi shakllarni izlash va yangi janrlar (qissa, roman)ning vujudga ketish davri. Bu davr adabiyotining muhim yutug'i inson tasviriga butunlay yangicha yondashuvda ko'rindi. Qadimgi janr shakllari (qisqa novella) imkoniyatlari inson tabiatining chuqur va keng qamrovli tavsifini berish talabini qondira olmaganligi tufayli, yozuvchilar tasvirning yangi shakl va uslubini izlaganligi kuzatiladi. Bu davrda yaratilgan adabiy asarlarning muallif tomonidan kiritilgan badiiy to'qimalar bilan boyitilishi natijasida syujetli nast rivojlanganligini qayd etish mumkin.

*Beshinchchi davr* (XVIII – XIX) – yangi davr adabiyotiga o'tish bosqichi. Bu davr ma'rifatparvarlik davri deb ham nomlanadi. Unda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lган serg'ayrat, chuqur fikr yurituvchi qahramon vujudga keldi, bu esa janrlar evolutsiyasi jarayonida inson obrazining transformatsiyasi natijasidir.

Fanga ma'lum bo'lган ilk adabiy yodgorliklar qadimgi koreys adabiyoti dastlab, uzoq davr mobaynida og'zaki shakllarda mavjud bo'lган va faqatgina X asr boshida bu og'zaki yodgorliklar yozma shaklga o'ta boshlaganidan dalolat beradi. X asrgacha bo'lган koreys adabiyoti haqidagi juda kam va uzuq-yuluq ma'lumotlar asosida adabiyotning qadimgi davrlardagi rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash qiyin. Zamonaviy koreysshunoslik doirasida X asrdan keyin rivojlangan adabiyotni davrlashtirish haqidagi masalani qo'yish mumkin.

Koreys xalq og'zaki ijodidan yozma ijodga o'tish davri «notiqlik san'ati bosqichi» degan shartli nom bilan atalgan<sup>1</sup>. Biroq Qadimgi Sharq yodgorliklarining tadqiqi shuni ko'rsatadiki, og'zaki ijoddan yozma ijodga o'tish jarayoni notiqlik san'ati rivojlangunga qadar sodir bo'lган va oradan ma'lum bir davr o'tgan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> О переходе от устного народного творчества к письменной литературе (этап ораторского искусства в литературах Востока)/Никитина В.Б., Наевская Е.В., Розднеева Л.Д., Редер Д.Г. //Доклады на XXV Международном Конгрессе востоковедов. – М., 1960.

<sup>2</sup> Брагинский И.С. Из истории таджикской народной поэзии. – М., 1956; Дьяконов И.М. История Индии. – М. – Л., 1956; Дьяконов М.М., Дьяконов Н.М. Избранные переводы. – М., 1985.

Notiqlik san'ati G'arbda (qadimgi Yunoniston va Rimda), Sharqda (Eron, Turon, Arabiston) va Xitoyda keng tarqalgan. Milliy yozuvi shakllangan xalqlarda adabiyot tarixidagi notiqlik bosqichi uzoq muddat davom etgan. Biroq yozuvning paydo bo'lishi yozma adabiyotning vujudga kelishi, degani emas. Koreyada notiqlik san'ati bosqichi qaysi jihatlari bilan e'tiborli, degan haqli savol tug'iladi. Ijtimoiy tengsizlikning avj olishi tufayli milliy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodi hukmron tabaqa ideologiyasi tomonidan qattiq siquvgaga olinadi. Natijada, bir tomonidan, folklor dagi an'anaviy syujet va obrazlar, hatto alohida folklor asarlaridan ham ma'lum maqsadda foydalanish jarayoni kuzatilsa, ikkinchi tomonidan, xalq ijodida xalqqa qarshi g'oyalar, syujet va obrazlar kirib kela boshladi. Ibtidosi fasohatli so'zlash urf bo'lgan davrdan boshlab, koreya notiqlik san'ati davrida folklor an'analarini o'zlashtirgan notiqlik ijod namunalari yaratildi. Hatto, bugungi kunda fanga ma'lum bo'lgan matn parchalari ham koreys adabiyotida notiqlik san'at darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

X–XIV asrlar yozma yodgorliklari bu bosqichda o'ziga xos adabiy jarayonlar kechganini isbotlaydi. Mamlakat tarixida bu davr birlashgan Silla (VII–X asrlar) davlati o'mida vujudga kelgan markazlashgan Koryo davlatining shakllanish va mustahkamlanish davri hisoblanadi. Bu davrda iqtisodiy yuksalish, madaniy hayotdagi o'zgarishlar bilan bir qatorda, Xitoy madaniy an'analarining adabiy hayotga kirib kelishi kuzatiladi. Adabiyotni asosan tarixnavislikka oid asarlar tashkil qilgan. Xususan, Budda rohiblari hayotiga bag'ishlangan diniy va davlat boshliqlari hayotini akc ettirgan tarixiy asarlar yetakchi o'rinn egallagan. Mohiyat e'tibori bilan bu davr adabiyotining asosiy maqsadi bitta: o'tmisht kishilarini va bo'lib o'tgan voqealar haqida axborot berish hamda Konfutsiy ta'llimoti nuqtayi nazaridan hukmron va tobe inson qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Albatta, bu o'rinda Konfutsiy ta'llimotining insonlararo munosabatlarga, xalqning turmush tarziga katta ta'siri bo'lganligi kuzatiladi. Insonning shaxsiy hayoti, uning fikri, aql-idroki, dunyoqarashini tasvirlash bu davr adabiyoti uchun xos bo'lmagan.

Bu davrda yaratilgan agiografik<sup>1</sup> xarakterdagи asarlarda ruhoniylar, Konfutsiy ta'limoti peshvolari obrazini yaratishga ko'proq c'tibor qaratilgan. Agiografik adabiyot oldidagi asosiy vazifa oddiy odamlarga har jihatdan namuna bo'ladigan inson obrazini yaratishdan iborat bo'lgan. Ideal ilohiy insonning hayoti tasvirida u bilan bo'layotgan ajoyib va g'aroyib hodisalarga alohida e'tibor berilar edi. Masalan, Xyok Nyonchxonning (1075-yil) «Kyunyo hayoti» asarida qahramon ko'plab qiyinchiliklarga duchor bo'ladi, turli to'siqlarni yengib o'tadi. Odatda, murakkab bo'Imagan syujet asosini har qanday to'siqlardan o'ta oladigan, inson kuchi yetmagan vazifalarni uddalaydigan barkamol obraz timsolini yaratish tashkil etgan. Agiografik adabiyot qahramoni faol turmush tarzini kechiradi, uning xatti-harakatlari doimiy ravishda nimalarnidir amalga oshirishga qaratilgan, biroq bu xatti-harakatlar sababi psixologik jihatdan asoslanmagan. Bunda personajning ichki dunyosi – uning fikrlari va hissiyotlari hisobga olinmaydi. Muallifni qahramonning tashqi qiyofasi ham, uni o'rabi turgan atrof-muhit ham umuman qiziqtirmaydi. Asosiy personaj Kyunyoning bolalikdagi ijobiy xislatlari, u balog'at yoshiga yetganda ham, keksayganda ham sifat jihatdan hech qanday farq qilmaydi. Bir so'z bilan aytganda, bosh qahramon xarakteri tadrijiy takomilda berilmaydi.

O'rta asr koreys adabiy jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan bir qator yodgorliklar mavjud. Kim Busik (1075–1152)ning «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» tarixiy asari shular jumlesi-dandir. Asar 1145-yili yozilgan bo'lib, rasman tarixiy asar deb tan olingan. Bu davrda Korcyada tarixiy asarlar *chonsa* «rasmiy tarix» va *yasa* «norasmiy tarix» kabi ikkita guruhga bo'lingan.

Hukmdorning buyrug'iga ko'ra, qadimgi xitoy folklor namunasi hisoblangan Sin Syan (Shisen, I asr boshi) asosida yaratilgan ushbu asarda Kim Busik Silla, Pekche, Koguryo va Birlashgan Silla davlatlarining tarixini bayon etgan. Konfutsiy

<sup>1</sup> Ким Бусик. Самгук саги. Разные описания. Биография (перевод, вступ., статья, коммент., приложения под ред. М.Н.Пака и Л.Р. Концевича). — М., 2002.

ideallari asosida tarbiya ko'rgan sobiq davlat arbobi Kim Busik muallifning vazifasi, avvalambor, asarning ma'naviy ta'sirida, deb bilgan. Asardagi inson obrazlarining yaratilishida muallifning ideal hokim va ideal fuqarolar haqidagi tasavvurlari asos bo'lgan. Bu asar qahramoni davlat ishlarida faol ishtirok etadigan tarixiy shaxsdir. Kim Busik tarixni xalq rivoyati va affsonalari asosida «qayta yaratar» ekan, beixtiyor, o'zi istamagan holda folklor unsurlarining tarixiy asarlarga kirib kelishiga sababchi bo'lgan. Bu esa, bizga asardagi ikki jihat, ya'ni «epiklik» va «yilnama» (konfutsiylik)ni farqlashga imkon beradi. Birinchisi, ya'ni epik jihatni ko'proq folkloргa yaqinligi, masalan, qahramon *vanlarning* xuddi epik asarlardagi singari kuchli va jasur shaxs bo'lishi bilan belgilanadi. U qahramonona xatti-harakatlarini nafaqat kuch, balki ayyorlik, makkorlik, ziyraklik bilan amalga oshiradi, uning yonida doimo dono maslahatchisi Sol Chxon ham hozir bo'lgan. Bu tipdagи personajlar boshqa xalqlardagi qahramonlik eposlarida ham uchraydi. Ikkinci, yilnomalarga xos jihat esa Konfutsiy ta'limoti bilan bog'liq bo'lib, qahramon taxtga o'tirganidan so'ng ko'proq namoyon bo'ladi. Bunda qahramon Konfutsiy ideallariga muvofiq ravishda dono va insonparvar hokim, «xalqning otasi» sifatida gavdalanadi. Shunday qilib, obrazlarning qahramon tipi yaratilishiga xalq og'zaki ijodi, dono va insonparvar tipi namoyon bo'lismiga esa doimo o'z davlatiga sodiq bo'lgan davlatboshi va fuqaroga ham tegishli bo'lgan Konfutsiy ta'limoti ta'sir qilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Kim Busik asari rasmiy tarixiy asarlar sirasiga kirib, u boshlagan an'ana keyinchalik Budda rohibi Kim Iryon (1285 yil)ning «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» asarida davom etdi.

Kim Busikning asari badiiy an'analarni davom ettiruvchi *chonsa* «rasmiy tarix» turiga mansubdir. «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» asari *yasa* «norasmiy tarix» tipidagi ilk asardir. Mazkur asarning muallifi Kim Iryon Kim Busikdan farqli o'laroq, o'z oldiga xalq xotirasi tarixinining ajralmas bir qismi bo'lib saqlanib kelayotgan narsalarini, ya'ni davlat asoschilari — «oddiy fuqaro», «g'ayrioddiy», «ajoyib» *vanlarning* tug'ilishi, shaharlarning qurilishi, ajoyib hamda g'aroyib hodisalar haqida rivoyat-

afsonalarni yig'ish, toplash va yozib olishni vazifa qilib qo'ydi. Biroq mazkur davr uchun xarakterli bo'lgan yodgorliklarning turli tasnifiga qaramasdan, ularda insonni, haqiqatni tasvir etish tamoyili bir xildir. Asarlarda inson tarixiy shaxs sifatida aks ettiriladi. Bizning nazdimizda, asarlardagi hodisalar hujjatlar bilan dalillangan bo'lmasa-da, muallif uchun tarixiy faktidir.

«Uch davlatning tarixiy yozuvlari», «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar», «Hordiqdagi hikoyalari», «Pechun hikoyalari» va boshqa tarixiy asarlarda mualliflar komil inson obrazini yaratara ekanlar, ular xatti-harakatlarining faqat tashqi tomonini tasvirlash bilangina cheklanganlar. Insonning ichki dunyosi, o'y-xayollari, tafakkuri singari masalalar nazardan chetda qolgan. Qahramon xatti-harakatlari uning ichki dunyosi bilan asoslanmaganligi, asarga ko'plab nutqiy matnlarning kiritilishiga olib kelgan.

Ammo ta'kidlash joizki, bu asarlarda ilk badiiy adabiyotga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri — qahramonning tashqi portretini tasvirlashga urinishlar ko'zga tashlanadi. Bunda qahramon tashqi ko'rinishiga xos bo'lgan har bir belgi alohida bo'rttirilgan holda tasvirlanadi. «Falonchi Chjouga o'xshaydi» degan iboraning o'ziyoq, o'quvchiga bu yerda «ideal» hokim haqida so'z yuritilayotgantligiga ishora qilgan.

XIII asr oxiri XIV asr boshida Koreyada Konfutsiy ta'llimoti inqirozga uchraydi va uning o'mini insonga «ijtimoiy birlik» sifatida emas, balki «buyuk tabiatning bir bo'lagi» sifatida qarash shiori bilan chiqqan daosizm egallaydi. Bu o'rinda D.S.Lixachyovning «Tavarak-atrofdagi olamni, eng avvalo, insonni tushunish va tasvirlash mezoni adabiyotning tarixiy bo'linishi uchun asos bo'la oladi»<sup>1</sup>, degan fikri yana bir bor o'z tasdig'ini topadi. Aynan shuning uchun ham o'rtta asr koreys adabiyotining rivojlanish tarixini davrlashtirishdagi ikkinchi bosqichni XIV asr oxirlaridan belgilash lozim.

XIV asr oxiri va XVI asr boshlarida sulolalarining almashishi, taxt uchun kurash bilan bog'liq voqealar yerning davlat mulki

<sup>1</sup> Лихачёв Д.С. Исследования по древнерусской литературе. — Л.: Наука, 1986. — С. 35.

sifatida tartibga solinishi va markazlashtirilgan hokimiyatning mustahkamlanishi bilan yakunlandi. Madaniy hayotda ham katta o'zgarishlar bo'ldi: 1443-yilda *xunmin chonim* milliy fonetik yozuvi kashf etildi. Bu yozuv *xanmunni*<sup>1</sup> iste'moldan chiqara olmasa-da (xanmun XIX asrgacha mavjud bo'lган), koreys so'zlashuv tilini yozib olish imkoniyati paydo bo'ldi. Xuddi shu davrda harf terish yo'li bilan kitob bosish keng qo'llanila boshlandi. Bularning hammasi ona tilida ham nasr, ham nazmning rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayonlarning amalga oshishida adolatparvar hukmdor qiroq Sejonning xizmati katta bo'ldi.

XIV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi adabiyot voqelikni tarixiy ma'lumotlar orqali tasvirlashdan badiiy to'qimalar orqali tasvirlashga o'tishi bilan xarakterlanadi. Ilk bor mustaqil syujetga ega bo'lган nasr namunalari paydo bo'ldi. Nasriy asarlar adabiyotning alohida qismi sifatida rivojlanishi bilan bir vaqtida, uning ahamiyati, sifat darajasi ancha o'sdi. Garchi «tarixiylik» qisman saqlanib qolsa-da, to'qima obrazlarning mavqeyi oshdi, xalq og'zaki ijodiyoti boyliklaridan, «norasmiy tarix» asarlaridan olingan o'xshash syujetlar yaratildi. Adabiyotga to'qima syujet kirib kela boshladi.

Jamiyatda bo'lGANI kabi adabiyotda ham insoniy xislatlarga bo'lgan qiziqish ortdi. E'tiqod, sadoqat, jangdagi jasorat,

<sup>1</sup> *xanmun* – xitoy iyerogliflarining koreyslashtirilgan shakli. O'rta asrda Koreyadagi rasmiy yozma adabiy til hisoblangan. Xitoy yozuvidan bir qator yangi iyeroglis va birikmalar, ba'zi bir belgilarning o'zgarishi, xitoycha o'qiladigan iyerogliflarning koreys fonetik tizimiga moslashuvi, ba'zi bir hollarda so'zlar tartibining buzilishi, matnni o'qishda ba'zan koreys tili grammatik yuklamalari qo'shilishining alohida qonunlari bilan farq qiladi. VI–VII asrlarda xitoy iyerogliflari asosida yaratilgan «*idu*» (amaldorlar yozuvi) va XV asrda koreys fonetik alfaviti yaratilganligiga qaramasdan xanmun er.av. I asrdan 1984 yilga qadar davlat boshqaruvida, bilim va madaniyat sohasida aloqa vazifasini bajargan. O'rta asr koreys ilmiy va badiiy adabiyotning barchasi xanmun (xanmunxak)da yaratilgan. Xitoy mumtoz adabiyotidagi ko'plab janr, syujet, an'anaviy obraz va badiiy tasvir vositalari sistemasi xanmunda ijod qilgan koreys adiblari tomonidan qabul qilingan va qayta ishlangan edi; xitoy she'riyati qonunlariga amal qilish koreys so'z ustalari uchun majburiy bo'lган. Shu bilan birga, xanmundagi asarlar asl asarlar hisoblanardi; xanmundagi adabiyotning rivojlanishi koreys tilining taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

topqirlik kabi xususiyatlar madh etila boshlandi. Bu tasodif emas. Chunki yangi hukmron sulolaning ilk hukmdorlari yirik feodallarga qarshi kurashda, eng avvalo, zodagon bo'lmasada, biroq sadoqatli insonlarga suyangan holda ish yuritganlar. Adabiyot bu davrda insonning ijtimoiy holati va davlatdagi mavqeyidan qat'i nazar, unga tobora yaqinlashdi. Agar avvalgi davrda ideal inson obrazini olib berishda asosiy e'tibor uning xatti-harakatiga qaratilgan bo'lsa, bu davrga kelib, barcha e'tibor qahramonning xulq-atvorini, borlig'ini ko'rsatuvchi xislatlarga va inson qalbiga qaratildi. XI–XIV asr adabiyoti bilan qiyoslaganda, bu davr adabiyotida insonning individual xususiyatlari yaqqol namoyon bo'la boshladi. Shu tariqa o'sha davr adabiyoti insonni turli munosabatlarda (davlat, shaxsiy) va vaziyatlarda (tabiat, maishiy hayot) aks ettirib, bir necha adabiy janr xususiyatlarini o'zida jamlagan, ularning chegaralari kesimidagi janrlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Adabiyot insonning alohida his-tuyg'ulari, qalb tug'yoni tadirijiy takomilini komillik darajasiga ko'tarilgungacha bo'lgan jarayonni ko'rsatishga harakat qilganining guvohi bo'lamiz.

Ammo bu milliy alifbo yaratilgunga qadar koreys tilida yozma adabiyot mayjud bo'lman, degan ma'noni anglatmaydi. Qadim zamonlardoq koreyslar iyeroglif yozuvini o'z ona tilidagi matnlarni yozish uchun moslashtirishga harakat qilganlar. Buning uchun iyeroglifdan odatda sonetik belgi sifatida foydalanilgan, lekin iyeroglifning «sonetik roli» izchil tartibga solingan tizim bilan mustahkamlanmagan. Har bir muallif koreyscha so'zni yozish uchun o'ziga ma'qul kelgan xitoycha belgini tanlagan (ishlatiladigan iyerogliflar soni esa bir necha mingtani tashkil etadi). Shu bois mazkur usulda yozilgan va hozirgacha saqlangan matnlarni o'qish juda qiyin.

Koreys adabiyoti azaldan ikki tilda yaratilgan, bunda ilk bosqichlarda koreys va xitoy tillarida yozilgan asarlar teng qimmatga ega, deb hisoblangan va ularning «barkamollik» va «olijanoblik» darajasiga ko'ra ajratilmagan. Bunday ajratish keyinchalik odat tusini olgan: koreys tilida yozilgan asarlar «tuban», xitoy tilida yaratilgan asarlar esa — «yuksak» adabiyot namunalari sifatida qarala boshlagan.

Shunga qaramay, har xil turdag'i asarlar uchun u yoki bu tildan foydalanish afzal ko'rilgan, masalan, mahalliy madaniyat bilan bog'liq matnlar uchun – koreys tilidan, rasmiy tarixiy asarlar uchun – xitoy tilidan foydalanilgan. Ona tiliga past nazar bilan qarash ancha keyin, Li sulolasi hukmronlik qilgan davrdagina paydo bo'lgan.

Bu davrda koreys tilida yozish qora xalqqa xos, haqiqiy adabiyot faqat xitoy tilida yaratilishi mumkin, degan qarash ilm ahli orasida keng tarqalgan. Ammo milliy yozuv paydo bo'lganidan so'ng, ayniqsa Li sulolasi hukmronligi davrinning ikkinchi yarmida ko'pgina yozuvchilarning ijodida xitoy tilida yozilgan asarlar ham, koreys tilida yozilgan asarlar ham paydo bo'lgan. Boz ustiga, ayrim adiblar o'z hamkasblarini birovning yozuviga sajda qilishda ayblay boshlaganlar va ularni o'z ona tillarida ijod qilishga chaqirganlar.

Yozuv bilan birga Koreyaga xitoy she'riyati va nasr janrlari ham kirib kelgan. Janrlar o'z nomlari va belgilariga ega bo'lgan. Masalan, she'riyatda *cholgu* (xitoycha szyueszyuy), *yulsi* (xitoycha lyuysi), *akpu* (xitoycha yuefu), nasrda – *chon* (xitoycha chjuan), *ki* (xitoycha szi), *sol* (xitoycha sho), *nok* (xitoycha lu). Janrlarning nomlarini o'zbekchaga aniq tarjima qilish qiyin, chunki nomga kiruvchi iyerogliflarni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish mazkur janr xususiyatlari haqidagi tasavvur hosil qilish imkoniyatini bermaydi (masalan, *cholgu* she'riy janri so'zma-so'z tarjimada «uzilgan bandlar» degan ma'noni, *akpu* – «musiqa palatasi» degan ma'noni anglatadi). Bu atamalar illustrativ material yordamida tushuntirishni talab etadi. Hozirgi vaqtida xitoy she'riyatiga doir ko'p sonli tarjimalar va tadqiqotlar e'lon qilingan, shu bois barcha kerakli ma'lumotlarni ayni shu maxsus ishlardan olish mumkin.

Xitoy she'rining tuzilishi haqidagi umumiyligi tasavvurlar mazkur ishda quyiroqda, xitoy tilidagi koreys she'riyatiga bag'ishlangan bo'limlarda berilgan. Shunga o'xshash fikrlar nasr janrining ko'rsatkichlariga ham tegishli. Bunda she'riyat va nasr asarlarining nomlari, odatda, xitoy tilida yozilganligini e'tiborga olish lozim. An'anaviy adabiyot asarlarining nomlarida xitoycha belgilari XX asrgacha saqlanib qolgan, ba'zan ularga hozirgi zamon nasrida ham duch kelish mumkin. Albatta, asrlar mobaynida ko'p sonli,

mazmunan har xil, katta va kichik asarlar paydo bo'lgan, lekin ularning har biri muqarrar tarzda janrning odatdag'i xitoycha ifodasi bilan belgilangan. G'arb va Rossiya tadqiqotchilari adabiyotning bu xususiyatini odatda e'tiborga olmaydilar va asarlarni o'zlar qabul qilgan janrlar bo'yicha taqsimlaydilar.

Rossiya koreyshunosligida qabul qilingan janrlar tizimiga xatoliklarga yo'l qo'ymaslik uchun mazkur ishda o'zbek adabiyot-shunosligi terminologiyasiga muvofiq ifodalangan janr nomi yonida koreyscha janr transkripsiysi keltirilib o'tildi. Shuni qayd etish lozimki, koreys she'riyatining ona tilida yaratilgan asarlar janrlarning xitoycha tizimiga ham, yevropacha tizimiga ham kiritilmagan, ular koreyscha janr nomlarini saqlab qolgan, masalan, sijo (qisqa she'r) yoki kasa (*yirik hajmli, dostonnamo she'r*), ammo bu nomlar xitoy iyerogliflari yordamida yozilgan.

Xitoy sivilizatsiyasi Koreyaga konfutsiychilik va daosizmni olib kelgan. Xitoy orqali bu yerga buddizm ham kelgan. Chetdan kelgan ta'limotlar miflar va odatlarda o'z ifodasini topgan mahalliy madaniy tasavvurlar bilan o'zaro ta'sirga kirishgan. Koreys va qit'a madaniyati qadimgi ildizlarining birligi konfutsiychilik va buddizm mahalliy zaminda kurtak otishi va undan mustahkam o'rin olishiga ko'maklashgan bo'lsa kerak. Boz ustiga, buddizm bu zaminda yashabgina qolmasdan, balki koreys an'anaviy madaniyati matnlarining saqlovchisiga ham aylangan. Buddaviy rohiblarning sa'y-harakatlari bilan qadimgi marosim qo'shiqlari, afsona va rivoyatlar yozib olingan. Natijada koreys adabiyotining o'ziga xos qiyofasini shakllantirgan «madaniy qotishma» vujudga kelgan.

Odatda, adabiyot tarixiga doir asarlarda nasr va she'riyat kimga mo'ljallangan, xitoy va koreys tillarida yozilgan ko'p sonli asarlar kitobxoni kim bo'lgan, degan savol qo'yilmaydi. Albatta, xanmun (xitoy adabiy tili – venyanning koreyscha varianti)da yaratilgan asarlar xitoy tilidangina emas, balki xitoy adabiyotidan ham xabardor bo'lgan, uning obrazli vositalar tizimining xususiyatlarini tushungan o'qimishli kishilarga mo'ljallangan. Xitoy adabiy tilida yozilgan asarning mazmunini anglab yetish uchun xitoy mumtoz adabiyoti asa~~larini~~ mazmun va mohiyatini teran anglash talab

etilgan, chunki zikr etilgan har bir ism yoki xitoycha asarlardan keltirilgan iqtibos tarixiy va adabiy assotsiatsiyalarning uzun zanjiri bilan bog'liq bo'lган. «Xitoizmlar»дан koreys tilidagi adabiy asarlarda ham keng foydalanilgan. Xitoy adabiyoti qahramonlarining ismlari va xitoy klassiklarining asarlaridan o'zlash-tirilgan she'riy iboralar koreys she'riyati va nasrida muayyan vaziyatlar, predmetlar va ularning xossalarni ifodalovchi belgilar vazifasini bajargan. Asarlarda ko'p keltirilgan xanmundagi iqtibos va she'rlar ko'pincha koreyscha harfli yozuv bilan yozilgan va aftidan, kitobxon uni doim ham tushunavermagan. Demak, xitoy tilida yozilgan asarlar doim ham tushunarli bo'lmasa-da, lekin «namunaviy» deb hisoblangan tilda ifodalangani uchungina o'z-o'zidan «go'zal» deb e'tirof etilgan. Iqtibos mazmuni ikkinchi darajali ahamiyat kasb etgan, zero xitoy tilidagi asarlardan olingan iqtiboslar, qahramonlarning ismlari va ma'lumotlarni koreyscha o'qilishida (iyeroglif yozuvida ham) xitoy adabiyotining bilimdoni sanalgan kishilargina anglab yetishga qodir bo'lganlar.

An'anaviy she'riyat va nasr tili «belgili» bo'lган: mahoratda o'ziga xoslik emas, balki muallifning o'z matniga «begona, tayyor» obrazni mohirona singdirish qobiliyati qadrlangan.

---

## I. ILK ADABIYOT. UCH PODSHOLIK VA SILLA DAVRI

*(X asr o'rtalarigacha bo'lgan davr)*

Biron-bir xalqning adabiyotini uning o'zidan, mazkur xalq yashaydigan zamindan, u yaratayotgan tarixdan, uning hayoti va madaniyati mazmunidan ajratib bo'lmaydi. Koreys adabiyoti ham bundan mustasno emas.

X asrga qadar bo'lgan koreys adabiyoti an'anaga ko'ra «ilk», «qadimgi» adabiyot deb ataladi. Adabiy merosni o'zlashtirishda u ancha muhim o'rinnegi egallaydi, zero, u buyuk koreys adabiyotining rivojlanishida dastlabki bosqich hisoblanadi. Adabiyot tarixi koreys xalqi va Koreya davlatining tarixidan alohida qaralishi mumkin emas. Taniqli xitoyshunos olim V.M.Alekseyev bu xususda shunday deb yozgan edi:

«Biron-bir xalqning adabiyoti haqida gapirishdan oldin uning g'oyaviy tarixi asoslarini anglab yetish, mantiqiy jihatdan uning hozirgi kunini o'tmish bilan yaxlit bir butun qilib bog'lash zarur»<sup>1</sup>.

Ilk koreys adabiyotining rivojlanishi u ilk milliy davrni, undan oldingi qadimgi dunyoni o'zlashtirishidan, arxaik madaniyatga, xalq og'zaki ijodi – afsonalar, ertaklarga, oilaviy-maishiy rasm-rusumlar va urch-odatlarga murojaat etishdan, xalq hayatini, uning taqdirini to'laqonli aks ettirish maqsadida ularni badiiy adabiyotga olib kirishdan boshlanadi. Ayni hol adabiyot Koreya tarixinining o'ziga xos in'ikosi ekanligi bilan izohlanadi. Bu tarix, insoniyat tarixi singari, ilk milliy davrdan, paleolit davridan boshlanadi. Shu tufayli ham, Li Gi Bek ta'kidlab o'tganidek:

---

<sup>1</sup> Алексеев В.М. Китайская литература. – М., 1978. – С. 21.

«Koreya tarixini Qadimgi Chosonga asos solgan qিrol sulolalari vujudga kelgan davrdan boshlab o'rganishga urinishning o'ziyoq ilmiy emas»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, hali qиrol sulolalari paydo bo'lishidan oldin, bronza asri ravnaq topgan davrda (miloddan avvalgi 1000–3000-yillarda) Koreya hududida «qal'a – davlatlar negizida vujudga kelgan siyosiy birlashmalar – Sungari daryosi havzasining shimoliy qismida Puyo, Amnokkan daryosining o'rtal qismida Emek, Lyaoxe va Tedongan daryolarining havzasida Qadimgi Choson mavjud bo'lган»<sup>2</sup>.

Koreya Sharqiy Osiyoning qadimgi davlatlaridan biridir. Koreya tarixida ilk davlat tuzilmasi qadimgi Choson bo'lib, uning ravnaq topgan davri miloddan avvalgi V–VI asrlar hisoblanadi. Mamlakat nomi ayni shu «Choson» so'zidan kelib chiqqan va «Tonggi tozalik mamlakati» yoki «Tonggi osoyishtalik mamlakati» degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik (miloddan avvalgi I asrda) Koreya yarimorolida va bir vaqtlar qadimgi Choson tarkibiga kirgan yerlarda ilk feodal davlatlar – Koguryo, Pekche, Silla vujudga kelgan. Uch podsholik – «Samguk sagi» davri boshtangan.

Koguryo, Pekche va Silla o'rtasida o'zaro urushlar uzoq davom etgan, ularning o'rtasidagi nifoq ayniqsa IV–V asrlarda kuchaygan. Cheksiz urushlar davlatlarning ishlariga sirtdan aralashuv uchun zamin yaratgan. Yarimorolga Xitoyning Suy va Tan sulolalari qo'shinlari ko'p karra bostirib kirgan. Yagona davlat – Sillaning vujudga kelishi Koreya tarixida ulkan voqeа bo'lган, VII–VIII asrlarda u kuchli markazlashgan feodal davlatga aylangan. Ammo, VIII asr oxiri – IX asr boshlarida davlat asta-sekin tanazzulga yuz tutgan. Feodallar o'rtasida o'zaro nifoq kuchaygan. Mamlakatni birlashtirish va feodallar o'rtasidagi urushlarni to'xtatish eng muhim vazifaga aylangan.

Yarimorol yerlarini sarkarda Van Gon (877–943) birlashtirgan. U 918-yilda Koryo davlatini tashkil qilgan. An'anaga ko'ra,

<sup>1</sup> Ли Ги Бэк. История Кореи: новая трактовка. Перевод с корейского под редакцией С.О.Курбанова. – М., 2001. С.15.

<sup>2</sup> Ли Ги Бэк. История Кореи: новая трактовка. Перевод с корейского под редакцией С.О.Курбанова. – М., 2001. С.50.

Koreyaning yevropacha nomi shundan kelib chiqqan, deb hisoblanadi. Kogyon (Keson) shahri Koryo poytaxti sifatida belgilangan, yana uch «kichik poytaxt»: G'arbda — Sogyon (Pxenyan), Sharqda — Tongyon (Kyonju) va Janubda — Namgyon (Seul) ta'sis etilgan.

X asr oxirida Koryo chegarasiga kidaney qabilalari tahdid sola boshlagan. 1019-yilgi mag'lubiyatdan so'ng ular uzoq vaqtgacha Koryo yerlariga bostirib kirishga jur'at etmaganlar.

XI asr oxirida Koryo davlati zaiflasha boshlagan. XII asrda feodallar o'rtasida hokimiyat uchun kurash avj olgan. Mar-kazlashgan davlatning zaiflashishi bilan bir vaqtida feodal jabrzulmi kuchaygan. Xalq qo'zg'olonlari to'lqini kengayib borgan. XII asrning so'nggi choragida ular uch marta dehqonlar urushiga aylangan.

XIV asrning ikkinchi yarmida mamlakatda saroy to'ntarishi natijasida Li sulolasiga taxtni egallagan va u 1910-yilgacha hukmronlik qilgan. Sulola asoschisi Li Songe qadimgi Choson xotirasiga o'z davlatini «Choson» deb nomlagan. Yangi qirol va uning vorislari Koreyada markazlashgan davlatni tiklash choralarini ko'rgan.

O'rta asrlarda koreys xalqi chet el bosqinchilariga ko'p marta qurolli qarshilik ko'rsatgan. Chunonchi, XII—XIV asrlarda u mo'g'ul xonlariga vassal qaramlikka qarshi kurash olib borgan, XVI asr oxirida ikki marotaba yapon bosqinchilari hujumini qaytargan, XVII asr boshida manjur qabilalari bilan jang qilgan.

Ma'naviy merosning asosini tashkil etadigan, ko'p asrlar davomida xalq uchun eng asosiy manba va xalqning kayfiyati, azaliy intilishlari va ma'naviyat olamini o'zida aks ettiruvchi soha bu — folklordir. Boshqa xalqlar kabi, koreys xalqi ham qadim zamonlardan beri o'z xalqi folklori: qo'shiqlari, afsonalari, miflari, tarixiy rivoyatlari, ertaklari va maqollariga ega. Xitoylarning «Xanshu» manbasida tilga olingan «Sakkiz taqiqlovchi modda to'g'risidagi qonun»ning qabul qilinishi jamiyat hayotini tartibga solishga ko'maklashgan. Afsuski, bizgacha bu sakkiz moddadan faqat uchtasi yetib kelgan. Ularning mohiyati odamlarni jinoiy harakatlardan qaytarish va sodir etilgan jinoyat uchun ularni qattiq jazoga tortishdan iborat. Xususan, kimki odam o'ldirgan

bo'lsa, u o'lim jazosiga hukm qilinishi, o'g'ri qulga aylantirilishi lozim bo'lgan.

Qadimgi Choson davridan beri saqlanib kelayotgan madaniy boyliklar – sopol haykalchalar, bronzadan yasalgan ko'p sonli buyumlar, devorga, polga ishlangan rasmlar, dolmen strukturasi, rasm-rusumlar va marosimlar ilk tarixiy davrda koreys qabilalari dunyo sirlarini ilohiy tasavvurlar orqali anglab yetganlaridan darak beradi. Chunonchi, V. M. Tixonov fikriga ko'ra, «Kochang dolmeni Sharq—G'arb o'qiga qaratilgani ularning Quyoshga sig'inish bilan aloqasiga ishora qilishi mumkin»<sup>1</sup>.

Qadimgi Choson davrida osmon ruhlariga sig'inish marosimlari, ularga qurbanlik keltirish odatlari shakllanadi, toshlarga rasm chizish shakllanadi. Taniqli koreysshunos olim M.N. Pak «Milod boshidagi koreys qabilalari tavsifi» asarida turli xil marosimlarni tadqiq etar ekan, Koguryo asoschisi Chumonga bag'ishlangan marosimga alohida to'xtaladi<sup>2</sup>.

Qadimgi koreys qabilalari marosim qo'shiqlari va raqslarini yaxshi bilganlar. Keyinchalik ulardan qo'shiq ajralib chiqqan va individual-she'riy ijodga asos solgan. Bunday sinkretik marosimlar haqida qaydlarga qadimgi xitoy yodgorliklari – *Xanshuning* «Xan sulolasi tarixi» va *Salgojining* «Uch podsholik tarixi»da duch kelish mumkin.

Koreys adabiyoti I ming yillik bosqlarida vujudga kelgan. Bu Koreya yarimorolida konfutsiychilik an'anasi yaratilgan davlat qurilishi ideallari o'zlashtirilgan davrda yuz bergen. Koreyada o'z adabiy o'qimishlilik an'anasi vujudga kelgan, unda markaziy o'rinni pand-nasihat ruhi bilan sug'orilgan tarixiy asarlar egallagan. Adabiyotda konfutsiychilik yo'nalishi shaxsning davlat manfaatlariga qaramligi bilan bog'liq bo'lgan.

Milodning dastlabki asrlarida Koreyaga buddizm kirib kelgan. Uning ta'siri hukmron tabaqalarning manfaatlari bilan bog'liq edi. Li Gi Bek bu haqda shunday yozadi: «Buddizm qirol hokimiyyati

<sup>1</sup> Тихонов В.М. История Кореи. – М., 2001. – С. 52.

<sup>2</sup> Пак М.Н. Описание корейских племен начала нашей эры. В альманахе «Российское корееведение», вып. №2 – М., 2001. – С. 19.

qo‘lida markazlashgan davlatni mustahkamlashga ko‘maklashuvchi eng qulay quroqla aylandi<sup>1</sup>. Bu tasodifiy bir hol emas, zero, buddizm o‘limdan so‘ng o‘z siyratini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ta’limot bilan bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra qul, agar u dunyoviy hayotga ezgu ishlar qilgan bo‘lsa, narigi dunyoda rojaga aylanishi mumkin<sup>2</sup>.

Koreya zaminida mustaqil falsafiy adabiyot ulg‘aygan, lekin koreys adabiyotiga buddizmning ta’siri kengroq bo‘lgan, u «maxsus» buddaviylik sohasi bilan cheklanmagan. Koreys adabiyotida buddaviylik sohasi shaxsnинг jamiyatdan ma‘lum darajada erkinligini, insonda individual asosni, haqiqatning tagiga yetishga eltuvchi bu yo‘lni tanlashda shaxsiy ijodiy faoliyotni nazarda tutgan. Bir madaniyatdagi bu ikki oqim adabiyotda o‘ziga xos ifodasini topgan.

Miloddan avvalgi II – I asrlar chegarasida Koreyaga iyeroglif yozuvi kirib kela boshlagan. Milod boshida iyeroglif yozuvini o‘zlashtirish Koreyaga Uzoq Sharq madaniy merosi bilan oshno bo‘lish va o‘z adabiyotiga yozma tus berish uchun imkoniyat yaratdi. *Xanmund*a asarlar yaratildi, ular bilan bir qatorda ona tilidagi nutqni xitoy iyerogliflari yordamida yozish usuli – *iduda* yaratilgan asarlar amal qildi.

Koreys adabiyoti o‘zining vujudga kelish davrida ayniqsa folklorga faol murojaat etadi. Epik ijod, masalan, tarixiy asarlarda davlat ideali munosabati bilan o‘zlashtiriladi; u Budda tarjimayı holidan ruhlanadi va o‘sha davrning yirik shoirlari uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qildi. Buddaviy mualliflar o‘z asarlarida miflar, rivoyatlar, shamanlarning afsonalaridan keng foydalishgan, chunki mahalliy folklorga qiziqish buddizm an‘analariga muvofiq keladi.

Koreys madaniyatiga yozuvda qayd etilgan matn va og‘zaki xabarni qarama-qarshi qo‘yish xos bo‘lgan. Yozma matn noyob, muhim, ishonchga loyiq manba sifatida qadrlangan, og‘zaki

<sup>1</sup> Ли Ги Бэк. История Кореи: новая трактовка. Перевод с корейского под редакцией С.О.Курбанова. – М., 2001. С. 87.

<sup>2</sup> Литературный энциклопедический словарь. – М., 1987. – С. 187.

xabarning qimmati ham, unga ishonch ham kam bo'lgan. O'sha davr mualliflari nuqtayi nazaridan hamma narsa ham tubandan yuksak darajaga ko'tarishga loyiq sanalmagan, ya'ni hikoya qilingan voqealarning barchasi ham yozuvda qayd etilmagan. Muallif o'z asariga kelib chiqishi og'zaki bo'lgan materialni kiritish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun u yozilgan ko'rinishdagi materialni olishi, manbaga havola qilishi yoki o'zining og'zaki manbaga murojaatini ishonarli tarzda asoslashi talab etilgan.

Shunday qilib, Koreya yarimoroliga konfutsiychilik va buddizmning kirib kelishi koreys adabiyotining shakllanishiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ba'zan bu ta'sir poetik shaklni, asarlarning mavzulari va syujetlarini tanlashda sezilgan, ba'zan u syujetning muayyan axloqiy-diniy bayonida namoyon bo'lgan.

Qadim zamonalarda yarimorolda yashagan qabilalarning og'-zaki ijodi buddizm va konfutsiychilik unsurlari bilan uyg'unlikda koreys adabiyotining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun asosga aylangan.

Koreys adabiyotining ilk davridan bizgacha asosan kichik-kichik parchalar yetib kelgan. U haqda bilvosita ma'lumotlarga muvofiq va ko'p jihatdan taxminiy hukm chiqarish mumkin.

Koreys adabiyoti milodning dastlabki asrlarida birinchi davlatlar tashkil topishi va yozuv an'anasi paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Yangi davlat tuzilmasi yoki yangi sulolaning shakllanishi har doim ma'naviy hayotda o'zgarishlarga sabab bo'lgan va qayta qurish davrlariga asos solgan. Tabiiyki, bu hol mazkur o'zgarishlar o'zanida yashagan adabiyotda ham o'z aksini topgan. Har bir davr o'z mavzularini taklif qilgan va muayyan janrlarga moyilliklarni namoyon etgan. Shu sababli an'anaviy koreys adabiyotini ilk davlatlarning mavjudligi, so'ngra — sulolalar hukmronligi bilan bog'liq bo'lgan davrlarga bo'lib o'rganish qulaydir.

Ilk adabiyot dastlabki davlatlar paydo bo'lishi va davlatchilikning shakllanishi bilan bog'liq. Ayniqsa, bu davrdan yodgorliklar kam saqlanib qolgan, bizgacha ba'zi bir asarlarning nomlari va keyingi davrdagi tarixiy asarlarga kiritilgan ayrim parchalargina yetib kelgan. Mazkur materiallarga muvofiq ilk davr tarixiy nasrning rivojlanishi bilan tavsiflangan, deb faraz qilish mumkin. Ilk koreys davlat-

larining paydo bo'lishi haqida hikoya qiluvchi tarixiy asarlar birinchi o'tinga «asoschi»ni chiqaradi. Mazkur «asoschi», odatda, kelib chiqishining g'ayrioddiliği va hatto o'zga dunyodan kelgani bilan tafsiflanadi. Uning vazifasi — «g'arib» hududni obod etish va «tarqoq» xalqni uyuştirishdan iborat. Bunday shaxs davlat asoschilarini haqidagi rivoyatlarning bosh qahramoni sanalgan. Bizgacha asosan koreys va xitoy tarixchilarining asarlariga kiritilgan matnlar yetib kelgan. Ilk koreys davlatlari asoschilarining mo'jizaviy tug'ilishi va g'ayrioddiy qilmishlari haqidagi rivoyatlarni yozib olish va saqlashga alohida e'tibor berilgan, chunki asoschi-podsholarning g'ayrioddiy kelib chiqishi va ajoyib jasoratlari ularga Osmon tomonidan berilgan hokimiyatning «qonuniyligi» belgisi sifatida qaralgan. Gap shundaki, mazkur belgilarga doir ma'lumotlarni sinchkovlik bilan tanlash koreys tarixiy adabiyotining negizi sanalgan konfutsiychilik, tarixnavislik an'analariga xos bo'lgan.

Xalq og'zaki ijodining individual ijod unsurlari mayjud bo'lgan barcha asarlar uzoq vaqt og'zaki shaklda mayjud bo'lgan. Asrlar mobaynida folklorga oid materialning tabiiy tanlanish jarayoni yuz bergen: syujetlar va uslub takomillashib borgan. Tarixiy rivoyatlar ilk koreys adabiyoti uchun jonli an'ana bo'lgan. Ularga rasmiy tarixiy asarlar — *chonsa* tuzuvchilarigina (masalan, Kim Busik) emas, balki norasmiy tarixlar — *yasa* mualliflari, xususan «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» muallifi Kim Iryon ham tayangan. Bu tarixchilar o'z asarlarida nasriy asarlar vujudga kelishiga asos solgan milliy epik asarlarga keng o'rinn berishgan.

Koguryo davlati asoschisi Tonmyon-Chumon haqidagi rivoyatlar va Choson davlati asoschisi Tangun-Vangom haqidagi rivoyat ayniqsa salmoqli o'rinn egallaydi.

Koreys rivoyatlari va afsonalari bilan sehrli ertaklar o'rtasida yaqin aloqa mavjud, ba'zan hatto qayerda afsona tugashi va ertak boshlanishini aniqlash ham qiyin, ertak syujetini esa mamlakatning real tarixidan ajratish mushkul. Ayni shu sababli koreys folklorida qadimgi koreys davlatlari Choson, Koguryo, Silla asoschilarini haqida syujetlar juda ko'p. Ularda afsonaviy personajlar yarim tarixiy-yarim afsonaviy podsholar yoki Koreya qahramonlari sifatida tasvirlanadi.

Koreya yarimoroli hududidagi eng birinchi davlat tuzilmasi – Choson asoschisi haqidagi rivoyat ilk bor Kim Iryonning «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» asarida, shuningdek ayni shu XIII asrda yaratilgan Li Sinxyuning «Qiollar va podsholar haqida qofiyaga solingan hikoyalari» asarida tilga olinadi. Bungacha milodiy IV–V asrlarda tuzilgan «Vey tarixi»ning variantlaridan birida Tangun ismi zikr etiladi. Ammo zamirida ilk ajdodning tug'ilishi haqidagi arxaik tasavvur yotuvchi bu mif boshqa miflardan keyinroq paydo bo'lgan, deb hisoblash uchun asoslar yo'q. «Samguk yusa» tili va uslubi sodda va lo'nda bo'lib, unda barcha asosiy qahramonlarning ismlari aytilgan, lekin ularning vazifalari va faoliyatiga keng tavsif berilmagan.

Afsonaning mifologik asosini yoritishi mumkin bo'lgan bir necha jihatlariga e'tibor berish lozim. Birinchidan, samoviy personaj – Veda ta'limotiga ko'ra momaqaldiroq xudosi bo'lgan Indraning o'g'li Xvanun osmondan yerga tushadi va odamlarning hayotini yo'lga soladi. Bu yerda buddizm ta'limotining ta'siri namoyon bo'ladi, zero, mazkur ta'limotni tarqatish jarayonida ijobji koreys xudolari botxisatvalarning ismlarini olganlar. Hech shubhasiz, Indra bu yerda qaysidir koreys arxaik oliy xudosining o'mini egallagan. Yana shu narsa aniqki, oliy xudo yerga o'z o'g'lini yuborgan va unga osmonning uch muhrini topshirgan. Bu unsur rivoyatga keyinroq kiritilgan. Xitoyda, keyinchalik Uzoq Sharqdagi boshqa mamlakatlarda ham muhr davlat hokimiyati timsoli sanalgan, lekin, masalan, qadimgi xitoy miflarining birortasida ham muhr tilga olinmagan – bu keyingi davr – rivojlangan davlatchilik davriga xos unsur.

Shuningdek, afsonada Xvanun o'zining ilohiy kelib chiqishiga urg'u berib, Shamol, Yomg'ir va Bulutlarning ruhlarini bosh-qargani qayd etiladi. Darvoqe, Iryonning iyerogliflarda bitilgan matnida Osmon podshosi o'g'lining «yordamchilari» xitoycha nomlangan. Ayni hol «Samguk yusa» muallisining odatdagি timsollarni qadimgi xitoy manbalaridan o'zlashtirgani va qadimgi xitoy xudolarining ismlarini iyerogrif belgilari ostiga yashirgani bilan izohlanadi.

Koreys mifologik an'anasi ilk davlat asoschisi bo'lgan qahramonning tug'ilishiga sabab bo'luchchi ikki qarama-qarshi asosning uyg'un birikishini birinchi o'ringa chiqaradi, ya'ni natijada uyg'unlik qaror topadi. Afsona jamiyatning tarixiy rivojlanishiga muvofiq o'zgartirilgan ilk mifologiyaning nafasini his etish imkoniyatini beradi. Aksariyat xalqlarning arxaik rivoyatlarida hayvonlar o'z qiyofalarini osongina o'zgartiradilar va odamlarga aylanadilar.

Afsonaning davomida mif tarixiy kontekstga kiritilgan – Tangunning podsholik davri namunaviy qirol Yao hukmronlik qilgan davr bilan bog'langan. Bu qirol miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda podsholik qilgani taxmin qilinadi. Shundan keyingina xitoy tarixiy an'anasi Choson davlati asoschisi deb nomlaydigan Szi-szi paydo bo'ladi, ya'ni Iryon asarida unga ikkinchi darajali rol ajratilgan. Tangun esa dunyoviy ishlardan uzoqlashadi va o'zining asl tabiatiga qaytadi – tog' ruhiga aylanadi.

Xuddi shu tarzdagi Koguryo davlatining asoschisi Tonmyon-Chumon haqida rivoyatning dastlabki matnlari xitoy manbalarida tilga olinadi, eng birinchi koreyscha matni esa Koguryo davlatining podshosi Kvangetxo-van (milodiy V asr) stelasida yozilgan, bu yozuvlar qisqa va lo'nda. Koguryo asoschisi haqida syujetli keng hikoya Kim Busikning «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» asarida va Li Gyuboning «Tonmyon-van» dostonida keltirilgan.

Li Gyubo dostonida keltirilgan rivoyat keng syujetli bo'lib, ikki qismdan iborat: birinchi qismda Osmon podshosi o'g'li va Daryo xudosi qizining uchrashuvi haqida hikoya qilinadi, ikkinchi qismda Koguryo davlati asoschisi – qahramonning g'ayrioddiy tug'ilishi va faoliyati tavsifi keltiriladi. Bu yerda ham Osmon podshosining o'g'li dunyoviy ishlarni tartibga solish uchun yerga tushadi, affsonaviy mavjudotga duch keladi. Ammo, Tangun haqidagi rivoyatdan farqli o'laroq, bu yerda vaziyat keng, ko'p sonli voqealar va ikkinchi darajali qahramonlar bilan murakkablashtirilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Vaziyatga daryo qizi jazodan qutulib qolishiga ko'maklashadigan «mahalliy podsho» – Kimva kiritiladi. Shundan so'ng hikoya syujetning asosiy

chizig'iga — osmon va yer qahramonlarining nikohiga Daryo qizining bag'riga quyosh nuri kirishi tarzida qaytadi. Shu tariqa Tonmyonning g'ayrioddiy tug'ilishi asoslanadi. Qahramon tug'ilgandan boshlab yangi podsholikka asos solgunga qadar o'z yo'llida ko'p sonli g'ov-to'siqlarga duch keladi. Tuxtga o'tirgach, Tonmyon bu dunyoni tark etadi va toqqa chiqib ketadi. Tangun haqida rivoyatda bo'lganidek, Tonmyon hayoti va faoliyati tarixiy kontekstga kiritilgan.

Davlatlarning asoschilarini haqidagi har ikki rivoyatlar ham dunyoning holatini belgilovich osmon va yer qahramonlarining o'zaro munosabatlari sxemasiga muvofiq tuzilgan: antagonistik qahramonlar uchrashgunga qadar dunyoda tartibsizlik, xaos hukm suradi va ularning birlashishi esa borliqni uyg'unlik holatiga keltiradi. Asoschining paydo bo'lishi, uning ichki kuch-qudrati xoasni kosmosga aylantiruvchi yangi asosni o'rnatadi va munozaralarni yechish zamirida dushman bilan kurash g'oyasi emas, balki ikki qarama-qarshi asosning uyg'un birikishi yotadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, koreys folklori asarlarda faol kurashchilar emas, faqat olivjanob fazilatlarning passiv sohiblarigina mavjuddir.

Epik matnlar qadimda dunyo qanday tasavvur qilingani va unda uyg'unlikni qo'llab-quvvatlash qanday fikrlanganini tu-shunish imkoniyatini beradi. Mazkur matnlarda xalqning madaniy tasavvurlari mujassamlashgan, bu tasavvurlar vaqt o'tishi bilan yo'q bo'lib ketmagan, balki, shu jumladan, adabiy asarlarda yashashda davom etmoqda.

*Xanmundagi* nasr koreys adabiyotining eng qadimgi turlaridan biridir. Mazkur davr tarixiy asarlari buni tasdiqlaydi. Koreys yozma adabiyotining an'anasi milodning dastlabki asrlarida, Koreya yarimorolida uch podsholik: janubi-sharqda Silla, janubi-g'arbda Pekche va shimolda Koguryo tashkil topgan davrda vujudga kelgan. Bu davlatlarning podsholari konfutsiychilikning davlatchilik andozalariga qarab mo'ljal olganlar va shuning uchun bo'lsa kerak, ularga mamlakatning mustaqilligini barqaror etish uchun o'z solnomasini yaratish talab etilgan. Chunonchi, XII asr tarixchisi Kim Busik ma'lumotlariga ko'ra, IV asrda Koguryoda tuzilgan «O'tmisht haqida qaydlar», Pekcheda yozilgan «Tarixiy qaydlar»

paydo bo'lgan, Sillada mamlakat tarixini tuzishga VI asrda kirishilgan. Bu yodgorliklar saqlanib qolmagan, bundan keyingi davrlarda yaratilgan tarixiy asarlar: Koguryoda «O'tmish haqida hikoyalar» asosida yaratilgan muxtasar «Yangi to'plam» (VII asr), Pekcheda yaratilgan tarixiy asarlar – «Pekche solnomalari», «Pekche yangi to'plami» ham bizgacha yetib kelmagan. Keyingi davrlarda yashab ijod qilgan mualliflar guvohlik berishicha, Silla davrida «Uch xanning qadimgi yozuvlari», «Sharqiy chegaralarning qadimgi yozuvlari», «Sillaning qadimgi tarixi» kabi tarixiy asarlar ham mavjud bo'lgan.

XI asrgacha yaratilgan tarixiy koreys nasriy asarlarning birortasi ham bizgacha to'liq yetib kelmagan. Ammo yuqorida keltirilgan asarlarning nomlari, keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda yetib kelgan parchalar, shuningdek XI–XIII asrlarda ancha shakllangan koreys adabiyoti mavjud bo'lgani quyidagi farazni ilgari surish imkoniyatini beradi: Koreyada birinchi ming yillikda *xanmunda* yaratilgan tarixiy nasr mavjud bo'lgan va u shu jumladan biografik janr namunalarini bergan. Mazkur an'ana shu darajada kuchli bo'lganki, koreyslar o'z hayot an'anasin xiyojaray hayot an'ansidan o'zgacha deb bilganlar. Maxsus atama *xanjon* («milliy hayot tavsifi») mavjud bo'lgan va u, koreyalik ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, «xiyojaray hayoti tavsifi» tushunchasiga zid o'laroq, koreys xalqi hayoti tavsiflarining umumiy nomi sifatida ishlatilgan. Muayyan mualliflar tomonidan yaratilgan biografik nasr to'plamlari bu tushunchaga kiritilmagan. Ular keyinroq – VII–IX asrlarda paydo bo'lgan va mashhur mualliflar Kim De Mun va Chxve Chxivon qalamiga mansub bo'lgan. Kim De Munning «Sillaning turli tarjimayi hollari» va «Oliy ruhoniylarning tarjimayi hollari», Chxve Chxivonning «Vazirlar va rohiblarning ko'rgan-kechirganlari» asarlari bizgacha to'liq yetib kelmagan, lekin ularning nomlari, boshqa manbalardagi bilvosita ishoralar, shuningdek saqlanib qolgan parchalar bular buddaviylarning ko'rgan-kechirganlari to'plamlari va dunyoviy hayot tavsiflari to'plamlari bo'lganidan dalolat beradi.

Toshlarga o'yib yozilgan rasmiy bitiklar, jumladan, 414-yilda Koguryo podshosi Kvangetxo-van (395–410)ga bag'ishlab

o'rnatilgan steladagi bitik hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Bu toshlardagi yodgorliklar — *Piga* mansub bo'lib, ular o'sha davrda Uzoq Sharq mamlakatlarda keng tarqalgan an'anaviy biografik adabiyotning alohida turi hisoblangan.

Toshlarga o'yib yozilgan bitiklarda stela kimning xotirasiga o'rnatilgan bo'lsa, shu shaxsning yaxshi ishlari madh etilgan va abadiylashtirilgan. Toshga o'yib yoziladigan bitikni tuzish tarixchi iste'dodini talab etgan.

Ko'pgina tarjimayi hollarda bo'lganidek, bu bitikda ham kirish qismida Kvangetxo-van shajarası urug'ning afsonaviy asoschisi — Chxumodan boshlab bayon etiladi. Shu yerda Kvangetxo-vanga ideal podsho sifatida tavsif beriladi: u podsholik qilgan davrda davlatda to'kin-sochinlik bo'lgan, yillar serhosil kelgan, har bir kishi o'z ishi bilan mashg'ul bo'lgan, hamma joyda tinchlik va osoyishtalik hukm surgan. Hatto Kvangetxo-vanning harbiy jasoratlari va davlat ishlariga ham tavsif beriladi. «Namunaviy tarixlar»dagi ko'pgina tarjimayi hollarda bo'lganidek, material xronologik ketma-ketlikda bayon etiladi.

IV—V asrlar chegarasidagi davrga mansub bo'lgan «Modoru» bitigi dafn etish bilan bog'liq bitiklar turiga kiradi. Bu *muji* — qabr bitigi bo'lib, u qabr oldiga o'rnatilgan toshga o'yib yozilgan. Bunday turdag'i bitiklar ham biografik shaklda tuzilgan.

Toshlardagi bitiklarda podsho qilmishlarining tavsiflari va folklor materialini qayta ishlash o'sha davrda vujudga kelgan konfutsiy-chilik an'anasi ushubida amalga oshirilgan. Bizgacha yetib kelgan parchalarga asoslanib, bu nomlari yuqorida zikr etilgan tarixiy asarlarga ham xos bo'lgan, u keyingi davrlardagi koreys tarix-navisligiga ham meros bo'lib o'tgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Shunday qilib, bizgacha yetib kelgan ilk asarlar «namunaviy tarixlar»dagi tarjimayi hollarga yaqin bo'lgan epigrafik yodgorliklarni tashkil etadi.

Shu davrdayoq adabiyotda inson obrazining me'yoriy xususiyati shakllanadi. Konfutsiychilik falsafasi odamlarni boshqalarga nisbatan oila, davlat a'zolari sifatida muayyan vazifalarni qanday bajarganliklariga qarab shartli tiplarga ajratgan. Shu sababli tarixchilar inson tarjimayi holiga uni mazkur tipdagi vakil —

podsho, amaldor, mehribon o‘g‘il, yaxshi rafiqqa sifatida o‘zgalar bilan munosabatlarida tavsiflagan xususiyatlarni kiritish bilan cheklangan.

Tarixiy adabiyotning o‘z materialiga, xususan folklorga nisbatan o‘ziga xos yondashuvi ham vujudga kelgan. Konfutsiychilik an'anasi folklordan tarixiy asar uchun manba sifatida foydalanib, ma'lumotlarini «ishonchli» va «quruq»qa ajratgan. Og‘zaki ijod materiali voqealar va tarixiy shaxslarga muallif bergen bahoni tavsiflashi va tasdiqlashi lozim bo‘lgan, bunda ba’zan folklor asari qismlarga ajratilgan va o‘z syujetining izchilligini yo‘qotgan.

Ilk koreys adabiyotining shakllanishida konfutsiychilik bilan bir qatorda buddizm ham muhim rol o‘ynagan. Milodning dastlabki asrlarida Koreya yarimoroliga Xitoydan kirib kelgan buddizm IV asrdan XIV asrgacha Koreyaning davlat dini hisoblangan va koreys madaniyatining ko‘pgina tarmoqlari xususiyatini belgilagan. Ayniqsa, VII—IX asrlarda buddizmnинг mavqeyi kuchaygan. Buddaviylik qonunlari, sharh tipidagi turli xil asarlar koreys zaminiga ko‘chirilgan. Buddavylarning o‘z sharhlovchilik an'anasi ham vujudga kelgan, keyinchalik esa koreyslar tomonidan yaratilgan boy falsafiy adabiyot paydo bo‘lgan.

Koreya buddizmi boshqa mamlakatlarning turli buddaviy mazhablari bilan aloqada bo‘lgan. Chunonchi, VII asrdan boshlab Koreyadagi yetakchi mazhab — Xvaom bilan Xuayan mazhablari o‘rtasida adabiyotlar almashish muntazam yo‘lga qo‘yilgan. Koreyalik ko‘pgina rohiblar Xitoydagи buddavylarning ibodatxonalariga, ayrimlar hatto Hindistonga ziyyarat qilganlar. Shunday rohiblardan biri — Xe Chxo (VII asr) tarixdan buddizm targ‘ibotchisi sifatidagina emas, balki «Hindistonning besh muzofotiga safar» asarining muallifi sifatida ham o‘rin olgan. Bu asar saqlanib qolmagan; Dunxuandagi topilmalar tufayli u IX asr boshidagi muallif muxtasar tarzda qayta ishlangan ko‘rinishdagina ma'lum.

Dunxuanda topilgan qo‘lyozma matniga qaraganda, bu nasriy asar bo‘lgan. Unda ayrim xabarlar vaqtidagi emas, balki makondagi ketma-ketlikka bo‘ysundirilgan; sayohat tavsifi keltirilgan.

Dunxuan qo'lyozmasi matniga besh hijoli she'rlar kiritilgan bo'lib, ularni Xe Chxoning o'zi yozgani yoki asarlari qayta ishlangani haqida bat afsil ma'lumotlar uchramaydi.

Koreyada *xanmundagi* nasr bilan bir qatorda, *iduda* yaratilgan nasr ham mavjud bo'lgan. *Idudagi* nasr haqida bizga deyarli hech narsa ma'lum emas. Bir nechta epigrafik bitiklarga saqlanib qolgan. Bular turli yillarda toshlar, saroy qo'ng'iroqlari, Buddha haykallari va stelalarga o'yib yozilgan bitiklardir. Ular qisqa va asosan ishga doir ma'lumotlardan iborat. Bitiklarning aksariyati buddaviylik ruhida.

Bunda IX asr toshida o'yib yozilgan ikki kishining podshoga sadoqati konfutsiychilik tamoyiliga rioya qilish haqidagi qasamyodining matni alohida o'rinn tutadi. Mazkur qasamyodda uni keltiruvchi kishilar o'rtasidagi axloqiy tamoyillarni o'zlashtirgan konfutsiychilik mumtoz asarlarining nomlari ham keltirilgan.

Bundan tashqari, Sol Chxon (VII asr) konfutsiychilikning mumtoz asarlarini o'z ona tiliga tatbiq etgan. Ammo uning *idudagi* asarlari ancha oldinroq yo'q bo'lib ketgan.

Epigrafik bitiklarning mavjudligi, shuningdek Kim Busikning «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» va Kim Iryonning «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» yodgorliklaridagi *iduda* yaratilgan matnlar mavjudligi haqidagi ko'rsatmalar *idudagi* nasr konfutsiychilikka ham, buddaviylikka ham daxldor bo'lgan, deb taxmin qilish uchun asos beradi.

Bu nasrga davlatning munosabati qanday bo'lgani bizga noma'lum, lekin unga koreya buddizmining qiziqlishi kuchli bo'lgani shak-shubhasiz. Yodgorliklarda buddaviylarning marosimlari Koreyada ko'p tilli bo'lgani – sanskrit, xitoy va koreys tillarining unsurlarini o'z ichiga olganini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud. Sayohatchi Ennin (IX asr) guvohlik berishicha, buddaviylar marosimining muhim qismi – va'z koreys tilida o'qilgan. Va'z matnnini va'zxon-rohib oldindan, hech bo'lmaganda va'z o'qilishidan bir kun oldin tayyorlagan va uni dublyor va'zxonga topshirgan. Dublyor va'z o'qilayotgan paytda va'zxonni nazorat qilgan, sutra talqinidagi eng muhim jumlalarni oldindan tuzilgan matnga ko'ra o'qib berib turgan. Bunday matnlar X asrda

mavjud bo'lgani va ularni va'zxonlarning o'zlarini yoki boshqa shaxslar – ularning yordamchilari tuzgani «Kyunyo hayoti» asarida ham qayd etilgan.

Va'zlarining matnlari bizgacha, afsuski, yetib kelmagan. Ammo, Dunxuanda topilgan qo'lyozmalar o'sha zamonda sutralar bo'yicha va'z tushunchasiga buddizm adabiyotining bir necha janrlari kiritilganini ko'rsatdi. Va'zlar sutralardan olingan iqtiboslarni sharhlash uslubiga binoan tuzilishi, she'r va nasrdan iborat bog'lanishli hikoyadan iborat bo'lishi, ularda syujetli voqealardan foydalanishi mumkin bo'lgan. O'sha davrda Xitoy va Koreya buddizmining umumiyligi yaqinligi emas, balki Enninning sutralar bo'yicha xitoy va koreys va'zlarining o'xshashligi haqidagi aniq ko'rsatmasini ham e'tiborga olganda, koreys buddaviylarining va'zlarini ham xitoy buddaviylarining va'zlariga o'xshash bo'lsa kerak.

VI–X asrlarda koreys she'riyati rivoj topganligini ko'rsatuvchi manbalar mavjud. Masalan, IX asrda Sillada «Samdemok» to'plami tuzilgan bo'lib, unga *xyanchal*<sup>1</sup> uslubida yozilgan koreys tilidagi «*xyancha*» qo'shiqlari kiritilgan<sup>2</sup>. Bu she'riy asarlardan faqat yigirma beshtasi yetib kelgan. XI–XIII asr yodgorliklaridagi matnlar hamda ularning talqini o'sha davr she'riyati magik vazifalarni ham bajarganligidan darak beradi.

Koreys she'riyatining rivojlanish davri mobaynida unda ikki tarmoq mavjud bo'lgan. Birinchi tarmoq – koreys tilida, o'ziga xos milliy shaklda yaratilgan asarlar. Ikkinci tarmoq – koreys shoirlarining *xanmunda* yozilgan she'rlari. Bizgacha bunday she'rlarning juda qadimgi namunalari yetib kelgan bo'lib, ularni qachon, kim va qaysi sababga ko'ra yozgani haqida izohsiz atroficha tushunish mumkin emas.

<sup>1</sup> *xyanchal* – *idu* (iyerogliflar yordamida koreys so'zlarini va qo'shimchalarini yozish tizimi) shakllaridan biri.

<sup>2</sup> Bu yerda o'rta asr koreys adabiyoti ikki tilda: yodgorliklarning yarmi *xanmunda* (venyanning koreyslashtirilgan usuli), yarmi koreys tilida (VII asrda Silla davlatida «*idu*» usulida yozuv yaratilgan bo'lib, unda koreyscha yozish uchun xitoy iyerogliflari keng qo'llanilgan); o'tganlarning ch'itborga olish lozim.

Xvanjoning miloddan avvalgi 17-yilda yozgan «Sariq qushlar qo'shig'i» – juda sodda to'rtlik saqlanib qolgan. Bu uning birinchi she'ri ham, birdan bir she'ri ham emas. Afsuski, urushlar, istilolar va yong'inlar tufayli mazkur davrlardan koreys she'riyatining boshqa birorta ham namunasi bizgacha yetib kelmagan.

Milodiy I ming yillikda Koreyada *xanmundagi* she'riyat rivojlangan. Bu jarayon koreys madaniyati uchun muqarrar sanalgan, chunki bu buddizm va davlatchilik kabi hodisalar bilan bog'liq bo'lgan.

Buddaviylik qoidalari sanskrit va xitoy tilidagi she'riy asarlardan foydalanishni talab qilgan va bu xitoy she'riyati qoidalariiga binoan yaratilgan milliy she'riyat paydo bo'lishiga turtki bermay qolmagan.

«Koreys she'riyati badiiy adabiyotning bir turi sifatida barcha qonuniyatlarni o'zida mujassam etgan. Uning o'ziga xosligini taqozo etuvchi asosiy mezonlari fikrning teranligi, muallifning histuyg'ulari, shoir ichki kechinmalarining subyektivlashganligi, individuallashtirilganligi va b. Uning asosini «shoir qalbi» tashkil etadi»<sup>1</sup>.

VII–IX asrlarda buddaviylik xususiyatiga ega bo'lgan she'riy asarlar mayjud bo'lgani «Kyunyo hayoti»da (XI asr) qayd etiladi. Bu yerda bir necha koreys rohiblarining ismlari keltirilib, ularning si uslubida, besh va yetti hijoli she'rilar to'qigani haqida ma'lumotlar uchraydi. Ayni shu yodgorlikda X asrda yashab ijod qilgan muallif Chxve Xengvining 11 ta yetti hijoli she'ri keltirilgan bo'lib, ular X asr koreys buddizmining taniqli namoyandasini Kyunyo qalamiga mansub bo'lgan koreys she'riy asarlari – *Xyanga* turkumining tarjimasidan iborat.

Dunyoviy she'riyat davlatchilik va markazlashgan davlatning kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan, chunki u «yuksak she'riyat» darajasida yanada mustahkamlangan, Koreya davlatining tashqi munosabatlari sohasiga xizmat qilishga qaratilgan. Bunga Silla podshosi Chin Dok Tan podshosi Gaoszunga yuborgan besh hijoli

<sup>1</sup> Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L. va boshqalar. Klassik koreys she'riyati antologiyasi. – T.: 2013. – 6-b.

«Buyuk osoyishtalikka qasida» (650-yil) misol bo‘lishi mumkin. Uzoq Sharq she’riyati an’analarni bilish va she’r yoza olish Koreya davlatining manfaatlarini uning tashqarisida ifoda etuvchi shaxslar uchun farz sanalgan.

Davlatning byurokratiyalashuviga qarab *xanmundagi* she’riyatning mavqeyi kuchayib borgan. Koreya feodal davlati amaldorlardan konfutsiychilik ilmini o‘zlashtirishni va Uzoq Sharq she’riyati an’analari bilan oshno bo‘lishni talab qilgan. Bu an’ana vaqt o‘tishi bilan davlat imtihonlari tartibi joriy etilishiga sabab bo‘lgan. Mazkur imtihonlarda she’r yoza olish konfutsiychilikning mumtoz asarlarini va tarixnavislikka oid mashhur kitoblarni bilishga tenglashtirilgan.

Koreys she’riyati ham har qanday xalqning adabiyoti, she’riyati singari ijtimoiy turmushda, mamlakatda hukmon bo‘lgan siyosiy tuzum, xalq tili va adabiyoti taraqqiyoti tendensiyanalarda yuz berayotgan tub o‘zgarishlardan ta’sirlangan. Shu bilan birga koreys she’riyati boshqa madaniyatlar, jumladan, xitoy adabiyotidan ta’sirlangan. Xususan, dunyoviy she’riyatning rivojlanishiga Tan she’riyati kuchli ta’sir ko’rsatgan, zero Sillada mazkur she’riyatga qiziqish kuchli bo‘lgan. Masalan, Ennin o‘z kundaliklarida koreys xalqining Bo Szyuy I ijodiga bo‘lgan qiziqishi haqida diqqatga sazovor ma’lumotlar beradi. «Kyunyo hayoti», «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» va «Uch davlat tarixiga qo’shimchalar» asarlarining mualliflari Tan she’riyatiga e’tibor kuchli bo‘lganini qayd etish bilan chegaralanib qolmasdan, o‘sha davr koreys shoirlarining ismlari, ular yaratgan asarlarning nomlarini, ba’zan ularning she’rlarini ham keltirib o‘tishgan.

Bu davrda nafaqat Koreya hududida, balki mamlakatdan tashqarida ham dovrug taratgan shoirlar, xususan, Chxive Chxivon, Kim Kagi, Kim Chijan, Kim Ninji va boshqalar qalam tebratgan. Ularning she’rlari «*Syuan tanshi*»ga kiritilgan. Ayniqsa, IX asr shoiri Chxve Chxivon (taxallusi – Koun (875 – ?) ning she’riy ijodi hozirgi kunda ham barchaga ma’lum. Chxve Chxivon uzoq vaqt Xitoyda o‘qigan, uning adabiy faoliyati ham shu yerda boshlangan. Chxve Chxivon vataniga Silla davlati o‘zining avvalgi qudratini yo‘qotgan: markaziy hokimiyat zaiflashgan va

mamlakatda ichki nifoq kuchaygan davrda qaytib kelgan. Shoir davlat xizmatini tark etgan va tog'lardagi buddaviylar ibodatxonasida yashagan. Chxve Chxivonning to'rt nasriy va she'riy to'plami ma'lum, lekin ularning birortasi ham bizgacha to'liq yetib kelmagan. Uning she'rlari keyingi davrlarda yashagan mualliflarning asarlarida va «*Syuan tanshi*»da saqlanib qolgan.

Adibning «*Kevon pxilgyon*» kitobi Koreyada she'rlar va nasriy asarlarning birinchi mualliflik to'plami hisoblanadi. Bundan tashqari, Chxve Chxivon asarlari xitoy tilida yaratilgan koreys adabiyoti antologiyasida — So Kojon tomonidan 1478-yilda tuzilgan «Nafis so'z san'atidan saylanma» antologiyasi va Kim Busikning tarixiy asarida saqlanib qolgan. Chunonchi, so'nggi zikr etilgan asarning «Turli qaydlar» bo'limidan shoirning niqoblardagi teatr tomoshalarini tavsiflovchi besh she'ri o'rinn olgan.

«Nafis so'z san'atidan saylanma» antologiyasiga Chxve Chxivonning 29 she'ri kiritilgan. Ularning aksariyatiga sana qo'yilmagan. Shoir she'rlardagi asosiy mavzu bu shaklan Li Boning «Vatan haqida o'ylar» nomli mashhur she'riga yaqin bo'lgan vatanparvarlik mavzusidir.

Taxminan 881-yildan 885-yilgacha yozilgan — nafis nasr (podshoga ma'lumotlar, xatlar, tavsiflar, ma'ruzalar va h.k.), shuningdek ikki she'riy turkum va «Bahorgi she'rlar» asarlarini o'z ichiga olgan «*Kevon pxilgyon*» to'plami Xitoyda tuzilgan.

«Yetti so'zli she'rlar» deb nomlangan birinchi turkum o'ttiz she'rdan iborat. Bu she'rlar san'atning o'ttiz turiga bag'ishlangan, ularda xitoy qirollari atoqli izdoshlarining ma'naviy kuchi — *dega* tavsif berilgan. An'anaviy Xitoy va Koreyada biron-bir «san'at»ni mukammal o'zlashtirgan odam o'z «mahorati» bilan dunyoni lol qoldirishga qodir, uning shaxsi esa atrofdagilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, «Qorga madhiya» she'ri qorni kuylagan shoirga bag'ishlangan. So'z san'atida mohirlik dunyoda uyg'unlikni quvvatlashga qodir bo'lgan ichki ma'naviy kuch belgisidir. She'r xitoy she'riyati obrazlariga boy. Jumladan, «olti bargli gul» deb qor uchqunlarini ataganlar.

«Oyga xirgoyi qilaman, shamolga qo'shiq aytaman» deb nomlangan ikkinchi turkum 884-yil qishda, Xitoyning Shandun

provinsiyasida yozilgan. Turkum o'n she'rdan iborat bo'lib, ularning har birida tabiat obrazlaridan biriga tavsif beriladi. Ammo bu she'rlarni peyzaj lirkasiga kiritish mushkul, chunki tabiat fenomeni bu yerda insonning dunyodagi o'rni haqidagi mulohazalar bilan bog'langan.

She'rlardagi asosiy mavzu — noqulay sharoitlarda ham o'sadigan va atrofdagi boshqa o'simliklar — xrizantema, qarag'ayga o'xshamaydigan ajoyib g'ayrioddiy inson obrazining timsoli sanalgan gul mavzusidir.

«Bahorgi she'rlar» to'plami 885-yil bahorda yozilgan va «*Kevon pxilgyon*» to'plamining oxiridan o'tin olgan. U tabiatiga va osoyishtalik izlayotgan insonning his-tuyg'ulariga bag'ishlangan sakkiz she'rni o'z ichiga oladi. May mavzusining paydo bo'lishi ayni shu kayfiyatlar bilan bog'liq.

«Uch fasl»dan saqlanib qolgan xalq tasavvurlarining birdan-bir tavsifi Chxve Chxivonning koreys xalqining niqob kiyib o'ynaladigan raqlari haqidagi she'rlarida keltirilgan. Mamlakatdagi isyonlar va ichki nifoqlar shoirning she'rlari uchun asosiy mavzu hisoblangan. Bu she'rlarda shoir xalq boshiga tushgan kulfatlarni tavsiflaydi va dehqonlar haqida g'amxo'rlik qiladigan odil podsholarni orzu qiladi.

Chxve Chxivon ijodi to'liq saqlanib qolgan birinchi koreys shoiridir. U *venyan* xitoy adabiy tilida asarlar yozishda mohir bo'lgan, xitoy yuksak she'riyati va nasri janrlarini, shuningdek xitoy she'riy so'z san'atini puxta o'zlashtirgan.

Chxve Chxivon Koreyada peyzaj lirkasining ilk namunalarini yaratgan. Uning ijodi *xanmundagi* koreys she'riyatining keyingi rivojlanish jarayonini ko'p jihatdan belgilagan.

*Xanmundagi* she'riyat bilan bir qatorda, *idu* usulida yozilgan koreys tilidagi she'riyat ham mavjud bo'lgan.

Ona tilidagi koreys she'riyati xalq laparlari va qo'shiqlari zaminida vujudga kelgan. Ilk koreys yodgorliklari mazkur ijod Koreya yarimorolida yashagan qabilalarda rang-barang bo'lganini tasdiqlaydi. Ular qo'shiq ijodi Koreya jamiyatining hayotida davlat vujudga kelishidan oldingi davrda va o'tish davridagina emas, balki rivojlangan adabiyotga ega bo'lgan kuchli markazlashgan

byurokratik davlat mavjud bo'lgan Koryo sulolasi hukmronligi boshlanishidan oldin ham ulkan rol o'ynaganidan dalolat beradi.

Ona tilidagi she'riyat mehnat jarayoniga yo'ldosh bo'lgan, u barcha an'anaviy bayramlarning ajralmas qismi sanalgan, kasalliklar va tabiiy ofatlar davrida turli marosimlarda undan keng foydalanilgan. Uning mazkur roli ona tilidagi she'riyat haqida adabiy fakt sifatida so'z yuritish mumkin bo'lgan zamonlarda ham saqlanib qolgan (masalan, «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar»dan o'rinn olgan voqeada davlatdan xavf-xatarni qaytarish haqidagi o'tinchda *xyangadan* foydalangan). U yozma shakl kasb etganidan keyingina adabiy hodisaga aylangan.

Ona tilidagi she'riyat — *xyanga* («Qadrdon makon qo'shiqlari») yoki («Sharq qo'shiqlari») atamasi muayyan tipdag'i she'riy asarlar — o'n misrali she'rlarni ifodalash uchun ishlataladi. *Xyanga* VIII—X asrlarga mansub hodisa hisoblanadi. Bizgacha *xyanga* matnlari «Kyunyo hayoti»da (o'n bir *xyanga*) va «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» asarlarida (o'n to'rt *xyanga*) yetib kelgan.

Buddaviylik marosimlarida ona tilidagi she'riyatning ahamiyati tobora oshib borgan, u tinglovchilarga tushunarsiz bo'lgan sanskrit va xitoy tillaridagi she'rlarni siqib chiqargan. «Kyunyo hayoti», «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» va Ennining xotiralarida qayd etilishicha, bu jarayon IX—XI asrlarda yanada faollashgan. Shunday qilib, dunyoviy sohada *xanmundagi* she'riyat birinchi o'ringa chiqishi bilan bir qatorda, diniy sohada teskari jarayon — xorijiy matnlarni koreyscha matnlar bilan almashtirish jarayoni yuz bergen.

Buddizm *xyanga* she'riyatiga manfaatdorlik ko'zi bilan qaragan. Bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarga ko'ra *xyanga* yaratgan shoirlarning ko'pchiligi ularning buddaviy rohiblar bo'lganidan dalolat beradi. Chunonchi, bizga faqat nomi ma'lum bo'lgan «Qadimgi she'riyat to'plami» antologiyasi (888-yil) tuzuvchilaridan biri Tego buddaviy rohib bo'lgan. Tego bir nechta *xyanga* muallifi sifatida ma'lum. Bizgacha yetib kelgan *xyanga* matnlari buddaviy mualliflarning asarlaridan o'rinn olgan. Chunonchi, atoqli shoir Kyunyo (917—973) qalamiga mansub bo'lgan o'n bitta *xyanga* ham buddaviylik marosimlari bilan bog'liq. Bu *xyangani* Kyunyo

buddaviylar marosimi chog'ida xitoycha matnni koreyscha she'r bilan almashtirish uchun «*Xuanszin*» sutrasining mashhur boblaridan biri asosida yaratgan.

«Kyunyo hayoti»da Kyunyo yozgan so'zboshi ham keltirilgan. Unda Kyunyo xalq ardoqlaydigan *xyanga* she'riy shaklidan aholi o'rtasida buddizm g'oyalarini tarqatish uchun foydalanganligini aytgan. Ammo ona tilidagi she'riyat to'laligicha buddizm ruhi bilan sug'orilgan, deb aytish to'g'ri bo'lmaydi. Har qalay, «Kyunyo hayoti», «Tarixiy yozuvlar» va «Qo'shimchalar»da Koreyada nobuddaviy boy she'riyat mavjudligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud. Chunonchi, «Qo'shimchalar»da arxaik korcys she'riyatining xitoychaga o'girilgan to'rt hijoli namunalari saqlanib qolgan.

*Xyanganing* hozirgacha saqlanib qolgan namunalari orasida shunday bir folklor asarlariga duch kelish mumkin, bu she'rlar bilan birga keladigan epik qissalarning bir qismi bo'lgan nasr bo'lsa kerak. Bular «Qo'shimchalar»dan o'rinni olgan «Dengiz qo'shig'i», «Chxoyon qo'shig'i» va «Sodon qo'shig'i» she'rlaridir.

*Xyanga* mavjudligining keyingi davrlarida koreys tilidagi dunyoviy individual she'riyat rivojlanib, ulardan bir nechta namuna saqlanib qolgan. Bular «Xvaran Chukchi haqida qo'shiq», «Xvaran Kipcha haqida qo'shiq», «Tuyadaraxt haqida qo'shiq». Bular IX–XI asrlar koreys tilidagi she'riyatning yuksak adabiy saviyasidan, shuningdek uning Uzoq Sharq poetik an'anasi bilan aloqasidan dalolat beradi.

Bu asarlarning barchasi o'n misrali *xyanga* janriga mansub. Ularda uch bandga ajralish aniq kuzatiladi. Kompozitsion tuzilishga ko'ra ham ular uch bandli bo'linishga bo'ysundirilgan: birinchi bandda mavzu beriladi, ikkinchi bandda u kengaytiriladi, uchinchi – ikki misrali bandda esa she'r g'oyasining jamuljam ifodasini aks ettiruvchi obraz gavdalantiriladi. Sintaktik jihatdan so'nggi band undov gap sifatida tuziladi.

«Xvaran Chukchi haqida qo'shiq» va «Xvaran Kipcha haqida qo'shiq» *xyanga* konfutsiychilik an'anasi ko'ra shogirdning ustozga sadoqat izhori sifatida idrok etiladi.

Buddaviylik she'riyatida bo'lganidek, ona tilidagi dunyoviy she'riyatda ham mualliflik to'plamlari nashr etilgan. Chxve Xengvi

o‘z to‘plamlarida Sillaning ikki shoiri «Mayda sadaf va butun sopol», «Yorqin oy va kuchli shamol» kabi dunyoviy yodgorliklar xitoychaga o‘girilgani haqida xabar beradi. Ona tilidagi she’riyat Koreya davlatida oliv milliy ma’naviy qadriyat, milliy g‘urur sifatida yaratilgan. Ayni shu sababli uni xorijda ham tarqatishga harakat qilishgan, natijada yirik koreys shoirlari *xyangani* xitoychaga o‘girish bo‘yicha ish olib borganlar.

*Xyanga* ba’zan kuylangan, ba’zan esa o‘qilgan. Odatda, ularda qosifa ishlatilmagan. *Xyanganing* poetik tuzilishi haqida ma’lumotlar kam. *Xyanga* formulasi – uch misra (yoki uch band), olti *myon* (belgi)dan iborat bo‘lgan. Keyinroq yaratilgan *xyanga* uch banddan iborat. She’riy asarlarning bu tipi keyingi davr she’riyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Koreys she’riyatining taraqqiyoti davr o‘tishi bilan, uzoq tarixiy davr mobaynida IV asr (Silla davri)dan boshlab XIX asr oxirigacha xalq madaniyati oqimida, evolutsion, uning tur va janr shakllari: *xyanga*, *koryo kayo*, *sijo*, *chan-sijo* janrlaridan boshlab kasa va chapka janrlariga qadar bo‘lgan belgililar ostida kechgan.

Shuni qayd etib o‘tish lozimki, ushbu davr adabiyotining g‘oyaviy estetik mazmuni hayot voqelegi – ijtimoiy-siyosiy hayotdagи qirol sulolalarining hukmronligi, buyuk shaxslar faoliyati bilan bog‘liq muhim voqealar bilangina emas, balki xalq og‘zaki ijodi, mifologiya an’analari – davlatchilik asoschilarini madh etish, Vatan himoyachilar sha’niga hamd-u sanolar aytish, Omon podshosiga sig‘inish, shuningdek konfutsiychilik va buddizm g‘oyalarini ifodalash bilan ham belgilanadi.

Shunday qilib, ilk adabiyot, Uch podsholik davri adabiyoti Koreya davlatchiligin barpo etish va mustahkamlash uchun kurash bilan bog‘liq voqealarga javoban, ularni tavsiflash uchun yaratilgan, odamlarda yarimorolning keyingi tarixiy yo‘lini belgilagan vatanparvarlik, insoniy tuyg‘ularini tarbiyalashga xizmat qilgan.

## **II. KORYO ADABIYOTI**

*(X—XIV asrlar)*

X asrning boshlari Koreya tarixida burilish davri bo'ldi. Aynan 918-yilda Van Kon o'zaro urushayotgan podsholiklarni birlashtirib, yangi davlatga — Koryo sulusiga asos soldi. Bu sulola 1392- yilgacha hukmronlik qildi. Mazkur davrga tashqi siyosatda Xitoyga qarab mo'ljal olish xos, ichki siyosatni esa podsho hokimiysi belgilagan, bunda tabaalar xulq-atvori tabaaning podshoga bo'lgan munosabatini belgilovchi konfutsiychilik tamoyili — «sodiqlik»ka muvofiq kelishi lozim bo'lgan. Shu davrda 1170-yil saroy to'ntarishi va 1231—1232-yillarda mo'g'ullar istilosи yuz bergen. Siyosiy vaziyat adabiyotning xususiyatini ham belgilagan: Kim Busikning konfutsiychilik ruhidagi «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» tarixiy asari yaratilgan hamda yasa va pxesol norasmiy tarixiy janrlari vujudga kelgan. Bundan tashqari, konfutsiychilik qadriyatlaridan hafsalasi pir bo'lgan o'qimishli kishilar tabaqasi o'z milliy an'analariga murojaat etgan. Chunonchi, o'sha davrda yaratilgan asarlarda *Koryo kayo* qo'shig'i degan nom olgan og'zaki nasr va she'riy ijod namunalarini saqlanib qolgan.

Bu davrda tarixiy nasr janrida salmoqli yodgorliklar yaratilgan. Ikki turdag'i tarixiy asarlar — konfutsiychilar va buddaviylarning tarixiy asarlari ma'lum.

Uzoq vaqtgacha tarixiy nasr janrida faqat bir yodgorlik — Kim Busikning «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» (1145-yil) ma'lum bo'lgan. Ammo XX asrda buddaviylarning Koreyadagi yetakchi mazhabи patriarchi Kyunyo hayotining 1075-yilda Xyok Nyonchxon tomonidan tuzilgan tavsifi topilgan.

«Kyunyo hayoti»da buddaviylar hayotining tavsifi keltiriladi. Uning asosiy prinsiplari namunaviy tarixdan o'rin olgan tarjimayi hollarning prinsiplari bilan bir xil.

«Kyunyo hayoti»ning muallifi o'z oldiga Kyunyo hayotini to'liq tavsiflash, ya'ni patriarch tug'ilgan vaqtdan uning o'limiga qadar

bo‘lgan davrni qamrab olish vazifasini qo‘ygan. Ayni vaqtda, u patriarchning ulug‘vor obrazini tavsiflovchi eng muhim voqealarnigina qayd etgan. Kyunyoning tug‘ilishi va bolaligi bilan bog‘liq ajabtovur voqealar, shuningdek uning mo‘jizali o‘limi muallifning alohida e’tiborini tortadi. Asar motivlarining aksariyati afsonaviy yoki xayoliy xususiyatga ega bo‘lgan syujetli voqealardir. Ammo shu bilan bir qatorda, tarjimayi holga fabulasiz material, chunonchi: Kyunyo asarlari haqida mulohazalar, uning *xyangalari*, ularning Chxve Xengvi tomonidan xitoy tiliga o‘girilgan tarjimalari, shuningdek bu she’rlarga Kyunyo va Chxve Xengvi yozgan so‘zboshilar ham kiritilgan. Asarning mazkur qismlari o‘rtasidagi aloqa fabulali xususiyat kasb etmaydi va shu bois asar umuman olganda fabulasiz hisoblanadi.

«Kyunyo hayoti» asosan quyidagi prinsipga muvofiq tuzilgan: muallif materialni bobma-bob guruhlagan, har bir bob muayyan mavzuga bag‘ishlangan. Kyunyoning g‘aroyib tug‘ilishi, shogirdlik davri va o‘limi haqida hikoya qiluvchi birinchi, ikkinchi va oxirgi boblar voqealar bayonining xronologik prinsipiغا ma’lum darajada muvofiq keladi. Ammo Kyunyoning Koreyada buddaviylar o‘rtasidagi tarqoqlikka barham berish yo‘lidagi sa’y-harakatlari haqida hikoya qiluvchi to‘rtinchi bob tarqoqlik tavsifidan boshlanib, bu bayonning biografik chizig‘idan chetga chiqishdan boshqa narsa emas. Beshinchi bobda Kyunyoning asarlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Oltinchi bobda xronologik ketma-ketlikda Kyunyo sodir etgan mo‘jizalar haqida hikoya qilinadi. Keyingi ikki bob Kyunyoning koreys tilidagi diniy she’rlariga bag‘ishlangan. So‘ngra muallif xronologik prinsipga qaytadi va qanday qilib Kyunyoga tuhmat yog‘dirilgani haqidagi syujetli voqeani bayon etadi. Xulosada muallif Kyunyoning buyuklik darajasiga o‘z bahosini beradi va unga o‘z munosabatini bildiradi.

«Kyunyo hayoti» asosan tematik prinsipga binoan tuzilgan: muallif materialni bobma-bob guruhlaydi, har bir bob muayyan mavzuga bag‘ishlangan.

Birinchi bobda qahramonning, uning otasi va onasining ism-sharifi keltiriladi. So‘ngra g‘aroyib voqealari bayon etiladi, unda Kyunyo tug‘ilgunga qadar uning onasi ko‘rgan tush haqida so‘z yuritiladi:

osmondan sariq rangli qaqnuslar jufti tushadi va uning ko'ksiga kirib ketadi. Onasi Kyunyoni oltmis yoshida dunyoga keltiradi. Kyunyo o'ta xunuk bo'lgani uchun ota-onasi uni ko'chada qoldiradi. Ikkita qush uchib kelib bolani qanotlari orasiga oladi. Kyunyo hali yo'rgakda bo'lgan vaqtdayoq «*Avatama saka sutra*»ni mutolaa qilishni yoqtirgan va u birorta ham so'zni yoddan chiqarmagan.

Ikkinci bobda Kyunyo o'zining birinchi ustozini Sinxyonni tark etib, boshqa ustoz – buddaviylik ta'limoti sohasida Sinxyondan ko'proq bilimlarga ega bo'lgan *iysunga* shogird tushgani to'g'risida so'z yuritiladi.

Uchinchi bobda Kyunyoning singlisi Sumyon haqida hikoya qilinadi. Chaqaloqligida Sumyonning yig'isi she'r kabi ohangli bo'lgan, voyaga yetgach, u juda oqila ayol bo'lgan.

To'rtinchi bobdan boshlab Kyunyo buddaviylik ta'limoti, cherkovi va davlatni targ'ib qilish yo'lida amalga oshirgan ulug'ishlar haqida hikoya qilinadi. Birinchi epizodda Xvaoi mazhabini doirasidagi kelishmovchiliklar va Kyunyoning uni bartaraf etish yo'lidagi sa'y-harakatlari bayon etiladi. Kyunyoning ikkinchi qilmishi: u Xvaoi mazhabining asosiy qoidalarini sharhlagan otasining asarlarini tahrir qiladi va tartibga keltiradi. Shundan so'ng Kyunyo o'sha davrda endigina joriy etilgan davlat imtihonlarini qanday qilib muvaffaqiyatli topshirgani haqida hikoya qilinadi.

Beshinchi bobda Kyunyoning o'z asarlari sanab o'tilgan. Oltinchi bobda patriarxning g'ayrioddiy qilmishlari haqidagi epizodlar xronologik ketma-ketlikda joylashtirilgan. Kyunyo xastalarni tuzatadi, yomg'irlarni to'xtatadi va shunga o'xshash boshqa mo'jizalarni sodir etadi.

Badiiy usuldan foydalanish nuqtayi nazaridan ikkinchi epizod ayniqsa diqqatga sazovor. Unda podsho saroyida Xitoy elchisini kutib olish marosimiga uzoq tayyorgarlik ko'rildi, lekin surunkali yomg'irlar tufayli u tinimsiz kechga surilgani haqida hikoya qilinadi. Duo kuchi bilan yomg'irni to'xtatishga qodir bo'lgan avliyo odamni topishga qaror qiladilar. Marosimni tashkil etishga Kyunyogina rozi bo'ladi. U duo o'qishga kirishgach, muallifning yozishicha, «momaqaldoq va chaqmoqlar bir lahzada to'xtadi, shamol tindi, bulutlar tarqaldi, quyosh chiqdi». Podsho

behad xursand bo'lgan va hayratga tushgan. Kyunyoga to'qqiz marta ta'zim qilgan, unga faxriy unvon, yer va xizmatkorlar bergan.

Keyingi epizodda buddaviylar yig'ilishida Kyunyoning avliyoligi c'tirof etiladi. Bu yerda uni *iysanning* yettinchi tajassumi deb nomlaydilar.

Yettinchi bobda Kyunyoning «*Xyanga*» to'plami deyarli to'liq keltiriladi, sakkizinch bobda esa uning *xyangalari* xitoy tilida bayon etiladi. Shu tarjimalar tusayli Xitoy qiroli va uning tabaalari Kyunyoning *xyangalari* bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar va u tirik Buddha sifatida dovrug taratadi. Xitoy qiroli Kyunyoga o'z hurmatini bildirish uchun elchi jo'natadi.

To'qqizinchi bobda bir hasadgo'y Kyunyoga tuhmat qilgani va podshoda patriarchga nisbatan shubha paydo bo'lgani haqida hikoya qilinadi. Vanga tushiga farishta kiradi va yomon voqealar yuz berishini, bunga Buddha behuda shubha ostiga olingani sabab bo'lishini bashorat qiladi. Van qilmishiga pushaymon bo'ladi va tuhmatchini qatl etadi. Bobning davomida Kyunyo ruhlar keltirgan kulfatlarni *xyanga* yordamida qanday qilib qaytargani haqida hikoya qilinadi. Mazkur bobda Kyunyo faoliyati «farishtalar va ruhlar darajasida» ko'rib chiqiladi.

O'ninchi bobda patriarchning vafoti bayon etiladi. Bunga Kyunyo Buddalardan birining insoniy timsoli ekanligini tasdiqlovchi g'ayrioddiy voqe sabab bo'ladi.

«Kyunyo hayoti» so'nggi so'z bilan yakunlanadi va unda muallif Kyunyoga o'z shaxsiy bahosini beradi. Shunday qilib, tematik rang-baranglik prinsipi xronologik ketma-ketlik prinsipi bilan birikadi. «Kyunyo hayoti»da bo'rtib namoyon bo'ladigan qiziqarli voqealarga, turli xil mo'jizalarga qiziqish buddizmga xos va konfutsiychilik biografiyasining nisbiy ratsionalizmi bilan kontrastga kirishadi.

«Kyunyo hayoti» har biri mustaqil xususiyat kasb etadigan boblardan iborat bo'lib, bu asarning ko'hmalik xususiyatini yanada kuchaytiradi. Asarning dastlabki boblarida yozuvchi epik an'analarga murojaat etish orqali asarga tantanali ruh baxsh etadi. Asarning o'rtalaridan boshlab u pafos ohangini kuchaytiradi, bayonning emotsiyonal egri chizig'i asarning oxirigacha yuksalib boradi va madh

etuvchi so'nggi so'z bilan yakunlanadi. Xyok Nyonchxon asarning boblari kitobxonda yaxlit bir butundek taassurot qoldirishiga erishadi, bunga xalaqit betuvchi barcha omillar (manbalarga havolalar, asarni yozish tarixi va sh.k.) boblar chegarasidan tashqariga chiqarilgan, bayon oqimini hech narsa buzmaydi.

«Kyunyo hayoti»da insonning ideallashtirilgan obrazi beriladi. Yodgorlikka qahramonni to'g'ridan to'g'ri ideallashtirish xos. O'z tipiga ko'ra u epik ideallashtirishga yaqin turadi. Qahramon darhol buyuk shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ammo obrazning epik xususiyati dastlabki boblarda qilingan. Yaxlit epik obrazni butun asar davomida saqlab qolish mumkin emas edi va muallif o'z oldiga bunday vazifani qo'ymaydi. Asarni tuzishda Xyok Nyonchxon «eng muhim narsalarni» tanlagan va bu «muhim narsalar» Kyunyo faoliyatining muayyan jihatlarigagina tegishli bo'lgan. Chunonchi, muallifni Kyunyoning buddizm obro'sini yuksaltirish uchun bajargan ishlari ko'proq qiziqtiradi. Patriarx sodir etuvchi mo'jizalar ayni shu vazifaga bo'y sundirilgan.

Kyunyoning podsho va davlatga bo'lgan munosabatiga ham ancha katta e'tibor qaratilgan. «Kyunyo hayoti»da patriarchning davlat oldidagi xizmatlari bo'rtib namoyon bo'luvchi voqealar, masalan, yomg'irni to'xtatish haqidagi fikr bilan bog'liq epizod ajralib turadi. Patriarx o'zini tabaaga munosib tarzda tutadi. Buddaviy yo'lboshchining hayot yo'li, xususan uning podsho bilan o'zaro munosabatlari konfutsiychilikda qabul qilingan podsho va tabaa o'rta sidagi munosabatlar sxemasiga muvofiqdir. Bunda buddizmning Koreya jamiyatidagi umumiy o'rni, uning davlat hokimiyatiga nisbatan qaram holati aks etgan.

«Kyunyo hayoti»da qilmishlar «rasmiy», tantanali xususiyat kasb etadi. Bu yerda ahamiyatsiz epizodlar nazarda tutilmagan. Muallif asarning biror joyida ham qahramonning tashqi ko'rnishiga tavsif bermaydi. Kyunyoning portretini tavsiflovchi birdan-bir detal – uning qiyofasida me'yordan og'ish unsurlari mayjudligi bilan izohlanadi. Xunuklik sehrli kuchlarni g'ayri oddiy go'dak haqida g'amxo'rlik qilishga da'vat etadi.

Xyok Nyonchxonni umumiy jihat – insonning mohiyati qiziqtiradi. Patriarx boshqa odamlardan mislsiz darajada ustun

turadi. Inson tavsifi harakatlar – mo‘jizalar, buyuk ishlar yordamida beriladi. Asarda psixologik tavsiflar, qahramonning ichki olamini tasvirlashga urinishlar mavjud emas. Masalan, Kyunyoga tuhmat qilishganidan so‘ng, uni jazolash uchun saroyga chaqirishganida, patriarchning ruhiy holati haqida hech narsa ma’lum emas. Obraz turg‘un xususiyatga ega bo‘lib, Kyunyo yillar osha o‘zgarmaydi, faqat uning obro’si epizoddan epizodga oshib borishida namoyon bo‘ladi.

Asar nasr janri Koreyada XV asrda erishgan yuksak badiiy saviyani aks ettiradi. «Kyunyo hayoti» bu davrda yaratilgan shu turdagи birdan bir asar bo‘limgan. Chunonchi, uning muallifi unga qadar Kan Yuxyon tomonidan saroy yozuvlari asosida Kyunyoning hayot yo‘liga bag‘ishlangan asar yaratilganini qayd etadi. Bu davrda rasmiy tarixnavislik yo‘nalishida ishlar ham davom ettirilgan. Xususan, Koreyada rasmiy «tarix byurosি» tuzilgan, uning qoshida davlat tarixi – «*Kamsi Kuksa*»ni tuzish bo‘yicha lavozim ta’sis etilgan.

Tarixnavislikdan eng yirik asar «*Samguk Sagi*» – «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» Kim Busik (1075–1152) tomonidan 1145-yilda yaratilgan bo‘lib, asar «namunaviy tarix» hisoblanadi. Koreys tarixshunosligining bizgacha yetib kelgan birinchi yodgorligi bo‘lgan bu asar Kim Busikdan oldingi tarixchilarining kitoblari asosida yozilgan. Kim Busik bu asarni podsho hukmiga binoan yozgan. Asar yozib tugatilgach, Kim Busik va uning o‘nta yordamchisi – saroyning turli amaldorlari tomonidan imzolangan xat bilan birga podshoga taqdim etilgan. Kim Busik vatanparvar inson bo‘lib, o‘z zamonasining o‘qimishli kishilarining aksariyati Xitoyning konfutsiychilik faniga qarab mo‘ljal olgani va o‘z merosiga past nazar bilan qarashlari uni qattiq tashvishga solgan: ««Besh kitob» hamda xitoy donishmandlari asarlarining mazmunini, shuningdek, Sin, Xan va keyingi sulolalar tarixini teran anglab yetishga qodir bo‘lgan hozirgi olimlar, mamlakatimizda sodir bo‘lgan voqealarga kelganda, o‘zlarini butunlay yo‘qotib qo‘yadilar, bu voqealarning boshini ham, yakunini ham bilmaydilar. Afsus! Bu naqadar qayg‘uli!» – deb yozgan.

Kim Busik va uning yordamchilari Koreya tarixida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan barcha faktlarni bir kitobga jamlaganlar. Ular o‘z

davri tarixini yoritish bilan cheklanmagan, balki qadimgi va ilk o'rta asrlar Koreya tarixini ham hikoya qilganlar. Har bir podsholikka bir solnoma bag'ishlangan bo'lib, bu solnomalar Uzoq Sharqda qabul qilingan sulolalar rasmiy tarixinining muqarrar elementi sanalgan «Asosiy yilnomalar» andozasiga muvofiq tarzda tuzilgan. Kim Busik o'z asarini «Samguk sagi» deb nomlab, bu bilan xitoy va butun Uzoq Sharq tarixshunosligining asoschisi, miloddan avvalgi II—I asrlarda, ya'ni Kim Busikdan ming yil oldin yashagan Sima Syanning «Tarixiy qaydlar» asarining koreyscha variantini yaratayotganiga urg'u bermoqchi bo'lgan.

Sima Syan o'z asarini afsonaviy podsholar Xun-di va Chjuansuyu podsholik qilgan davr bayonidan boshlagan; Kim Busik ham Koreya podsholiklaridan har birining tarixini, uning fikricha, o'zidan ming yil va undan ko'proq vaqt oldin yashagan afsonaviy podsholarning tug'ilishidan boshlab bayon etadi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, koreys adabiy yodgorliklari keyingi asrlarda yo'q bo'lib ketgan, asosan xitoy adabiy yodgorliklari saqlanib qolgan. Turli xalqlarning qadimgi va o'rta asrlardagi solnomalari kompozitsiyasi va uslubiga ko'ra ko'p jihatdan o'xshashdir. Ularning zamirida voqealarni yilma-yil qayd etishga intilish yotadi. Kim Busik muayyan yil ostida qilgan qayd, uning turli qabilalariga mansub hamkasblarining qaydlari kabi, juda qisqa — bor-yo'g'i bir gapdan iborat bo'lgan. Masalan, Silas podshosi Chim hukmronligining yigirmanchi yili, ya'ni milodiy 131-yil ostida shunday deyilgan: «Yozda, beshinchi oyda, kuchli set kelib, odamlarning uyini yuvib ketdi yoki ularni suv bosdi». Chimning vorisi podsho Ilson hukmronligining birinchi yili (milodiy 134-yil) ostidagi qayd ham qisqa va lo'nda: «O'ninchi oyda umumiyl avf e'lon qilindi». To'g'ri, bu darajada qisqa bo'lmagan qaydlar ham mavjud, lekin ular ham aksariyat hollarda o'zaro bog'-lanmagan ayrim voqealar ro'yxatidan iborat. Solnomachi uchun ular faqat ayni bir yilda yuz bergani muhim. Ammo solnomachi kutilmaganda o'zining bu uslubidan uzoqlashadi va qaysidir yil ostida quruq bayon ko'rinishidagi qaydni emas, balki u yoki bu shaxs, aksariyat hollarda, albatta, podsho hayotidan butun boshli bir voqeani keltiradi. Bu yerda solnomachi voqeani qayd etibgina

qolmasdan, balki u qandjay yuz bergenini tavsiflaydi. Shunday ekan, Kim Busikning e'tiborini o'ziga tortgan narsa nima? Boshqalarga saboq bo'ladigan mazmunga ega bo'lган g'ayrioddiy voqealar. XII asr solnomachisi uchun mo'jizali voqealar: afsonaviy podshoning mo'jizaviy tug'ilishi, Osmonda paydo bo'lган mo'jizaviy ishora, insonning ruh yoki ajdar bilan mo'jizaviy uchrashuvi, podsho yoki biron-bir mashhur kishi bilan yuz bergen favqulodda hodisa g'ayrioddiy bo'lган. Tarixchi tavsiflagan voqeal solnomadagi qisqa qaydni jonlantiribgina qolmaydi, u syujetli hikoya kurtagi: esda qoladigan tafsilot, ibrat bo'larli ibora, kutilmagan xotimani o'zida mujassamlashtiradi.

Kim Busik va uning yordamchilari podshoga yozgan xatida o'sha davrga xos bo'lган kamtarlik bilan garchi ularning asari podsho xazinasida saqlashga loyiq bo'limasa-da, lekin ular podsho bu asar shisha idishlar og'ziga tiqin sifatida ishlatalishiga yo'l qo'ymasligiga umid qilishlarini aytganlar. Vaqt ularning mehnating zoye ketmaganini tasdiqladi. «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» nafaqat o'z vatanida, balki XII asr xitoy adibi Van Inlin guvohlik berishicha, Xitoy imperatori kutubxonasida ham saqlangan.

Kim Busik saroy tarixchisi, aniqroq qilib aytganda, «davlat tarixini tuzish bo'yicha nozir» (uning rasmiy lavozimi «kamsu kuksa» shunday tarjima qilinadi) bo'lган. U o'z vatanining tarixini yozar ekan, konfutsiychilik tarixshunosligi prinsiplariga amal qilgan: tarixni avlodlarga ibrat bo'ladigan tarzda yozgan, ya'ni,adolatsiz podsholikni qoralagan, munosib podsholikni maqtagan. Bu o'rinda Kim Busik va uning yordamchilari Konfutsiyning «Bayon etaman, lekin yaratmayman», degan nasihatiga amal qilganlar. Bu nasihatni «qadimgilarning ishlari va ta'llimotini bayon etaman va o'zimdan hech narsa to'qimayman», deb talqin qilish mumkin. Shuningdek, Kim Busik va uning yordamchilari Konfutsiyning boshqa bir o'gitini ham yodda tutgan bo'lsa kerak: «Ustoz g'ayrioddiy narsalar, mo'jizaviy voqealar, fitna va ruhlar haqida gapirmaydi». Amalda bu qadimgi misflar va afsonalarga tarixiy tus berilishiga, g'ayrioddiy va sehrli voqealar, ya'ni aksariyat hollarda mifning o'zagini, uning keyingi avlod kitobxonlari uchun

estetik qimmatga ega bo‘lgan jozibali jihatlarini tashkil etuvchi unsurlar tushirib qoldirilishiga olib kelgan.

«Samguk Sagi» 50 bobdan iborat bo‘lib, ular to‘rt bo‘limga birlashtirilgan: *pongi* – «Asosiy manbalar», *nyonpxyo* – «Xronologik jadvallar», *chapki* – «Turli risolalar», *eljon* – «Tarjimayi hollar».

Yodgorlikda uch davlat – Silla, Pekche, Koguryo tarixi bayon etilgan. «Asosiy manbalar» bo‘limi uch qismdan iborat bo‘lib, ular quyidagi tarzda boblarga ajratilgan: Silla – o‘n ikkita, Koguryo – o‘nta, Pekche – oltita bob. Mazkur boblarda uch davlatning har birida hukmronlik qilgan sulolalarning kelib chiqishiga tavsif berilgan, har birida ularga asos solingan kundan boshlab Silla hokimiyyati ostida birlashtirilgan vaqtgacha yuz bergen voqealar bayoni keltirilgan.

«Xronologik jadvallar»da (uchta bob) uch podsholik podsholaring diqqatga sazovor sanalari keltirilgan.

«Turli risolalar» bo‘limida (to‘qqizta bob) mamlakatning geografik o‘mi, ma’muriy tizimi, marosimlari, musiqasi, kiyimlarining tavsiflari berilgan. Har bir mavzuga alohida bob bag‘ishlangan.

«Tarjimayi hollar» bo‘limi uch davlat va birlashgan Silla davrining mashhur kishilarini hayotiga bag‘ishlangan. Konfutsiychilikning u yoki bu ijtimoiy-axloqiy tipiga mansub bo‘lgan shaxslarning tarjimayi hollari keltirilgan. Chunonchi, sodiq tabaalar – askarlarning kuchli, dovyurakligi madh etilgan, bahodirona tashqi ko‘rinishiga urg‘u berilgan, qahramon urushda ko‘rsatgan jasoratlar bo‘rttirib tafsiflangan. Ba’zan tarixchi asar qahramoniga xalq ertagi qahramonining xususiyatlarini yuklagan. Masalan, Silla malikasi Sandok murakkab vazifalarni hal qiladi, tushlarni ta’birlay oladi. Ba’zan muallif ertaknamo epizodlarni keltiradi. Chunonchi, Koguryo podshosi Pemunsin-vanning Puyoga qarshi yurishi haqidagi hikoyada u podshoni kuzatib borish istagini bildirgan qaynar qozonli ayol, g‘ayrioddiy nishonalar, Puyoni bosib olishda Pemusin-vanga yordam berish niyatini bildirgan ikki bahodir haqida hikoya qiladi.

Shuni qayd etish lozimki, asar tuzilishida ham, tanlangan materialida ham Kim Busik xitoycha an‘anaga so‘zsiz amal qilmaydi. Jumladan, «Samguk Sagi»da «Sulolalar» bo‘limi yo‘q, birinchi

o‘ringa Xitoy bilan urushlarda g‘alaba qozongan koreys qahramonlari – askarlarning tarjimayi hollari chiqarilgan. Badiiy so‘z ustasi bo‘lgan kishilarning tarjimayi hollariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu tasodisiy bir hol bo‘lmasa kerak. Zero, Uzoq Sharqda badiiy so‘z ustasi bo‘lish ma’rifatlilik alomati sanalgan va Kim Busik, tabiiyki, o‘z davlatini ayni shu tusda ko‘rsatishga harakat qilgan.

«Uch davlatning tarixiy yozuvlari» rasmiy tarix – *chonsa* bo‘lib, u konfutsiychilikning ratsionalistik nuqtayi nazaridan yozilgan. Bu avvalo materialni tanlash prinsiplarida (tarixchi sehrli voqealar haqidagi ma’lumotlarni chetga surishga harakat qiladi); xulq-atvori konfutsiychilikning besh munosabat (podsho – tabaa, ota – o‘g‘il, er – xotin, katta – kichik va h.k.) prinsiplariga muvofiq kelishi lozim bo‘lgan namunaviy qahramon tipining yaratilishida; yozma so‘zning o‘rni va ahamiyatini Kim Busik qanday tushunishida namoyon bo‘lgan. Chunonchi, u asarga so‘zboshida shunday deb yozadi:

«Uch davlatda yuritilgan qadimgi yozuvlarga kelsak, jum-lalarning dag‘alligi, ma’lumotlar to‘liq emasligi tufayli ular podsho larning yaxshi-yomon ishlarini, a’yonlarning sodiq yoki xiyonatkor ekanligini, xalqning itoatkorligi yoki isyonkorligini aniqlash va ajdodlarga saboq berish uchun yaroqli emas».

Adabiyot xususida bunday qarashlar qadimgi Koreyadagina tarqalmagan, ular XX asr adabiy arboblarining fikr-mulohazalarida ham kuzatiladi. Xuddi shuningdek, namunaviy qahramonga xos bo‘lgan jihatlar ba’zan hozirgi zamon nasri personajlarining xulq-atvorida ham namoyon bo‘ladi.

Bu davrda mayjud bo‘lgan *idudagi* nasr haqida aniq bir narsa deyish qiyin, chunki XI asrga tegishli uch epigrafik buddaviylik bitiklargina saqlanib qolgan. Birinchisi (1010-y.) – stelada o‘yib yozilgan bo‘lib, mazkur stela qay tarzda va kimning ishtirotkida qurilgani haqidagi nisbatan qisqa bitik. Ikkinchisi (1085-y.) – ishga doir qisqacha bitik. Uchinchisi (1031-y.) – muhim imoratlar tavsifi keltirilgan yirik matn. Bu Chondosda (Kyonsan provinsiyasida) mamlakatdagi uzoq yillik behbud podsho lik sha’niga qurilgan besh qavatli ibodatxona haqidagi yozuv bo‘lib, u

Kvanxyonning nima sababga ko'ra bu ibodatxonani barpo etganligi haqidagi hikoyadan boshlanadi. U o'z niyatini ro'yobga chiqara olmagan, chunki kasal bo'lib erta vafot etgan.

Bitik buddaviylik xususiyatiga ega bo'lsa-da, bu yerda keltirilgan davlatdagi behbudlik davri tavsifi konfutsiychilik an'anasisiga xos bo'lgan uslubda ekanligi shak-shubhasizdir: vanning oqilona podsholigiga uning vassallari ko'maklashadi, xalq mehnatdan rohat topadi, ofatlar mamlakatni chetlab o'tadi, yillar serhosil keladi, mamlaka tilchlik va osoyishtalik hukm suradi. Shundan so'ng kim va qanday mehnat qilgani, mazkur qurilishga qanday hissa qo'shgani haqida keng tavsif keltiriladi.

Material xronologik ketma-kettlikda joylashtirilgan. Tematik jihatdan bu bitik «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar»ning ibodatxonalar qurilishi tarixlari jamlangan to'rtinch bo'limi bilan hamohangdir. Ammo bu yerda odatda qurilish bilan bog'liq sehrli xususiyatga ega bo'lgan voqealar keltiriladi. Bitklarda bayon etilayotgan materialga qat'iy ratsionalistik yondashuv kuzatiladi, bu esa Kim Busikning «Tarixiy yozuvlari» uslubini eslatadi.

1215-yilda dengizdan sharqda joylashgan mamlakat atoqli rohiblari tarjimayi hollarining Kakxun tomonidan yaratilgan to'plami — «Dengizdan sharqda joylashgan mamlakat atoqli rohiblarining ko'rgan-kechirganlari» nashr etiladi.

Buddaviy rahnamo Kakxun Yontxonsa ibodatxonasining bosh ruhoniysi bo'lgan. Uning tarjimayi hollar to'plami XX asr boshida topilgan bo'lib, avval Koreyada, 1917-yilda esa — Yaponiyada nashr etilgan. Yodgorlik to'liq saqlanib qolmagan: uning dastlabki ikkita *kvoni* bizgacha yetib kelgan, ammo aslida nechta kvondan iborat bo'lgani ma'lum emas. Saqlanib qolgan ikki *kvondan* o'n sakkizta koreys buddizmi taniqli namoyandalarining tarjimayi holi o'rinn olgan. To'plam so'zboshi bilan ochiladi. Unda IV asr oxiri — VII asr boshlari ilk koreys buddizmining eng mashhur vakillari: Sundo, Manmen, Iyon, Malandana, Tamsi, Ado, Popkon va boshqalarning tarjimayi hollari keltirilgan. Bu arboblarining tarjimayi hollari ular buddizmni targ'ib qilish bilan shug'ullangan davlat bilan bog'liq *kvondan* o'rinn olgan. Ikkinci *kvonga* sillalik rahnamolarning tarjimayi hollari kiritilgan. Bunday tarjimayi

hollar o'nta bo'lib, ularning aksariyatida qahramonlar haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan, xolos.

Kakxun o'z asarini tuzishda buddaviylar va konfutsiychilarning tarjimayi hollarini yozishning Uzoq Sharqda vujudga kelgan an'analariga tayangan. Yodgorlik uchun andoza bo'lib xitoy buddaviylarining tarjimayi hollari, eng avvalo Xuey-szyao tomonidan tuzilgan – «Atoqli rohiblarning tarjimayi hollari» to'plami xizmat qilgan.

«Xedon»da tarjimayi hollar, ayrim og'ishlarni aytmaganda, asosan xronologik tartibda joylashtirilgan. Tarjimayi hollarning o'zida ham materialni tartiblash zamirida voqealarning xronologik ketma-ketligi yotadi. To'g'ri, bu ketma-ketlik qisman buzilgan joylar ham yo'q emas. «Xedon» tarjimayi hollari, «Kyunyo hayoti» kabi «to'liq» tarjimayi hollarga kiradi, ya'ni inson hayotini tug'ilgan paytidan to uning o'limiga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi. Bunday materialga biografik ma'lumotlar, personajga muallif tomonidan berilgan tavsif, Koreya va Uzoq Sharqda buddizmning tarqalishiga doir tarixiy ma'lumotlar kiradi. Mazkur material odatda rahnamo hayoti va faoliyati bilan faqat xronologik jihatdan bog'lanadi: u bayon etilayotgan voqealarda mazkur rahnamo ishtirok etgan-etmaganidan qat'i nazar keltiriladi. Ammo koreyalik muallif Uzoq Sharq an'anasi taklif qilgan tuzilishdan foydalanib, odatda, uni faktik ma'lumotlar bilan to'ldiribgina qolmasdan, balki mahalliy folklorga oid material – rahnamoning faoliyati bilan bog'liq afsonalarni ham jalb qiladi. Rahnamo obrazini g'ayrioddiy inson sifatida taysiflar ekan, Kakxun uning faoliyatlarni yoki u tushgan vaziyatlarni xitoycha andozalar – Xitoy tarixining mashhur qahramonlari va ularning jasoratlari bilan taqqoslaysdi. Xitoy klassikasiga murojaat etishning mazkur usuli keyingi davrlar koreys nasrida, ayniqsa, keng qo'llanila boshlagan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, «Xedon» buddaviylarning diniy yodgorligigina emas. Uning tuzilishi xususiyatlarda ham, materiallarni tanlash usullarida ham davlat va milliy g'oyalarning ustuvorligi kuzatiladi. Koreys buddizmi azaldan davlat bilan uzviy bog'liq bo'lgan va uning manfaatlarini qo'llab-quvvatlagan.

Buddaviy rahnamolarning «Xedon»da jamlangan tarjimayi hollari koreyalik mashhur insonlarning xulq-atvor andozalaridan iborat. Ular buddaviylik dini avvalo Koreya davlati hududida tantana qilishi yo‘lida jasoratlar sodir etadilar. Bundan tashqari, koreys buddaviylari Xitoyda va hatto Hindistonda ham dovrug taratganlar. Kakxun o‘z mamlakatini Draxma dunyosiga daxldor zamin, ya’ni namunaviy zamin sifatida aks ettiradi. U o‘z asarining vazifasini davlatni madh etish, zamondoshlar va avlodlarga xos xulq-atvor andozasini berishda ko‘radi. XII asr oxiri – XIII asr adabiy asarlarida Koreya sivilizatsiyasining qadimiyligi g‘oyalari va o‘z davlatini mashhur so‘z ustalari vatani sifatida aks ettirish istagi ancha kuchli. Kakxun milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining faol targ‘ibotchilaridan biri bo‘lgan.

XII–XIV asrlar tarixiy nasri syujetlilikka intilishning kuchliligi bilan tavsiflanadi. Mazkur janrda norasmiy tarix – *yasa* ayniqsa keng tarqaladi. *Yasa* tarixiy asarning alohida shakli bo‘lib, u, odatda, ayrim shaxslar tomonidan tuziladi.

Bu turdagи asarlarning eng mashhur yodgorligi Kim Iryon (1206–1289)ning «*Samguk Yusa*» – «Uch davlat tarixiga qo‘sishimchalar» kitobidir. Kim Iryon Kim Busikning «Uch davlatning tarixiy yozuvlari» asariga o‘ziga xos qo‘sishimchalar tuzgan va o‘z asarida Kim Busik qandaydir sabablarga ko‘ra foydalanmagan voqealarni kiritgan. Aslida Kim Iryon buddaviy rohib bo‘lgan. Qadimgi Hindistonda vujudga kelgan buddizm, hindlarning boshqa qadimgi ta’limotlari kabi, tarixdan uzoq bo‘lgan. Umuman olganda, tarixiy dunyoqarash buddizmga begona emas. Buddizm dunyoviy hayotni o’tkinchi deb hisoblagan va unda yuz bergen voqealarga e’tibor bermagan. Buddizm tarafdarlari odatda tarixiy asarlar yozmagan. Agar ular bunday asarlarni yozishsa (masalan, Tibetda shunday bo‘lgan), mamlakat tarixini faqat unda buddizmnинг tarqalish tarixi sifatida bayon qilganlar. Tarixshunoslik an’anasi rivojlangan Xitoyda, yuzlab va minglab tarixchilar orasida, buddaviylar deyarli bo‘lmagan. Koreys rohibi Iryon o‘z zamondoshlari kabi buddaviy bo‘lish bilan chegaralanmasdan, bolaligidan konfutsiy ta’limotini o‘zlashtirgan. Uzoq Sharq mamlakatlarida (Yaponiyadan tashqari) asrlar mobaynida

ma'lumot olish o'sha davr madaniyati va fanining negizi sanalgan konfutsiychilik aqidalari bayon etilgan kitoblarni yod olishdan boshlangan.

«Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» asari har biri alohida mavzuga bag'ishlangan to'qqiz bo'limdan iborat bo'lib, muallif «g'ayrirasmiy tarixni» konfutsiychilik nuqtayi nazaridan o'ta oqil sanalgan qadimgi podsholarga ishoradan boshlagan: «Qadimgi donishmandlarning aksariyati o'z udumlari musiqasi bilan davlatning ravnaqiga ko'maklashgan, insonparvarlik va burchga sodiqlikni o'z ta'limotiga asos qilib olgan, g'ayritabiyy narsalar, zo'ravonlik, fitna va ruhlar haqida gapirishni istamaganlar. Ammo podsholarning bo'lg'usi yuksalishi, podsho vakolatini olishi odamlar uchun muqarrar tarzda g'ayrioddiylikdan holi bo'Imagan. Shundan keyingina ular mamlakatdagi buyuk g'alayondan foydalanib, hokimiyat tizginini o'z qo'llariga olishlari va ulug' ishlarni amalga oshirishlari mumkin bo'lgan. Shu sababli Xuanxeden Buyuk reja, Loshuy daryosidan esa – chizma paydo bo'lgan va donishmandlar o'z ishlarini bajarishga muvaffaq bo'lganlar. Yoki tabarruk onani kamalak qurshab olgan va u Fu-sini dunyoga keltirgan, ajdar Nyudenni uyg'otgan va u Yanni (ya'ni, Ilohiy ziroatchi Shen-sunni) dunyoga keltirgan... Bunday qaydlarning sanab sanog'iga yetib bo'Imaydi! Shuningdek, ajdodlar – uch podsho asoschilari ham – hammasi ilohiylik va g'ayrioddiylik xususiyatlari ega. Buning hayron qoladigan nima jihatি bor?! Mening niyatim g'ayrioddiy narsalarni qayd etib, turli asarlarni to'ldirish bo'lgan».

Muallif so'zboshida g'ayrioddiy narsalar haqida so'z yuritmaslikni e'lon qilgan xitoy tarixchilarining ahdlari bilan ularning asarlari o'rtasidagi ziddiyatlarni qayd etadi. Darhaqiqat, bu asarlarda ilk ajdodlar va podsholarning mo'jizaviy tarzda tug'ilishi, osmonda namoyon bo'lgan ishoralar va sehrli yordamchilar haqida qadimgi mifologik rivoyatlar kesib olingan va ba'zan o'zgartirilgan ko'rinishda bo'lsa ham mavjud (masalan, ot – ajdar Xuanxe daryosidan sakkiz trigrammaning shakl-shamoyilini olib chiqadi, Loshuy daryosidan chiqqan toshbaqa afsonaviy podsho Yuya suv toshqinini to'xtatish va tartibga solish rejasini taqdim etadi va h.k.).

Kim Iryon o‘z asarini besh qismga ajratgan. Dastlabki ikki qismni u «G‘ayrioddiy voqealar bayoni» deb nomlagan. G‘ayrioddiy voqealar va rivoyatlar Iryon asarining keyingi qismlari mazmunini ham tashkil etgan, lekin bu yerda u o‘zini izchil buddaviy sifatida namoyon etgan. U uchinchi qismni buddaviylar qonuni — dxarmani nazarda tutib, «Qonunning yuksalishi» deb nomlagan va unga ibodatxonalariga asos solinishi, tabarruk zotlar, avliyolarning tasvirlari va shu kabilar haqidagi hikoyalarni kichik bo‘lim sifatida kiritgan. Bu yerda Iryon asarining barcha bo‘limlarini sanab o‘tishning hojati yo‘q, faqat shuni qayd etish lozimki, rohib Iryon nima haqida yozmasin, uni g‘ayrioddiy narsalar, mo‘jizalar qiziqtirgan: g‘ayrioddiy tug‘ilish mo‘jizasi, sirli g‘oyib bo‘lish mo‘jizasi, koreys ibodatxonalaridan birida budda yoki bodxisattva haykali nozil etgan mo‘jiza va sh.k. Iryon o‘z asarini ota-onaga hurmat haqidagi bo‘lim bilan yakunlagan. Ota-onaga hurmat buddaviylarga azaldan xos fazilat sanalmagan. Bu qadimda konfutsiychilar tomonidan o‘zlashtirilgan va qonunlashtirilgan tushuncha bo‘lgan. Ammo milodning dastlabki asrlarida Uzoq Sharq mamlakatlariiga O‘rta va Markaziy Osiyodan kelgan buddaviy targ‘ibotchilar o‘z ta‘limotini mahalliy odatlar bilan moslashtirishga harakat qilib, bu axloqiy kategoriyanı shu ta‘limotga kiritganlar. Shu bois Iryon o‘z to‘plamini ko‘r onasining qornini to‘yg‘azish uchun o‘zini qul qilib sotgan kambag‘al qiz haqidagi hikoya bilan tamomlagani tabiiy bir holdir.

Norasmiy asar hisoblangan Iryon asari Koreyada Kim Busikning «Uch davlatning tarixiy yozuvlari»ga qaraganda kamroq tarqalgan. Bu hol asosan Iryonning konfutsiychilik aqidalariga zid bo‘lgan g‘ayrioddiy voqealarga kuchli qiziqishi bilan izohlanadi. Masalan, XIX asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan konfutsiychi olim Li Gugyon Iryon asarini «qip-qizil safsatalar to‘plami»<sup>1</sup> deb tavsiflagan. Koreyada o‘rta asrlarda matbaachilik keng rivojlangan bo‘lsa-da, bu qiziqarli kitob bor-yo‘g‘i bir necha marotaba nashr

---

<sup>1</sup> Saydazimova U.T. Koreys adabiyoti sarchashmalaridan namunalar. T: 2012. 61-b.

etilgani va 1512-yilgi ksilografik nashrdan so'ng XX asrning 20-yillarigacha biror marta ham qayta nashr etilmagani bejiz emas.

Kim Busik va uning yordamchilari yoki hatto rohib Iryon ham xalq afsonalari, miflar va rivoyatlarni hozirgi folklorchilar kabi, ya'ni hikoyachini tinglab va birorta ham so'zni o'tkazib yubormaslikka harakat qilib, mahalliy sheva yoki lahja xususiyatlarini saqlagan holda yozib olmaganlar. Ular butunlay boshqacha tarzda ish ko'rganlar. Qadimgi rivoyatlarni to'plar ekanlar, ular bu rivoyatlarni avvalo qadimgi kitoblardan qidirganlar va ko'chirib olganlar, shundan keyingina ular o'zlariga ma'lum bo'lgan, balki o'zga shaxslardan eshitilgan hikoyalarni bayon qilganlar. Bu Iryonning «Uch davlat tarixiga qo'shimchalar» asarida yaqqol ko'zga tashlanadi. «Qadimgi Choson» deb nomlangan birinchi hikoya milodiy IV–V asrlarda tuzilgan «Vey tarixi»ning variantlaridan biriga ishoradan boshlanadi: «Qadim zamonlarda, bundan ikki ming yil oldin Vangon ismli podsho Tangun yashagan, u Asadalda poytaxt va Choson davlatiga asos solgan». Shundan keyingina, izoh tariqasida, Tangun haqidagi mifologik hikoya ancha musassal keltirilgan, u qaysidir «Qadimgi qaydlar»dan olingen ko'chirma sifatida berilgan. Bu aynan qaysi «Qadimgi qaydlar» ekanligi aniq emas. Ikkinci hikoya esa butunlay Van Guning «Ilk Xan tarixi»dan (milodiy 1 asr), uchinchi hikoya Chen Shouning «Uch podsholik tarixi»dan (milodiy III asr) o'zlashtirilgan, lekin qadimgi xitoy asarlariga ishoralar tez orada tugaydi va Iryon hozirgacha yetib kelmagan koreys adabiyoti namunalaridan olingen rivoyatlarni bayon etishga kirishadi, keyin esa ularga ishora qilishga ham to'xtatiladi. Asarning bu qismida muallif biroz erkinroq bayon tarziga amal qilib, asosan og'zaki rivoyatlarga tayanadi. U mazkur rivoyatlarni mumkin qadar aniq bayon etishga harakat qilgan. Muayyan rivoyatning turli variantlari ma'lum bo'lgan hollarda Kim Iryon buni o'z izohlarida qayd etib o'tgan.

Shu bilan birga, asarda buddaviylik rahnamolarining tarjimayi hollari keltirilgan. Tarjimayi hollar uch bosqichga bo'linadi: to'liq tarjimayi hol (epik tip), afsonaviy-ertaknamo tarjimayi hol va novellistik tarjimayi hol.

**To'liq tarjimayi hol** rahnamoning hayoti haqida u tug'ilgan paytdan boshlab uming o'limiga qadar hikoya qiladi. Bu turdag'i tarjimayi hol rasmiy va tantanalidir. Komik epizodlarga, rahnamoning g'ayrioddiy faoliyati tavsifiga yo'l qo'yilmaydi. Bunday tarjimayi hollarda inson obrazi idealdir. U darhol ayni shunday belgilanadi va oxirigacha o'zgarmaydi, ya'ni bu turdag'i tarjimayi hollarga to'g'ridan to'g'ri ideallashtirish xos. To'liq tarjimayi hol zamirida, odatda, rasmiy yozma manbalardan olingan faoliyatlar ro'yxati yotadi. Og'zaki an'ana va norasmiy yozma manbalardan rahnamo hayotidagi muhim voqeani yorituvchi materialgina tanlab olinadi. Bunga Chojan, Chipxyo tarjimayi hollari misol bo'lishi mumkin.

**Afsonaviy-ertaknamo tarjimayi hol** dastlabki «turg'un» yoki «kamtarin» holatdan boshlanadi. So'ngra rahnamo o'zi sodir etgan mo'jiza orqali o'zini dunyoga tanitadi. Rahnamo odamlar ko'z o'ngida avliyo sifatida namoyon bo'lgach, oradan ko'p o'tmay u g'oyib bo'ladi: vafot etadi, o'zgacha holatga o'tadi (rohiblikni bo'yniga oladi). Hikoyaning uchala bo'g'ini bir-biri bilan sababiy bog'lanadi, syujet sxemasini tashkil etadi, ya'ni tarjimayi hol syujetlidir.

Afsonaviy-ertaknamo tarjimayi hollarda kontrast ideallashtirishga duch kelish mumkin. Bu turdag'i tarjimayi hollarda kishilar dunyosiga salbiy ko'z bilan qaraydigan rahnamo obrazi yaratiladi. Ba'zan uning harakatlari mazkur dunyo bilan konfliktga aylanadi.

Afsonaviy-ertaknamo tarjimayi hollar zamirida demokratik g'oyalar bilan sug'orilgan ibodatxona afsonalariga xos qadimgi an'ana yotsa kerak. Bu turdag'i koreys tarjimayi hollari shaxsning nisbatan faoliigli bilan ajralib turadi.

**Novellistik tarjimayi hol** novellistik tuzilishga ega — unda boshlang'ich va pirovard vaziyatlar yo'q, u bir yoki bir nechta epizodlardan tarkib topadi. Bu epizodlar yagona syujet ipiga bog'lanishi ham, yaxlit syujetga ega bo'lmasligi ham mumkin.

Mazkur tarjimayi hollar og'zaki an'ana, Iryon ta'biri bilan aytganda, «ko'cha hikoyalari» bilan bog'lanadi. Ularda mahalliy yozma yoki og'zaki an'anaga havola, shuningdek materialning yangiligiga ishora ko'p uchraydi.

Shu bilan bir qatorda aralash tarjimayi hollar ham mavjud. Ularda bir sxemaning boshqa sxema bilan birikmasi, masalan, to'liq va afsonaviy-ertaknamo tarjimayi hollar birikmasiga duch kelish mumkin. Bunda mazkur sxemalarining biri asosiy, ikkinchisi – tobe bo'ladi.

Bob doirasida bir nechta tematik juft va guruuhlar farqlanadi. Masalan, birinchi va ikkinchi tarjimayi hollar – Vongchvan (VIII asr) va Payan (X asr)ning hayot yo'llari rahnamolarning haqiqiy tarjimayi hollarini aniqlash vazifasi bilan birlashtirilgan, chunki ularning tarjimayi hollari oldingi biograflar aybi bilan birlashtirib yuborilgan. Beshinchi va oltinchi tarjimayi hollar – Xesuk va Xegonning hayot yo'llari va o'n besh va o'n oltinchi tarjimayi hollar – Pexyon va Ponxening hayot yo'llari qahramonlar xulqavtorining o'xshashlik prinsipiiga ko'ra yagona sarlavhalar ostida birlashtirilgan. O'n birinchi va o'n ikkinchi tarjimayi hollar Chinpxyonning ikki tarjimayi holidan iborat: ularning biri Iryon tomonidan tuzilgan, ikkinchisi – toshdagi bitik va h.k.

Mavzu jihatidan o'n birinchi va o'n ikkinchi tarjimayi hollar bilan o'n to'rtinchi tarjimayi hol bog'lanadi, chunki unda muallif yana sutra mavzusiga murojaat etadi, ular muallifning ayrim tarjimayi hollardagi vazifasi bilan muayyan darajada bog'liq. Masalan, birinchi va ikkinchi – Vonchven va Pyan tarjimayi hollarida Iryon haqiqatni tiklash: ishonchga loyiq manbalar asosida yangi tarjimayi hollarni yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. O'n, o'n bir, o'n ikki va o'n to'rtinchi tarjimayi hollar sutralardan biri autentik ekanligini isbotlashga qaratiladi.

Tarjimai hollarni tuzishda Iryon turli – «kanonik» va «nokanonik» manbalardan foydalangan. «Kanonik» manbalarga, masalan, xitoycha biografik asarlar – *tanjon* (xitoycha «panchjuan»), xitoy tarixiy yodgorliklari, koreys rasmiy istoriografik asarlari, stelalardagi bitiklar kiradi. «Nokanonik» manbalarga, masalan, koreys tarjimayi hollari – *xyanjon* va koreys tilidagi ayrim yozma manbalar kiradi.

Kim Iryon «kanonik» manbalarga ko'proq ishonch bildiradi va ular yetarli bo'limgan yoki biron-bir sababga ko'ra shubhali bo'lib tuyulgan hollardagina «nokanonik» manbalarga murojaat etadi.

Ba'zan Iryon havola etishi mumkin bo'lgan birdan-bir manba og'zaki an'ana hisoblanadi. Bu yerda Iryon «ko'cha hikoyalari»ni ajratadi va ularga tanqidiy ko'z bilan qarashga chaqiradi. Ammo, ko'pincha Iryon o'zi foydalangan ma'lumotlar og'zaki manbalarning qaysi guruhiga kirishini belgilamaydi.

Muallif faqat og'zaki manbalarga yoki og'zaki va «nokanonik» manbalarga ega bo'lgan hollarda u afsonaviy-ertaknamo yoki bo'Imasa novellistik tarjimayi holni yaratgan. To'liq tarjimayi hol esa rasmiy manbalarga asoslangan. Buddaviy rahnamolarining tarjimayi hollari badiiy jihatdan turdosh emasligiga ishonch hosil qilish uchun tarjimayi hollardan bir necha misollar kifoyadir. Jumladan, to'liq tarjimayi hollar davlat mafkurasi konfutsiychilik ta'sirida yaratgan «xos xulq-atvor» haqidagi tasavvurlarga muvofiq bo'lgan insonning me'yoriy obrazini beradi. Shu nuqtayi nazardan biografik sxema va shaxs shakl-shamoyili konfutsiychilik an'anasiga muvofiq keladi. Ammo buning negizi asosan mahalliy madaniy – yozma va og'zaki an'analardan olingan.

Tarjimayi hollarning boshqa bir turi – afsonaviy-ertaknamo tarjimayi hollarda dunyoga alohida munosabat aks etadi. Ularda buddaviy va daosizm tarafdarlarning inson va uning dunyodagi o'rni haqidagi tasavvurlari o'z aksini topadi. Bu tasavvurlar adabiyotga XII–XIII asrlarda Koreya jamiyatidagi kayfiyatlarda yuz bergan burilish – daosizmga qiziqishning kuchayishi natijasida kirib kelgan bo'lsa kerak. Afsonaviy-ertaknamo tarjimayi hollarda ayni shu kayfiyatlarning adabiyotdagi in'ikosi sifatida insonning ikkinchi me'yoriy obrazi yaratiladi.

XII–XIII asrlar adabiyotining rasmiy munosabatlar doirasidan chetdagi insonga e'tibori, shuningdek ajabtovur voqealarga kuchli qiziqish keyinchalik *pxesol* adabiyoti va qisman *sosolning* rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Afsonaviy ertaknamo tarjimayi hollarda chetdan o'zlashtirilgan madaniy an'ana mahalliy an'ana bilan birikdi va afsonalar, rivoyatlar taklif qilgan badiiy me'yorlarga bo'ysundirildi.

Tarjimayi hollarning uchinchi tipi – novellistik tarjimayi hol insonni tasvirlash nuqtayi nazaridan afsonaviy-ertaknamo tarjimayi hollarga yaqinroq bo'lgan bo'lsa kerak.

Ammo Kim Busik ham, Kim Iryon ham koreys tilida emas, balki umummintaqaviy adabiy tilda ijod qilgan. Bu til Xitoyda ven'yan, Koreyada xanmun, Yaponiyada kambun, Vyetnamda xanvan deb atalgan. Buning zamirida qadimgi xitoy tili grammatisining me'yorlari yotuvchi til bo'lgan. Bu til so'zlashuv tili bo'Imagan, bu tilda faqat yozilgan. U aniq, obrazli bo'lgan, lekin mahalliy (masalan, koreys tilida) o'ziga xosliklar va nomlarni ifodalashga doim ham to'g'ri kelmagan. Bu til mahalliy shevaning, ayniqsa dialogning yoki xalq laparlarining o'ziga xos jihatlarini, ularning jozibadorligini ifodalashda ham jiddiy qiyinchiliklar tug'dirgan. Ayrim hollarda faqat ismning talaffuzini ifodalashga harakat qilinib, ular duch kelgan iyeroglis bilan yozilgan, ba'zi bir mualliflar iyeroglisflarni tanlashda ismning talaffuzini ham, etimologiyasini ham aks ettirishga harakat qilganlar.

XII–XIV asrlarda koreys adabiyotining yangi turi – *xanmundagi pxesol* yoki kichik nasr vujudga keladi va rivojlanadi. *Pxesol* nomi Xan sulolası davridagi xitoy adabiyotining *baysho* yoki *baychuan syaoshö* janri – «baychuanlar», ya'ni kichik amaldorlar adabiyoti bilan bog'lanadi. Mazkur amaldorlarga xalq kayfiyati haqida qironga ma'lumot berish uchun «ko'cha hikoyalari», «latifalar», xalq rivoyatlari, laparlarini yig'ish topshirilgan. Koreyada o'rta asrlarda asarlarni yig'ish, qayta ishslash va ularni to'qish bilan taniqli adiblar shug'ullanganlar. Ilk *pxesol* to'plamlari Li Innoning «Bekorchilikdan» (XII asr), Chxve Janing «Qiziqarli hikoyalari» (XIII asr), Li Gyuboning «Pechun hikoyalari» (XIII asr), Li Je Xyonning «Yogon pxesoli» (XIV asr) kitoblaridir. Bu to'plamlarda sarlavhasiz va bir-biridan ajratilmagan jajji hikoyalari jamlangan. *Pxesol* to'plamlari odatda hajman salmoqli bo'ladı: ular to'qqiz, ba'zan undan ortiq *kvonlar* (jildlar)dan tarkib topadi.

Pxesol to'plamlari yorqin tarixiy bo'yoq dorlikka ega. Biz yuqorida pxesol paydo bo'lgunga qadar Koreyada ba'zi bir folklor materiallarini o'zida mujassamlashtirgan zodagonlarga xos yagona nasr – tarixiy adabiyot (ya'ni, tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar) turi mayjudligi haqida aytib o'tdik. *Yasa*, ya'ni «norasmiy tarix» alohida shaxslarning asarlari bo'lib, aksariyat hollarda bu

shaxslar tarixiy voqealarni shaxsiy nuqtayi nazari, voqcalarga shaxsiy munosabatidan kelib chiqib talqin qilishgan. Natijada ba'zi tarixchilar davlat arboblariga bergan salbiy tavsifi uchun quvg'in qilinganlar. *Yasa* an'anaviy tarixshunoslik tamoyiliga amal qilinmasdan yozilar edi. Bunda bayonning izchilligiga va tarixiy materiallarni tanlash kabi shartlarga rioya qilinmasdi: unda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa zamonaviy masalalarga sezilarli darajada e'tibor qaratilar edi. *Yasada* muayyan tarixiy voqeа yoki haqiqiy tarixiy shaxs bilan doim bog'liq bo'limgan ko'plab folklor materiallari — rivoyat, hajviya, xalq novellalari, ertak, maqol-matallar ishlatalar edi. Shu sababli adabiyotning bu turini tarixnavislik bilan juda ham kam bog'liq bo'lganligi uchun pxesol ruhida («xush kayfiyatda») yozilgan «pxesa tarix» deb nomlashar edi.

Pxesol asarlarining aksariyat qismi tarixnavislik yo'nalishida vujudga kelgan bo'lib, butun taraqqiyot davri davomida (XVIII asr boshigacha) tarixiy voqealarni yoritish xususiyatini saqlab qolgan. Pxesolning muhim janrlaridan biri sifatida yuzaga kelgan ocherk bevosita tarixiy dalillar asosidagi badiiy tasvir taraqqiyotining hosilasi hisoblanadi.

An'anaga ko'ra, rasmiy tarixnavislik asarlarida aks ettirilgan mashhur insonlarning tarjimayi hollari pxesol ocherklarining timсоли bo'lган. Biroq pxesol mualliflari o'zlarining oldiga umuman boshqa maqsad, ya'ni rasmiy davlat nuqtayi nazaridan insonning tarixiy faoliyatini emas, balki uning xarakterining o'ziga xos xususiyatlarini, uning ijobjiy yoki salbiy sifatlarini ko'rsatish vazifasini qo'yganlar. Badiiy mavhumlashtirish san'atiga ega bo'limgan pxesol mualliflari faqatgina tayyor «hayotiy» materialni olganlar, xolos. Pxesolning maqola, axborot kabi turlari ham tarixiy materialdan kelib chiqqan.

Pxesol mualliflari bayon qilinayotgan vogelikning axborot xarakteriga ham, badiiy bo'yoqqa ham ega bo'lishi kerakligini maqsad qilganlar. Ular o'z faoliyatlarini turli xarakterdagi dalillarni, shu jumladan, adabiyot va folklor dalillarini aks ettirishdan boshlaganlar.

Jajji hikoyalar mazmuni juda rang-barangdir. Ularning orasida etnografik xususiyatga ega bo'lgan hikoyalar ham, taniqli sarkar-

dalar, shoirlar, rassomlar hayotidan olingen hikoyalar ham, u yoki bu she'r qanday yozilgani haqida hikoyalar ham, tabiat yoki qiziqarli voqealar tavsifi ham bor. Har bir jippi hikoya yaxlit va mustaqil, ba'zan syujetli voqealari — fabula jihatidan qolgan hikoyalar bilan bog'lanmaydi. Mualliflar ataylab shunday rang-barang asarlarni yonma-yon joylashtiradilar. Bu kitobxonni tasodiflylik va yangilik bilan hayratga solish imkoniyatini beradi.

*Pxesol* adabiyoti davrning umumi tendensiyalarini — insonga konfutsiychilik ko'zi bilan qarashni buddizm va daosizm nuqtayi nazaridan qayta ko'rishga intilishni aks ettiradi, zero bu yerda insonning rasmiy faoliyati yozuvchini qiziqtirmaydi. *Pxesol* qahramoni ko'pincha yo ajabtovor sarguzasht ishtirokchisi sifatida, yo u tabiat manzarasidan zavqlanib, she'r to'qiyotgan paytda tasvirlanadi.

Shunga qaramay, *pxesol* qahramoni tarixiy shaxs bo'lib qoladi, real voqealar tasvirlanadi. Inson obrazi avvalgidek ideal: insonni uning qilmishi tavsiflaydi; qilmish psixologiyasi hali mavjud emas.

Vogelikni tasvirlashning ayni shu prinsiplari peyzajda ham kuzatiladi, u ilk bor badiiy nasr e'tiborini tortadi. *Pxesol* adabiyotida peyzaj geografik xususiyat kasb etadi. Mualliflar odatda ular biron-bir konkret joyni tasvirlashlarini qayd etadilar. Adabiyot e'tiborini «ideal», shartli go'zal tabiatgina tortadi.

*Pxesol* adabiyotining paydo bo'lishi qiziqarli va yorqin voqealarga, syujetlilikka qiziqish paydo bo'lganidan, shuningdek yozuvchilarning badiiy tavsifga intilishidan dalolat beradi. Badiiy nasr tarixiy asardan ajraladi. *Pxesol* adabiyotining mashhurligiga qaramay, saroy a'yonlari davrasida unga «ko'ngilxushlik adabiyoti» sifatida qaraladi.

*Pxesol* asarlari syujetlariga manba bo'lib og'zaki hikoyalargina emas, balki «norasmiy tarixlar» ham xizmat qiladi. Shu sababli ularning aksariyatida tarixiy voqealar bayon etiladi va real tarixiy shaxslar ishtirok etadi, lekin, «norasmiy tarixlar»dan farqli o'laroq, ularga badiiy ishlov berilgan. *Pxesol* personajlari orasida taniqli amaldorlar, olimlar, yozuvchilargina emas, ashulachilar, hunarmandlar, savdogarlar, tabiblar, qirollar ham bor. *Pxesol*

tufayli kitobxon qarshisida jamiyat hayotining «norasmij» tomoni namoyon bo'ladi.

Pxesol mualliflari va rasmiy tarixshunoslarning oldida ikki xil maqsad qo'yilgan bo'lib, birlarini folklordagi syujet, badiiylik masalalari qiziqtirsa, ikkinchilarini tarixiy dalillar qiziqtirar edi. Har ikkalasi ham o'z vazifalariga muvofiq tarzda folklorga ishlov berar edilar: tarixchilar materialni ma'lum davriy chegaralarga qo'yib, yilnomaga kirtsalar, adabiyotchilar materialga badiiy-g'oyaviy ishlov berib, mazkur materialni adabiy asarga aylantirganlar.

Birinchi guruhg'a kiruvchi novellalarga a) jahon foiklorida ham keng tarqalgan haqiqiy xalq mavzulari (bitta qahramonga bag'ishlangan novella, hajviyalar turkumi); b) to'la shakllanmagan syujetga ega bo'lgan bir yoki ikki qahramon haqidagi qisqa hajviyalar turkumi; v) qahramonlari asosan oddiy xalq vakillaridan iborat turkum asarlar; g) hikoyalarda atoqli otlarning mavjud emasligi; d) o'ziga xos adabiy ibora va nutqiy birikmalar yo'qligi kabilar xosdir.

Novellalarning ikkinchi guruhi umuman boshqa ko'rinishga ega. Ularda: a) deyarli mashhur bo'lmasa-da, yetarlicha takomillashgan syujetlar; b) pxesol qahramoni ko'pincha ismi-sharifi aniq keltirilgan, yuqori sinfga tegishli tarixiy shaxs bo'lishi; v) ba'zan xitoy adabiy janrlarida yozilgan she'rlarning uchrashi; g) adabiy til va uslubiy xilma-xilliklar kuzatiladi. Shak-shubhasiz, so'nggi davr pxesol mualliflari folklor asarlari bilan shu tarzda ishlar ekanlar, ular bu asarlarni o'zları xohlagan tarzda talqin qilganlar, hattoki ularni qayta ishlab ham chiqqan edilar.

Masalan, Son Xyonning «Tentak kuyov», «Ikki aka-uka», «Rohiblarni ahmoq qilgan xizmatkorlar» novellalarini «Chin Bok taqdiri», «Talaba Chxe va shayton vasvasasi» kabi tarixiy novellalar bilan solishtiradigan bo'lsak, bular umuman turli hodisa ekanligi ma'lum bo'ladi. Xususan, Son Xyonning «Yonjoning bir shingil hikoyalari» to'plami deyarli bir kompozitsion tipdag'i, yagona qahramonlar hayoti va faoliyati tasvirini qamrab oluvchi novella-hajviyalardan tashkil topgan. «Chin Bok taqdiri», «Talaba Chxe va shayton vasvasasi» tarixiy asarlari esa ikkinchi guruhg'a kiruvchi novellalarning yorqin misolidir.

Folklor asarlarining qayta ishlanganligi turli mualliflarning bir syujetga qayta-qayta murojaat qilishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Muallif qahramonga nisbatan o'zining shaxsiy munosabatini ifoda etadigan, ijtimoiy hayotning u yoki bu voqealariga o'z fikrini bildiradigan epilog (xotima)da kirish qismidagiga o'xhash badiiy uslubni ham kuzatish mumkin. Bunday jarayonda D.S. Lixachyovning: «Yangi janrlar, asosan, folklor va adabiyotning tutashgan joyida paydo bo'ladi», degan fikri to'liq tasdiqlanadi<sup>1</sup>.

*Pxesol* adabiyotiga qarama-qarshi ravishda, XII—XIV asrlarda *xanmundagi* badiiy nasrda yangi janr — to'qib chiqarilgan tarjimayi hollar (yoki soxta tarjimayi hollar — *chon*) paydo bo'ladi. Ularning aksariyatida qahramonlar sifatida ruhlantirilgan hayvonlar, o'simliklar, buyumlar amal qiladi va kishilik jamiyatini uning xavfli nuqsonlari haqida ogohlantiradi. Ayrim soxta tarjimayi hollar tarkibida rasmiy tarixlar yotadi. Ular odatda saroy tarixchisi nomidan tuzilgan muallif izohi bilan birga keladi. Bunday allegoriyalarga Lim Chxunning «Pul tarixi» (XII asr), Li Gyuboning «Shirakayf donishmand tarixi» (mazkur soxta tarjimayi holni yozishga XI asr xitoy tarixchisi va shoiri Ouyan Syuning «Shirakayf qariya shiyponi» asari turtki bergan bo'lsa kerak) va Li Gokning «Bambuk xonim»u (XIV asr) kiradi. «Xizmatkor Mix»ga o'xhash boshqa soxta tarjimayi hollar tuzilishi buddaviylarning «norasmiy tarixlari»ni eslatadi. Mazkur asar muallifi — zohid Sigoyn. Bu koreys shoiri va yozuvchisi Li Jaxyon (1061—1125)ning taxallusi bo'lsa kerak.

Soxta tarjimayi hollarda ataylab badiiy to'qimaga qarab mo'ljal olish hollari kuzatiladi. Tarixiy va adabiy assotsiatsiyalar — qahramonlar va voqealarni tasvirlashning asosiy prinsipi. Chunonchi, «Pul tarixi»da pul tarixidan pand-nasihat berish maqsadlarida foydalanilgan. Mazkur maqsadni tarixchi tarjimayi holning oxiridagi qisqacha xulosasida aks ettirgan.

Ilk koreys she'riyati (XII asrgacha) xitoy tilida ijod qilgan shoirlarning ancha keng ro'yxatini saqlab qolgan. Ammo bu

<sup>1</sup> Лихачев Д.С. Развитие русской литературы X—XVII вв. — Л.: Наука, 1973. — С.57.

shoirlar haqida ma'lumotlar juda oz, ularning aksariyat she'rlari bizgacha yetib kelmagan, ularga doir bibliografik ma'lumotlar tanqis.

O'sha davrning eng yirik shoiri Chon Jisandir (vafoti 1135-y.). Uning ijodidan bizgacha bir nechta she'r yetib kelgan. Chon Jisan ijodi XII–XIV asrlarda koreys she'riyatida ustun ahamiyat kasb etgan daosizm ruhi bilan sug'orilgan. Chon Jisanning «Mast bo'lgach, Szyanamini orzu qilaman» she'ri tabiat va mayga bag'ishlangan. Uning eng mashhur asari – «Tedongan» («Tedon daryosi») ayriliq haqidagi she'rdir.

XII–XIV asrlar *xanmundagi* she'riyat koreys adabiyotida yetakchilik qilgan davrdir. O'qimishlik kishilar e'tibori unga qaratilgan. Taniqli korcys shoirlarining *xanmundagi* she'rlarini izlab topganlar va yozib olganlar.

Bu davr mualliflaridan biri Li Inno (1152–1230) shunday deb yozadi:

«Bizning o'lkani Sharq dengizi yuvib turadi va qadim zamonlardan uni «Boqiy o'lka» deb nomlaydilar. Bu yerda son-sanoqsiz mashhur insonlar tug'ilgan. Chxve Go Un va Pak In Nyan kabi mashhur olim-u shoirlar esa, hatto Xitoyda ham madh etilgan... Agar biz ularning asarlarini kelajak avlodga yozib qoldirmasak, shak-shubhasiz, ularning hammasi unutiladi. Shuning uchun ham men mamlakatimiz va xorijda keng ko'lamda mashhur bo'lgan eng yaxshi shoirlarni tanlab oldim va (ularning asarlaridan) uch kvonli<sup>1</sup> kitob tuzdim, uni «Yolg'izlikdagi hikoyalar» deb atadim».

Shunga o'xshash fikrni boshqa mualliflar, masalan taniqli shoir Chxve Ja (1188–1260) ham ilgari suradi.

«Bu faqat yurakni yozish maqsadida to'plangan tarqoq she'riy va nasriy asarlardir. Shuning uchun ham men kitobning so'ngida kim ilmiy mashg'ulotlardan charchagan bo'lsa, dam olishi, ko'ngil yozishi uchun imkoniyat berish maqsadida bir nechta g'aroyib va ajoyib hikoyalarni joylashtirib chiqdim».

<sup>1</sup> Kvon – qism.

*Xanmundagi* milliy she'riyat milliy g'urur manbai sifatida idrok etiladi, zero u mamlakat dong'ini butun dunyoga taratadi, davlatning obro'sini ko'p jihatdan belgilaydi. *Xanmundagi* she'riyatga bunday munosabat ko'pgina omillar, shu jumladan XIII asrdagi mo'g'ullar istilosiga bilan bog'liq bo'lган vatanparvarlik ruhidagi umumiy ko'tarinki kayfiyat bilan belgilanadi.

Bu davrda Koryo davlati zaiflasha boshlagan. Markaziy hokimiyat mavqeyining pasayishi Koreya jamiyatini kayfiyatida tub burilish yasagan. Ko'pgina o'qimishli kishilar konfutsiychilikning kuchli davlatchilik bilan bog'liq ideallariga bo'lган ishonchni yo'qtganlar, buddizm va daosizmni qo'llab-quvvatlaganlar, davlat xizmatidan tabiat qo'yniga ketish, jamiyatdan qochishni afzal ko'rganlar. Shu tariqa daosizm yo'nalihsidagi koreys she'riyati ravnaqi uchun zamin yaratilgan. She'riyatda butun bir yo'nalihs — «Bambukzorlar adabiyoti» vujudga kelgan. XIII asrda Koreyada shunday bir nechta she'riy uyushmalar paydo bo'lган. Ularning eng mashhuri «Dengizdan sharqdagi mamlakatdan yetti donishmand» hisoblangan. U koreys she'riyatida sezilarli rol o'ynagan. Unga Lim Chxun, O Dokchon, Xvan Boxvan, Cho Txon, Li Damji, Xam Sun va Li Inno kabi shoirlar kirgan. Li Inno Koreyada mazkur yo'nalihsning eng yirik vakili sifatida tanilgan. Xitoy shoiri Tao Yunmin (365–427)ning «Forsiy manba» asari motivlari asosida yozilgan «Chirisan tog'laridagi turnalar vohasi» asari «Bambukzorlar adabiyoti» uchun dasturilamal hisoblanadi.

Li Inno musibatlar dunyosini rad etadi va odamlar uyg'un, osoyishta hayot kechiradigan jannatmonand mamlakatni izlaydi.

O'sha davr koreys mualliflari qo'shni mamlakatlarning mashhur shoirlari asarlarini, ayniqsa xitoy shoirlari Su Shi (1036–1101) va Ouyan Syu (1007–1072) ijodi bilan yaxshi tanish bo'lishgan. Tao Yunmin ijodi o'sha davrda sun talqinida, Su Shining «Fors manbaiga taqlid» nuqtayi nazaridan idrok etilgan. Turnalar vohasi, utopik baxtli joylarni Li Inno go'yo amalda mavjuddek tushungan.

Li Inno ota-onadan erta yetim qoladi va rohib qarindoshi oilasida tarbiyalanadi. Mashhur dvoryanlar urug'i avlodni bo'lган Li Inno

harbiylar hokimiyatini qo'llab-quvvatlamaydi. Shu sababli 1170-yil hokimiyat harbiylar qo'liga o'tgach, u rohiblikni bo'yniga oladi. Ammo 1186-yilda u dunyoviy hayotga qaytadi, amal uchun imtihon topshiradi va davlat xizmatida bo'lgan o'n yil mobaynida yuksak martabaga erishadi. Bu davrda u «erkin shoirlar» O Sechje, Lim Chxun, Xvan Boxvan bilan yaqin munosabat o'rnatadi va xizmatdan bo'sh vaqtini she'riyat, ular bilan ulfatchilikka bag'ishlaydi. Ular «tabiiy» turmush tarzi, tabiat va mayni kuylashi bilan ajralib turgan xitoy shoiri Tao Yuan-min (365–427)ga ergashganlar, u kabi dunyo xavf-xatarlardan qochib yashirinish mumkin bo'lgan joyni topishni orzu qilganlar.

Li Inno «Chirisan tog'laridagi turnalar vohasi» badiasini yozadi va baxtiyor mamlakatni izlaydi. Bunday mamlakatni shoir topmaydi. U «badiiy so'z olami»dan najot izlaydi, she'riyat va nasrda ijod qiladi. Afsuski, uning ko'pgina she'rlari saqlanib qolmagan, bizgacha yetib kelganlari esa asosan tabiat va mayga bag'ishlangan. Li Inno go'zal tabiat qo'ynida g'am-tashvishsiz hayot kechirishni orzu qiladi. O'zining bu she'rida u tabiat, uning bo'yoqlari va ohanglarini xavf-xatarga to'la odamlar dunyosiga qarshi qo'yadi.

Prozaik sifatida Li Inno *pxesol* janrida yozilgan «Bekorchilikdan» asari bilan mashhur. Uch kvondan iborat bo'lgan bu asar muallifning o'limidan so'ng 1260-yilda chop etilgan. To'plamga turli ma'lumotlar: Sillaning qadimgi poytaxti – Kyonchju odatlari, Sogyon atrofi, Koryo poytaxti – Kegyon saroylari va ibodatxonalarini tavsisi kiritilgan. Bu yerda rivoyatlar, g'aroyib voqealar haqida hikoyalar, ya'ni folklor qayd etilgan. Bu to'plamda ayniqsa she'rlarga keng o'rinn berilgan. Muallif o'tmish shoirlari va zamondoshlarning, o'z do'stlarining asarlarini to'plagan, shuningdek o'z she'rlarini kiritgan.

Bu davrda she'riyatda hayotga faolroq munosabatni aks ettirgan boshqa bir yo'nalish ham rivojlanadi. Uni fosh qiluvchi she'riyat deb nomlash mumkin. Mazkur tanqidiy yondashuv zamirida konfutsiychilikning podsho va har qanday amaldorning o'z vazifasiga muvoofiqligi haqidagi tasavvurlari yotadi.

Shoirlar vogelikni -- zolim podsho va uquvsiz amaldorlarni tanqid tig'i ostiga olar ekanlar, ba'zan o'zлari yashayotgan davr

jamiyatiga Koreya tarixidagi «oltin davr»ni, aniqroq aytganda, Koreya podsholiklarining asoschilari davlat ishlarini oqillik bilan, qadimda ilgari surilgan «boshqaruv tamoyillari»ga muvofiq bajargan. Shu bois fitnalar bo‘laman, amaldorlar o‘z vazifasini sidqidildan ado etgan, xalq tinch mehnat qilgan va farovon yashagan davrlarga qarshi qo‘yanlar.

Bu yo‘nalishning eng yirik vakili Li Gyubo (1168–1241)dir. U Pegun Kosa taxallusi bilan ijod qilgan. U Koryo davrining asarlari deyarli to‘liq saqlanib qolgan birdan bir yozuvchisi bo‘lsa kerak. Li Gyubo she‘r va nasr ustasi sifatida nom qozongan. Koreys adabiyotida u yangi janrlar va yangi mavzularni birinchi bo‘lib o‘zlashtirgan, an‘anaviy she‘riy mavzularning o‘ziga xos sharhlovchisi bo‘lgan. Shoир shaxsiyatining xususiyatlari uning ijodida ham namoyon bo‘ladi. Ammo mashhur amaldorlar uchun tuzilgan odatdagi tarjimayi hollarda asosan insonning davlat xizmatidagi ishlari haqida ma’lumot bergen. Adabiy faoliyat haqida qisqacha yozilgan, odatda, asosiy asarlar ro‘yxatiga keltirilgan. Afsuski, adibning yozilish sanasi ko‘rsatilgan asarlari soni juda oz va shoир ijodiga u yoki bu davrda qanday mavzular va kayfiyatlar xos bo‘lganini aniqlashning iloji yo‘q.

Li Gyubo avlodining ko‘pgina vakillari o‘qimishli kishilar tabaqasi – *munsinga* mansub bo‘lgan, ulardan mamlakatni boshqargan davlat amaldorlari yetishib chiqqan. Uning oilasi «harbiylar» to‘ntarishidan so‘ng surgun qilinganlar ro‘yxatiga tushmagan, otasi poytaxtda xizmatni davom ettirgan, lekin o‘qimishli kishilar tabaqasiga xos bo‘lgan «harbiylar» hokimiyatiga qarshilik kayfiyati Li Gyuboni ham chetlab o‘tmagan. O‘smirlik chog‘ida u «Yetti donishmand» guruhining zohid-shoirlari bilan aloqada bo‘lgan va hatto «Uch mayl ustasi» (*kim udi*, she‘r va may nazarda tutiladi) degan taxallusni olgani tasodifiy bir hol emas.

«Tonmyon-van» dostonida Li Gyubo Koreyaning qadimgi tarixiga murojaat etadi, bu yerda ideal podshoni topishga harakat qiladi. Doston qadimgi koreys davlati Koguryo asoschisining hayot yo‘liga bag‘ishlangan. «Tyanbaoning podsholik yillarini madh etuvchi tarixiy mavzudagi she‘rlar» (43 she‘r)da Li Gyubo jamiyatdagi ayanchli ahvol haqida an‘anaviy uslubda so‘z yuritadi.

Buning sababini u saroy yuritayotgan siyosat davlatni boshqarish prinsiplariga muvofiq emasligida ko'radi. Vogelikka nisbatan mazkur tanqidiy yondashuv unga xalq boshiga tushayotgan musibatlar haqida aniq tasavvur hosil qilish, misli ko'rilmagan fosh qiluvchi kuchga ega bo'lgan she'rlar yaratish imkoniyatini bergen.

Li Gyubo o'zidan ulkan she'riy meros qoldirgan. U xitoy venyan tilida she'rlar yozgan, o'z ijodida xitoy she'riyati janrlari, obrazlar tizimi va an'anaviy mavzularidan foydalangan.

Li Gyuboning ko'pgina she'rlari dehqonlarning og'ir hayotiga, ularning sillani quritadigan mehnatiga bag'ishlangan. Dehqonning hayoti juda og'ir: tabiat odatdag'i tartibni buzadi, yomg'ir va qor keraksiz vaqtida yog'adi; amaldorlar soliqlar va o'lponlar bilan dehqonlarni xonavayron qiladi. Dehqonning mehnati hisobiga yashaydiganlarning boyligi ortadi, ular faqat o'z huzurini o'ylaydi, ular davlatni ushlab turgan dehqon mehnatini hurmat qilmaydi.

«Bevaning shikoyatlari» she'rida yetim-yesirlar va notavonlar mahrumliklar va azob-uqubatlarga duchor bo'lishsa, «Yo'lda tashlab ketilgan go'dak» she'rida kishilar o'tasidagi eng muqaddas munosabatlar buzilganligi haqida yozadi.

Shoir davlat, vatan taqdiri bilan yashaydi, o'zining «To'q-qizinchi qamarning oltinchi kunida» she'rida mo'g'ullar istilosи va mamlakat xonavayron qilingani haqida alam va qahr bilan yozadi.

Li Gyubo ijodi sermavzudir. U Koreya tabiatining go'zalliklarini nafis poetik shaklda tasvirlaydi. Shoirning may va *komungo* (milliy cholg'u asbobi)ga bag'ishlangan she'rlari ham anchagina. Uning sevgi lirikasi asrlar osha yashab kelmoqda. Li Gyubo *akpu* (*yuyefu*) janrida muhabbat haqida she'rlar yozgan Koreyadagi dastlabki mualliflardan biridir.

X-XII asrlar ona tilidagi koreys she'riyati deyarli saqlanib qolmagan. Bizgacha *iduda* yozilgan *xyanga* shaklidagi bitta she'rgina yetib kelgan. Konfutsiychilik an'anasi ruhidagi «Ikki sarkarda haqida qayg'u checkaman» deb nomlangan bu she'rda jangda Koryo sulolasining asoschisi — Van Gonning hayotini asrab qolgan ikki

sodiq tabaa madh etiladi. Bu asar muallifi podsho Yojon (1106–1122) bo'lsa kerak, degan taxminlar mavjud. Shu bilan birga u «Kakku» deb nomlangan yana bir qo'shiq muallifi hamdir.

Ammo bu mazkur davrda *xyanga* yo'q bo'lib ketgan degan ma'noni anglatmaydi. Holbuki, koreys adabiyotshunosligida bunday nuqtayi nazar mavjud va u «Qo'shimchalar»da berilgan *xyangalarning sanalariga* bo'lgan ishonchga asoslanadi.

Hozirgi vaqtida bu sanalarning ayrimlari to'g'riligiga shubha qilish uchun asoslар bor. *Xyangalar* bu davrda ham yaratilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. *Xyangalar* «Qo'shimchalar»da tarjimasiz berilgani ular jonli an'ana hisoblangani va kitobxonlar ularni tushunganidan dalolat beradi.

Ammo XII–XIV asrlarda jamoatchilik diqqat markazidan *xanmundagi* she'riyatgina emas, balki koreys tilidagi milliy she'riyat ham o'rın olgan. Unda milliy an'anining jonlanishi kuzatiladi. U yangi she'r turi — *Kayo* (yoki «*Koryo kayo*» — «Koryo qo'shiqlari») vujudga kelishiga asos bo'lgan. Ammo *Koryo kayo* qo'shiqlarining aksariyati bizgacha yetib kelmagan: oltmishta yaqin she'rlarning nomlari ma'lum, saqlanib qolgan matnlar esa yigirmatadan oshmaydi. *Koryo qo'shiqlari* Koryo sulolasi davrida koreys tilida yozilgan turli tipdag'i she'riy asarlarni birlashtiradi. Matnlar *iduda* yozilib, xitoy tiliga o'girilgan va og'izdan og'izga o'tib kelgan. *Koryo kayo* haqida ma'lumotlar «Koryo sulolasi tarixi» yodgorligida, «Musiqa haqidagi risolalar» bo'limida berilgan. Qo'shiqlarning xitoychaga tarjimasini shoir Li Chexyo bajargan. U o'n bitta qo'shiqni xitoy tiliga o'girgan va ularni «Kichik akpu» to'plamiga kiritgan.

*Xyangadan* farqli o'laroq, *kayo* dunyoviy asarlardan iborat. Saqlanib qolgan *kayolar* shakl va mavzu jihatidan rang-barangdir. Ularning orasida XII asr muallifi Chon So yozgan deb taxmin qilinuvchi «Chon Gvajon qo'shig'i» bor. Unda quvg'inga uchrangan shoir o'zining podshoga sadoqati to'g'risidagi so'z yuritadi.

Qo'shiq *xyanga* an'anasisida yozilgan bo'lib, bunda she'rning mazmuni oxirgi misrada ayon bo'ladi: shoirning o'limidan keyin ham uning ruhi podshoga xizmat qiladi. Shu narsa diqqatga

sazovorki, Chon So qo'shig'ida kakku qushning xitoycha poetik obrazidan foydalaniłgan. Bu kakku tuhmatga uchrab surgun qilingan va begona yurtlarda o'lib ketgan. Ma'lumki, *xyangada* xitoycha poetik obrazlar, odatda, mavjud emas.

*Kayoda* voqelikka tanqidiy munosabat *xanmundagi* she'rlar va tarixiy asarlardagi kabi usulda beriladi. Chunonchi, «Ho'kiz ovozi» *kayosida* davlat uchun og'ir davrda boshqaruv ishlarini tashlab qo'ygan van tanqid qilinadi; «Sarixva» *kayosida* muallif tamagir amaldorlar ustidan kuladi.

Koreys tilidagi milliy she'riyatning saqlanib qolgan namunalari orasida muhabbat mavzusidagi lirik she'rlar anchagini. *Kayolar* orasida qayg'uli va dramatik asarlarga ham duch kelish mumkin.

Sevgi haqida quvnoq, hazil *kayolar* ham mavjud bo'lib, ularning an'analari ancha keyin, XVII–XVIII asrlar shahar she'riyatida rivojlangan.

*Kayoning* folklor bilan uyg'un aloqasini uning kuylari ham tasdiqlaydi. *Kayo* she'rining tili va tuzilishi koreys she'riyatining uzun shaklidan iborat (*Changa* – so'zma-so'z tarjimada «uzun qo'shiq»).

Bu davrda individual lirika ham rivojlangan. Bunga noma'lum muallifning «Yashil tog'larda yashayman» she'ri misol bo'ladi. She'r xalq qo'shig'i shaklida yozilgan, unda «tabiat qo'yniga ketish» an'anaviy poetik mavzusi o'ziga xos tarzda ishlab chiqilgan.

Koreyscha an'anada hosildorlikni rag'batlantirish mavsumiy marosimlari muhim o'rin egallagan. Qadimda so'z sehrli xossalarga ega deb hisoblashgani bois, marosim qo'shiqlarining matnlarida yaratuvchilikka ishoralar mavjud – so'z bilan «hayotni yaratish» hosildorlikni amalda rag'batlantirishga qodir. An'anaviy tasavvurlarga ko'ra «hayotning yaratilishi»ni tasvirlovchi poetik so'z tartibsizlikka barham berishi va mamlakatda buzilgan tartibni o'rnatishi lozim. Bu davrda yovuz kuchlarni jilovlash va uyg'unlikni barqaror etishga qodir bo'lgan Chxoyon ayniqsa mashhur bo'lgani tasodifiy bir hol emas. Mashhur shoirlar unga bag'ishlab she'r yozganlar, bahor oylarida saroyda niqoblar teatrining «Chxoyon» marosim tomoshasi qo'yilgan.

Koryo adabiyotiga Koreya davlatlari tashkil topgan davrda vujudga kelgan an'analalar xosdir. Mazkur an'analardan biri koreys

tilidagi adabiyotni shakllantirgan mahalliy madaniyat, afsonalar va odatlar bilan bog'liq, ikkinchisi Xitoydan yozuv hamda she'riy va nasriy janrlar tizimi bilan birga kelgan. Koryo sulolasi davrida xitoy tilidagi nasr va she'riyat faol rivojlangan. Koryoning o'z badiiy so'z ustalari — tarixchilari, rasmiy va norasmiy asarlar mualliflari, shoirlari yetishib chiqqan, ular xitoy she'riy janrlari doirasida o'z mamlakatini kuylagan. Xitoy tilida yozilgan she'riy va nasriy asarlarda milliy madaniyatning mustaqil ahamiyati to'g'risidagi fikr targ'ib qilingan. Koryo sulolasi davrining oxirida xalq qo'shiqlarini yig'ish, xitoy tiliga o'girish yoki *idu* tilida yozish harakati rivojlangan. Xalq ijodi xitoycha andozalarga muvofiq yozilgan asarlarga qarshi qo'yilmagan. Aksincha, o'sha davr yozuvchilari o'z milliy adabiyoti namunalari xitoy madaniyatida yaratilgan asariardan aslo kam emasligini namoyish etishga harakat qilganlar. Bu davrda, ayniqsa, sulola hukmronlik davrining oxirgi ikki asrida ikki sivilizatsiyaning teng ahamiyati haqidagi fikr koreys madaniyatni uchun, ayniqsa, muhim bo'lган.

### **III. CHOSON (LI) SULOLASI ADABIYOTI**

*(XV–XIX asrlar)*

XIV asr oxirida saroy to'ntarishi natijasida mamlakatda Li sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Bu sulola 1392-yildan 1910-yilgacha hukmronlik qildi. Davlat Tangun<sup>1</sup> asos solgan Qadimgi Choson sharafiga «Choson» deb nomlanib, «Tonggi tozalik mamlakati» degan ma'noni anglatadi. Li sulolasi Koreyada 1392–1910-yillar davomida hukmronlik qildi. Davlat asoschisi Li Song Ge Koreyada Li sulolasi hukmronligini o'rnatgach, davlat dini sisatida konfutsiychilik qabul qilindi. Chunki konfutsiychilik ta'limoti orqali xalqni boshqarish qulay bo'lgan. Bu esa oddiy xalqni yashayotgan sharoitidan qoniqib, oliy tabaqaga bo'ysunishga majbur qilgan. Mashhur konfutsiychi olimlar Li I va Li Xvan Koreyada falsafa va diniy ta'limotlarning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishgan. Ularning faoliyati Koreyadan tashqari Yaponiyaga ham yetib borgan. XVI asr o'talarida konfutsiylikning naturfalsafiy ta'limoti sonníxak<sup>2</sup> taraqqiy eta boshlagan. Ammo sonníxak konsepsiyasining chuqur o'rganilishi faqat siyosiy munozaralardan nariga o'tmagan. Matnlarning murakkabligi va mavhumligi oddiy insonlar uchun tushunarsiz bo'lib, o'qishga qiyinchilik tug'dirgan.

Tashqi sohada Choson hududini kengaytirish siyosati olib borilgan. Bu davrda Choson Xitoy Minlari bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Har yili Minlar bilan rasmiy va norasmiy elchilik aloqalari olib borilgan, sovg'alar jo'natilgan, hatto Xitoydan ham sovg'alar kelgan. Xitoy va Koreya o'tasida madaniy va savdo aloqalari kuchayib borgan. Diplomatik aloqalar Choson

<sup>1</sup> Tangun – ilk Koreys davlatchiligi asoschisi.

<sup>2</sup> Sonníxak – tabiat bilan hamnafas bo'lish, u bilan bir butunlik hosil qilish haqidagi mavhum ta'limot.

davlati hokimiyatini va uning xalqaro maydondagi tutgan o'rnini belgilagan. Choson o'z hududini shimolga qarab kengaytira boshladi hamda mamlakatda tinchlikni mustahkamlash maqsadida Szin davlati bilan faol diplomatik aloqalarni olib borgan. Shu bilan birga, Choson o'zining harbiy-dengiz kuchlarini mustahkamlab borgan. Harbiy kemalar qurildi, qaroqchilar hujumini qaytarish maqsadida poroxli olov sochadigan quollar ishlab chiqqargan.

XVI asr boshida boshqaruvchi sinf bo'lgan yanbanlar orasida tartibsizliklar yuzaga kelib, mamlakatning mudofaa tizimi inqiroz yoqasiga kelib qolgan, Sharqiy Osiyoda xalqaro muhit o'zgarishlar bo'sag'asida turgan edi. Xitoyda jurchen qabilalari kuchaya borgan. Yaponiyada esa Toyotomi Xidayosi mamlakatda syogunlikka barham berib, kuchli qirollik tashkil etgan. Toyotomi o'z chegarasini Choson hisobiga kengaytirib, uni mintaqa ichidagi uzoq harbiy yurishlar paytida asosiy harbiy bazaga aylantirish maqsadida bo'lgan.

Armiyani g'arbdan keltirilgan pilta quollar bilan qurollantirib, puxtalik bilan bosqinchilik yurishiga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborilgan. Xidayosi Xitoy minlaridan uning armiyasini o'tkazib yuborishni so'rab «iltimos» bilan murojaat etdi. 1592-yil<sup>1</sup> aprelda ikki yuz ming kishilik yapon armiyasi Koreyaning qirg'oq bo'yи hududlariga bostirib keldi va shu tariqa Imjin urushi nomi bilan mashhur urush boshlanib ketdi.

Choson katta harbiy tajribaga ega bo'lishiga qaramay, yapon bosqinchilaridan birin-ketin mag'lubiyatga uchray boshladi, Choson armiyasi zamонавиу quollar bilan qurollangan Yaponiya oldida ojiz edi. Yapon harbiy bo'linmalari dastlab Pusanga hujum qilib, tez orada Pusan portini zabt etishdi. Qirol Sonjo tahlikaga tushib, poytaxtdan qochib ketdi va Gvanxedo oroliga borib yashirindi. Pusan portida yigirma kun qolgach, yapon armiyasi Pxenyandan Xamgyondoga yo'l oldi. Quruqlikdagi mag'lubiyatga qaramay, Choson armiyasi dengizda dushmanga qaqqhatqich zarba

<sup>1</sup> 1592-yil quyosh-oy kalendari bo'yicha imjin yili bo'ladi. Urush nomi yil nomiga atalgan.

berdi. Cholladodagi harbiy-dengiz kuchlariga boshchilik qilayotgan general Li Sun Shin Okpxoda katta toshbaqasimon zirhli harbiy kema-kobukso<sup>1</sup> yordamida dengizning turli joylarida ilk g‘alabani qo‘lga kiritdi. Dengizda erishgan g‘alabasi orqali Li Sun Shin tarixda vatanparvarlik ramzi sifatida qoldi. Bu paytda mahalliy konfutsiylik va buddaviylik rohiblaridan iborat iybyon nomli vatanparvarlar guruhi tuzilib yurt himoyasiga otlanishdi. Iybyon vatanparvarlar guruhi o‘z hududini yaxshi bilganligi qo‘l kelib, yapon armiyasi ustidan ham g‘alabalarga erishdi. Qirol hokimiyati esa mamlakatni himoya qilolmasligiga ko‘zi yetib, Xitoyning Min sulolasidan yordam kuchi jo‘natishini so‘radi. Xitoy Minlaridan ham madad kuchlari yetib keldi. Natijada yapon armiyasi Pxenyanga chekinib, janubga qarab harakat qilishni boshladi. Ko‘p o‘tmasdan yapon armiyasi Kyonsando qirg‘og‘ida sulh tuzishni so‘rab murojaat qildi. Ammo mazkur sulhdan uch yil o‘tib, 1597-yilda yaponlar Choson hududiga yana bostirib kirdi. Choson va Min sulolasining birlashgan qo‘shini yapon armiyasiga qaqshatqich zarba berdi. Li Sun Shin Myoryanda yapon floti ustidan g‘alabaga erishdi. 1598-yil Xidayosi o‘limidan so‘ng yapon kemalari Koreya qirg‘oqlarini tark etdi. Yetti yillik Imjin urushi shu bilan yakun topdi. Bu urush Koreya tarixidagi eng katta urush hisoblanadi. Bu urushda Choson juda ko‘p talafot ko‘rdi. Ko‘plab milliy yodgorliklar, ibodatxonalar vayron etildi. San‘at asarlari, qimmatbaho kitoblar mamlakatdan olib chiqib ketildi. Qishloq xo‘jaligi ham orqaga ketdi: vayron bo‘lgan hududlar hisobiga ekin maydonlarining uchdan bir qismigina dehqonchilik uchun yaroqli holda qolgan edi. Aholi soni ham halok bo‘lganlar va asirga tushganlar hisobiga keskin kamayib ketdi.

Imjin urushidagi mag‘lubiyatdan so‘ng Yaponiya bir necha bor Choson hukumatiga elchilar jo‘natdi. Bu elchilik aloqaları Yaponiya bilan munosabatlarni tiklashda katta xizmat ko‘rsatdi.

Imjin urushidan so‘ng hokimiyat tepasiga qiroq Kvon Xegun (1608–1623) keldi, u mamlakatda kuchli tartibni joriy qilishga

<sup>1</sup> Kobukson – toshbaqa-kema, shakli toshbaqani eslatuvchi kema.

kirishdi. Xalqni va yarlarni o'z nazorati ostiga oldi hamda davlat byudjetini oshirish, urushda talafot ko'rgan qal'alarни tuzatish va mamlakat mudofaasiga jiddiy e'tibor qila boshladi.

1618-yilda Manjuriyada Szin sulolasi o'z davlatini tuzdi. Keyin esa Xitoyning Min imperiyasiga qarshi hujum qilib, o'z oldiga Xitoyni egallashni maqsad qilib qo'ydi. Min imperiyasi Chosondan bo'lajak urushda ittifoqdosh bo'lishini so'radi. Qirol Choson tomonidan aslahada madad berishi mumkinligini, ammo urushda ishtirok etmasligini bildirdi. Ammo qirolning qaroridan Choson-dagi ayrim amaldorlar ham norozi bo'lishdi.

Kvan Xegun 1623-yilda saroy fitnasi oqibatida taxtdan ag'darildi va uning o'mniga qirol Injo (1623–1649) taxtni egalladi. G'arbiy firqa hokimiyat tepasiga kelib, Min sulolasini qo'llab-quvvatlay boshladi. Oqibatda esa Manjurlar Chosonga ham hujum boshlab, Xvanxedo viloyatigacha kirib kelishdi. Keyinchalik dushman bo'lmaslik sharti bilan Manjurlar Chosonni tark etishdi.

Harbiy jihatdan kuchaygan Szin o'z nomini Sin<sup>1</sup> davlati deya o'zgartirdi. Chosonga elchi yuborib, o'zaro qarindoshlik munosabatlarini o'matishni va Min imperiyasiga qarshi kurashda ittifoq bo'lishni taklif qildi. Ammo Choson qiroli bu taklifni rad etgach, 1636-yil yuz mingga yaqin Sin sulolasi askarlari Chosonga bostirib kirdi va koreys-manjur urushi boshlandi. Sin sulolasi poytaxt Hanyanni egallagach, qirol Injo Namhan qal'asiga yashirindi. Ammo tez orada qo'lga tushib, Sin davlatiga tobe vassal ekantilagini tan oladi.

XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib esa mamlakat siyosiy-ijtimoiy hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi, Chosonda yangi islohotlar amalga oshirildi. Bunday tub o'zgarishlarning barchasi qirol Sukjong davriga to'g'ri keladi. Bu paytga kelib tashqi xavf kuchli bo'lmasa-da, davlatda o'zaro ichki nizolar avjiga chiqqan edi. Mamlakatda asosiy kuch hisoblangan G'arbiy va Janubiy firqa o'rtasida taxt vorisini tayyorlash borasida ko'p tortishuvlar yuzaga keldi. Qirol Sukjong uzoqni ko'ra biladigan, dono qirol bo'lgan. Ammo uning davrida Chosonda firqlarning o'zaro urushishlari

<sup>1</sup> Sin – toza, asl ma'nosini bildiradi.

chuqur ildiz otib, o'zaro kelishmovchiliklar natijasida G'arbiy firqaning o'zi ikki: «qariyalar» va «yoshlar» kabi guruhlarga bo'linib ketdi. Qirol Sukjong esa davlat hokimiyatini kuchaytirish maqsadida kuchli firqani tez-tez boshqasiga almashtirib turgan. Qirollik hokimiyatiga xavf solayotgan amaldorlarni ularning dushmanlari orqali mag'lub etdi va o'ziga yordam bergan firqaga siyosiy hokimiyatni berdi. O'ziga yordam bergan amaldorlar qiroq hukumatiga xavf solganda esa ularni ham ayni shu yo'l bilan bartaraf etdi. U o'z hukmdorlik davrida to'rt marta hukumat o'zgarishini amalga oshirdi. Qirolning har bir amalga oshirgan hukumat o'zgartirishi «hukumatni burish» deb atalgan. Yutqizgan partiya butunlay siyosatdan chiqib ketgan yoki uning vakillari qatl etilgan. Lekin saroy ichidagi bunday tartibsizlik aholining turmushiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan. Shu boisdan ham qiroq Sukjong davri Choson tarixidagi eng rivojlangan davrlardan biri hisoblanadi.

Qirol Sukjong 1680-yilda qiroq hokimiyatiga xavf solayotgan Janubiy firqa yetakchisi Huh Jeokni davlatga xoinlikda ayblab qatl ettirdi hamda ilk o'zgarishni amalga oshiradi. Ushbu hodisa tarixda «kyongshinhvanguk» deb nom olgan.

Kyongshinhvangukdan so'ng davlatda hokimiyatga ega bo'lib qolgan G'arbiy firqa vakillarining Song Siyol boshchiligidagi «qariyalar» guruhi to'qqiz yil o'tib, qirolicha Inxyonning taxtdan tushirilishi bilan yakunlanadi. 1689-yili kanizak Jangning farzandi taxt vorisi etib tayinlanishi masalasi ko'plab noroziliklarga sabab bo'ldi. Qirolicha Inxyonning yangi tug'ilgan shahzodani o'g'il qilib olishdan bosh tortganligi sababli qirolicha saroydan badarg'a qilinadi va uni qo'llab turgan G'arbiy firqa a'zolari qatl ettiriladi. Bu hodisa tarixda «kisahvanguk» deya nom olgan.

Qirolicha Inxyonning o'rniغا kanizak Jang qirolicha etib tayinlanadi va amaldorlik vazifalarini Janubiy firqa vakillari egallaydi. Ammo keyinchalik 1694-yilga kelib, xatosini tushungan qiroq taxtdan ayrılgan qirolicha Inxyonni saroya qaytarib olib keladi va Jang xonimni qayta kanizak darajasiga tushiradi. Janubiy firqaning kuchidan xavfsiragan qiroq G'arbiy firqaga hokimiyat kuchini

gaytarib beradi va Janubiy firqa a'zolari qatl etiladi. Shu voqeadan so'ng Janubiy firqa hech qachon o'zini tiklab ololmagan. Bu hodisa esa «gapsulhvanguk» nomi bilan tarixda qolgan.

Qirol Sukjong soliq tizimida ham islohotlar amalga oshirgan va koreys tangasi munni muomalaga kiritgan. Adolatti qirol sifatida o'rta tabaqo vakillari va kanizaklarning farzandlariga ham viloyatlarda davlat lavozimlarida ishlashlariga ruxsat bergan. Uning davrida qishloq xo'jaligi sohasida ham bir qancha muvaffaqqiyatlarga erishilgan. Shu boisdan Qirol Sukjong Koreya tarixida chuqur iz qoldirgan qirollardan hisoblanadi.

Chosondagi ijtimoiy-siyosiy hayot adabiyotga ham ta'sir qilmay qolmagan. Koreys adabiyotining eng gullagan davri Li sulolası hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Choson davlatida Li sulolası hokimiyatga kelganidan so'ng turli sohalarda ko'plab islohot va kashfiyotlar amalga oshirildi. Adabiyot yangicha tus ola boshladi. Ular orasida eng ahamiyatlisi sulola hukmronligining ilk davrlaridan konfutsiylikning davlat dini sifatida qabul qilinishi bo'ldi. Shundan so'ng buddaviylik va boshqa dinlar ta'qib ostiga olindi. Bu esa, o'z navbatida, bu davr madaniyati va adabiyotida o'z aksini topdi. Shu sababdan bu davrda yaratilgan asarlarning aksariyat qismi konfutsiylik ruhida yozilgan. Ularda buddaviylikning kulgi ostiga olish holatlari ham uchraydi.

Choson davlatining to'rtinchi qiroli Sejong (1418–1450) saroya olimlarni to'plab yangi koreys alifbosini yaratishi O'rta asr Koreya tarixidagi eng muhim voqeasi bo'ldi. Koreys alifbosi Xunmin chonim<sup>1</sup> 1444-yilda yaratildi va 1446-yildan boshlab qo'llanila boshlagan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad xitoy iyeroglislarini o'tganishi qiyin bo'lган oddiy avom xalqning savodini oshirish bo'lган. Shuning uchun yangi alifbo sodda belgilardan tashkil topgan. Bu xalqni adabiyotga yanada yaqinlashtirdi. Badiiy adabiyot xalqqa tushunarli bo'lishi uchun asarlar yangi koreys yozuviga o'tkazila boshlangan.

1592–1598-yillarda Koreya va Yaponiya o'rtaasida bo'lib o'tgan Imjin urushining adabiyotga ko'rsatgan ta'siri ham juda sezilarli

<sup>1</sup> Xunmin chonim – koreys alifbosining nomi «xalqqa to'g'ri talaffuzni o'rgatish».

darajada bo'lgan. Bu urushning qahramoniga aylangan admiral Li Sun Shin esa koreys adabiyotida vatanparvarlik ramziga aylanib qolgan. Urushdan keyingi davr adabiyotida urush oqibatlari yoritilgan. Bu davrda yaratilgan asarlarda urush qurbanlari, urushdan keyingi xalqning achchiq qismati mavzusi ustunlik qilgan.

XVII asr koreys adabiyotida uyg'onish davri bo'ldi, aynan mana shu asr adabiyotida sosol, xususan, ko'p salmoqli hikoya, qissa va romanlar yaratildi. Koreys adabiyotida qadimdan nasriy janr keng tarqalgan bo'lsa-da, uning hajmi, mavzular ko'lami torroq bo'lgan. Bunday asarlarga misol qilib «kode solxva» — qadimgi hikoya, ertak va afsonalarni keltirish mumkin. Ularning aksariyat qismi davlatlarning paydo bo'lishi va rohiblarning hayotiga bag'ishlangan asarlar bo'lgan. XVII asrga kelib nasriy asarlar ham hajm, ham mavzu jihatidan o'zgargan. Ular xalqning hayotiga yaqin voqelikka asoslana boshlagan. XVI asrdayoq mashhur shoir va yozuvchi Xo Gyun (1569—1618) muallifligidagi «Mag'rur Xon Kil Don» qissasi xanmunda yozilgan, degan fikrlar ham mavjud. Xo Gyun jamoat arbobi bo'lib, kanizaklarning farzandlarini rasman tan olish, ularning davlat mansablarini egallash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun huquqini qonun (nikoh)da tug'ilganlar bilan tenglashtirishni talab qilish harakatida faol ishtirok etgan. Xanmunda yozilgan qissa matnining asl nusxasi bizgacha yetib kelmaganligi sababli Xo Gyunning muallifligi haqidagi masala hanuz munozaralidir. Faqat bu qissaning koreys tilidagi og'zaki bayon shakllarigina ma'lum. Bu, nafaqat Xo Gyun, balki ko'plab boshqa mualliflarga ham tegishli, chunki XIX asrdan avval yozilgan asarlarning matnlari deyarli noma'lum, aniqrog'i, ular saqlanib qolmagan. Folklor kabi adabiy asarlar tinglovchilarga qissanavis orqali yetib kelgan, har bir qissanavis esa, o'z navbatida, so'zlab berilayotgan matnga o'z saviyasi darajasi yoki ma'lum bir estetik qarashlariga ko'ra o'zgarish va to'ldirishlar kiritishi mumkinligi ravshan.

XVI asrda boshqa xarakterga ega nasr ham mavjud edi. Xususan, o'sha davrda yaratilgan asarlardan Kim Si Sipning XIV asr xitoy novellisti Yu Syuya taqlid qilib yaratilgan «Oltin toshbaqa tog'ida

eshitilgan yangi hikoyalar» to‘plamidan beshta novella saqlanib qolgan. Kim Si Sip Syuy Yu novellalari bilan ular Xitoyda axloqqa zid deb taqiqlangan paytda tanishgan, shoir o‘z o‘tmishdoshining to‘plamiga she’riy so‘nggi so‘z yozadi. «Yangi hikoyalar» unga «bahor gullari kabi go‘zal va bulutlar shakli kabi o‘zgaruvchan» bo‘lib tuyuladi. Kim Si Sip Syuy Yu nasrini xitoy mumtoz adabiyoti durdonalari bilan tenglashtiradi. «Yangi hikoyalar» unga shu darajada manzur bo‘ladiki, uning o‘zi ham ayni shu syujetlarga novellalar yozadi (o‘rta asrlarda barcha adabiyotlarga xos bo‘lgan hodisa) va o‘z to‘plamini ham «Yangi hikoyalar» deb nomlaydi.

Kim Si Sip asarlari yer yuzidagi xursandchiliklarning beqarorligi haqidagi buddaviylik g‘oyalari va insonning behuda baxtga intilishi bilan sug‘orilgan. Bu fantastik novellalardir. Uning qahramonlari ertaklar olamiga tushib qoladilar: «Ajdarho saroyidagi pir», «Yamaraji do‘zaxi hukmdori podshohligida», «Namyombu yeri haqida» «Manbok ibodatxonasiagi yut o‘yini», «Pubyok shiyponchasidagi maishat» va boshqalar. Ajdaho va do‘zax hukmdori podshohliklarida ajoyib narsalar ko‘p, hattoki bu yerda podsho davlatni aqil va adolat bilan boshqaradi. Adolatsiz dunyodan g‘ayrioddiy podshohlikka bir lahzaga kelgan odam oldingi hayotida yashashni xohlasmaydi, shuning uchun u tarki dunyo qiladi yoki o‘limiga rozi bo‘ladi.

Kim Si Sip qahramonlari go‘zallikdan zavqlanishga harakat qiladilar, ammo orzular faqat tushda ro‘yobga chiqadi. «Pubyok shiyponchasidagi maishat» novellasidagi qahramon komil ayolni uchratadi, ammo u farishta bo‘lib chiqadi, uning baxti esa boryo‘g‘i bir tushning qisqa lahzasidir. «Manbok ibodatxonasiagi yut o‘yini» novellasi qahramoni Lyan chiroyli ayolga uylanadi. Uning xursandchiliqi cheksiz, ammo chiroyli ayol o‘lgan ayol ruhi bo‘lib, uning uyi qushqo‘nmas chakalakzordir. Lyanning baxti ham birinchi novella qahramonining baxti kabi xayoliy bir hodisadir.

Kim Si Sip koreys adabiyotida «o‘tkinchi tush» kabi yerdagi baxt haqidagi buddaviylik tushunchalarini mujassamlashtirgan novella janrini yaratdi. Odam baxt haqida faqat tush ko‘radi. Novella qahramonning kundalik hayotga qaytishi bilan yakunlanadi. Kim

Si Sip yangi ideal qahramonlarni, ya’ni shoir, musiqa asboblarini chala oladigan kelishgan yigit hamda she’r san’ati ustasi, nafis xulq-atvorli go‘zal va qadrli qiz obrazlarini adabiyotga kiritdi.

Qadimgi rivoyatda aytishicha, Kim Si Sip o‘z to‘plam qo‘lyozmasini devordagi teshikka joylab, ustidan suvab tashlagan. Bu qo‘lyozma yozuvchining o‘limidan so‘ng oradan ko‘p yillar o‘tgach topilgan. U Yaponiyaga keltirilgan va bu yerda ilk bor 1653-yilda nashr etilgan. XVII—XVIII asrlarda yapon adabiyotshunoslari Misima Nasaku va Ono Koyama tomonidan to‘plamga sharhlar yozilgan, so‘ngra u Koreyada keng tarqalgan va so‘nggi yillarda KXDRda hozirgi koreys tiliga tarjimada sharhlar bilan ko‘p karra nashr etilgan.

«Talaba Li devor osha mo‘raladi» novellasi oddiy dunyodagi muhabbat haqida hikoya qiladi. Ammo qahramonlar baxtini ko‘rsatish uchun muallif ularni odatdagি aloqalaridan ajratadi. Soy ismli qiz o‘z oqsochi bilan ovloq bog‘da, ota-onasi va oila a‘zolaridan uzoqda yashaydi. Bu yerda ham Soy yigitning hayotini bir lahzaga nurafshon etadigan pari. Lining baxti qisqa bo‘lib chiqadi. Qiz halok bo‘ladi, Li tarki dunyo qiladi va vafot etadi.

Albatta, koreys yozuvchisi ayrim hikoyalarda ko‘proq, ayrimlarida esa kamroq mavjud va o‘ziga maqbul bo‘lgan adabiy an'anaga tayanadi.

«Manbok ibodatxonasida yut o‘yini» hikoyasi Syuy Yu kitobidagi «Yashil ko‘ylakli ayol» novellasidan ruhlaniб yozilgan. Bu syujetning umumiy sxemasidan ko‘rinadi: ota-onadan erta yetim qolgan yigit ruh — qiz bilan uchrashadi; hikoyalarning oxiri ham mos keladi: qahramon boshqa uylanmaydi, birinchi holda rohiblikni bo‘yniga oladi, ikkinchi holda — olis tog‘larga bosh olib ketadi. Ammo bu novellalarda farqlar ko‘proq. Avvalambor, personajlar fe‘l-atvori har xil. Chunonchi, Kim Si Sip qahramoni qo‘rqmasdan Buddaga o‘zi bilan oshiq o‘ynashni taklif qiladi va o‘yinda ilohni yutadi. Syuy Yu qahramoni — oqsoch qiz, Kim Si Sip qahramoni — Koreyaga yapon qaroqchilar hujum qilgan vaqtida halok bo‘lgan fazilatli, irodali qizning ruhi. Boshiga kulfat tushganda u qo‘rqmasdan Buddadan yordam so‘raydi. Koreys adibi novellasining farqi yana shunda ko‘rinadiki, unga muallif har

qanday baxtning omonatligi, dunyoviy hayotning o'tkinchiligi haqidagi buddaviylik g'oyasini joylaydi.

«Talaba Li devor osha mo'raladi» novellasi voqealar Koreya yarimorolida «qizil bog'ichlilar» qo'zg'oloni davridagi fojiali voqealar fonida yuz beradi. 1351-yilda Xitoy provinsiyalarining aksariyatini dehqonlar urushi olovi chulg'aydi. 1358—1359-yillarda dehqonlar qo'shini Koryo davlatiga bostirib kiradi. Koryo poytaxti — Kogyon (hozirgi Keson), Pxenyan va boshqa shaharlar talon-toroj qilinadi. Mamlakat boshiga tushgan musibat novella qahramonlari — Li va Soy uchun ham sinov bo'ladi. Novella nomida eski an'anadan foydalanilgan: tan shoiri Yuan Chjen (779—831)ning «In-in haqida hikoya» novellasida suyuklisining oldiga bog' devoridan oshib o'tgan talaba Chjan haqida hikoya qilinadi. Bu suyjetdan ko'pgina adiblar, shu jumladan Syuy Yu ham foydalangan. O'xhash ismlar, devor (sujet rivojidagi muhim detal) va boshqa chizgilar Kim Si Sip birinchi manba bilan tanish ekanligidan dalolat beradi, lekin tan muallisining hikoyasida ham, Syuy Yuning hikoyasida ham voqealar odamlar dunyosida rivojlanadi, Kim Si Sip esa kitobxonni odamlar ham, ruhlar ham yashaydigan olamga olib kiradi. Koreys novellisti o'zining baxt omonat ekanligi, u haqiqiy hayotdan ko'ra ko'proq sarobga o'xhashi haqidagi fikriga yana bir karra urg'u beradi.

«Pubyok shiypondagi maishat» novellasining prototipi Syuy Yu to'plamidan o'rın olgan «Szzuy-Szin bog'lari bo'ylab mast holda daydigan Ten Mu haqida hikoya»dir. Faqat Syuy Yu novellasida o'lgan qiz ruhining muhabbat haqida hikoya qilinsa, Kim Si Sip Syuy Yu suyjetiga tayanib falsafiy va fuqarolik ruhi bilan sug'orilgan asar — o'z yurtining taqdiri haqida o'y-novella yaratgan. Novella qahramoni Koreyaning ilk podsholari qadimgi poytaxtining xarobalarini ko'radi va uning qadimgi ulug'vorligi, afsuski, oqil podsholar endi qaytmasligi haqida she'r to'qiydi.

«Namyombu yeri haqida» novellasi falsafiy asar bo'lib, u talaba — konfutsiychi Pakning do'zax podshosi Yamarachji bilan suhbati shaklida yozilgan. Unda dunyoviy qahramon — konfutsiychi olam va davlatlarni tashkil etishning oqilona asosiga ishonadi. Kim Si Sip hikoyalari o'z davri uchun ilg'or va hur fikrlari

mistikaga, buddizmning diniy marosimlariga va hali xalq orasida yashayotgan shamancha e'tiqodlarga qarshi qaratilgan.

O'zga dunyoni rad etgan holda, Kim Si Sip so'nggi novellada ajdarlar podshosining suv osti saroyidagi yorqin va quvnoq manzarani chizadi. Podsho o'zining yangi ko'shkida chiroyli bitikni yozish uchun odamlar dunyosidan yosh olim va shoirni chaqiradi. Uzoq Sharqda xattotlik san'ati qadimdan mashhur bo'lган va she'r to'qiydigan, iyerogliflarni chiroyli yozadigan kishilar hurmat qilingan. Dengiz bilan o'ralgan Koreyada ajdarlar podshosining suv ostidagi saroyiga tushgan odamlar haqida ertaklar ko'p to'qilgan. Ammo bu sodda hikoyalarning qahramonlari o'qimishli kishilar emas, balki, odatda, baliqchilar bo'lgan. Kim Si Sip novellasida ikki an'ana: *venyandagi* novellalarga borib taqaladigan adabiy an'ana va baliqchilarining ertaklariga borib taqaladigan folklor an'anasi uyg'unlashgan. Birinchi an'ana shoirga syujet bergen (olim yigitning ajdar huzuriga safari). Xalq ertagidan Kim Si Sip yorqin bo'yoqlarni, xalq hazillari va raqslari stixiyasini o'zlashtirgan.

Kim Si Sip novellalarida yozuvchining nasriy tili poetik jihatdan mukammal. U dunyoga buddaviycha tafakkur nuqtayi nazaridan yondashadi: dunyoviy quvonchlarni o'tkinchi va noreal deb biladi va shu bois ularga intilish behuda ish deb hisoblaydi. Shuni qayd etish lozimki, qahramonning oqil va odil podsholar hukm suruvchi o'zga dunyolarga sayohatlari haqidagi qiziqarli hikoyalar zamirida siyosiy shama — «zolim» Sejonning boshqaruvi usullaridan muallifning noroziligi ham yashirinib yotadi.

XV asr — markazlashgan davlatni mustahkamlashda jiddiy yutuqlarga erishilgan davr. Bu neokonfutsiychilik maskurasi (*Chjusi yo'naiishi*) keng tarqalgan davr bo'lgan. Hokimiyat uchun kurashda konservativ ruhdagi zodagonlar eski ortodoksal konfutsiychilikni himoya qilish shiorlari bilan niqoblangan. Ularning raqiblari qotib qolgan aqidalardan voz kechishga chaqirgan chjusichilik nuqtayi nazarini himoya qilganlar. Ular oliy hokimiyat yirik yerlarni egallab olgani xalq manfaatlariga ziyon yetkazadi va davlat asoslariga tahdid soladi, deb ogohlantirganlar. Ular «davlatga sadoqat bilan xizmat qilish» va «xalqni odilona boshqarish» zaruriyatini targ'ib qilganlar. Ilk koreys neokonfutsiychilaridan

biri Kyon Gin (1352–1409)dir. U buddizm va daosizm dogmalarini tanqid tig'i ostiga olgan. IV asrdan XIV asrgacha davlat dini hisoblangan buddaviylik cherkovi o'z siyosi mavqeyini yo'qtotgan, lekin mamlakatning ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishda davom etgan. Buddaviylar ibodatxonalarining yerlarini davlat ixtiyoriga o'tkazish amalga oshirilgan, ularning maydoni 4–5 baravar qisqargan.

XV–XVI asrlarda ona tilidagi she'riyatning yangi janrlari – *sijo*, *kasa*, *chan-sijo* vujudga keldi. Ularning shakllanishi va rivojlanishiga XV asr o'rtalarida koreys fonetik yozuvining yaratilishi imkoniyat yaratdi.

Xitoy adabiy janrlar tizimi doirasida rivojlangan *xanmundagi* she'riyatdan farqli o'laroq, ona tilidagi she'riyat o'ziga xos koreys adabiy janrlaridan iborat.

O'rta asr koreys she'riyatining ona tili (xangil)dagi eng yorqin namunalaridan biri bu sijo bo'lib, XV–XVIII asrlarda keng tarqalgan janrlardan biridir. Sijo janrinining dastlabki namunalari XVIII antologiyalarida uchraydi. Sijoning aniq ma'nosi ma'lum emas, ammo ba'zi bir tadqiqotchilar bu janrni – «yil fasllari qo'shiqlari», ba'zilari esa «zamonaviy qo'shiqlar» deb ta'riflashadi. Sijo janrinining mavzular ko'lami juda ham keng bo'lib, peyzaj va daos (dunyoviy hayotdan ketayotganlar kuyi), vatanparvarlik va sevgi haqidagi sijolar ko'pchilikni tashkil etadi. Sijo nafaqat shoirlar tomonidan, balki turli xalq vakillari tomonidan ham yozilgan. Sijo tugallangan she'r bo'lib, uch qator va 43–45 bo'g'indan iborat. Uning tuzilishi quyidagicha:

Har bir qator sintaktik pauzaga ega bo'lib, u, o'z navbatida, ikki mustaqil yarim she'rga bo'linadi. Shuning uchun ham ba'zida sijoni olti qatorli she'r deb ham talqin qilinadi. Yarim she'r ikkita bir-biriga mos qatordan iborat bo'lib, ayrim hollarda bo'g'inlar soni ikkidan oltigacha ko'payishi yoki kamayishi kuzatiladi. Birinchi qator asosan uch qismidan iborat bo'ladi. Bu shartlar birinchi qator uchun tegishli, ikkinchi qator esa besh bo'g'indan tashkil topadi. Sijoning bir nechta turi mavjud bo'lib, shulardan bittasi pxyon – sijoda kompozitsion usul – *xyanga* usulida yozilgan. Birinchi ikki misrasi mavzu jihatdan bir-biri bilan bog'liq,

uchinchchi misra esa umuman bog‘lanmaydi. Boshlang‘ich misradagi ayrim bo‘g‘inlar so‘nggi bo‘g‘inlar bilan o‘xhash bo‘ladi.

Keyinchalik sijoning yangi turlari, ya’ni *os-sijo* (mavzular bo‘yicha biriktirilgan siklik sijo) va *sosol sijo* (darakchi sijo)lar yuzaga keldi. Bu sijolarning hammasi umumlashtirilib *chan* (uzun) *sijo* deb ataladi. Bunda sijoning tuzilishi birmuncha erkin bo‘lganligi kuzatiladi: qatorlarning uzunligi, mustaqil tarzda yarim she’rlarning qaytarilishi sijoning dastlabki strukturasining buzilishiga olib keldi. Chan-sijo o‘zida bir nechta uchqatorlikni oladi.

Qoidaga ko‘ra, sijolar ifodali o‘qilmagan, balki musiqa asboblari jo‘rligida kuyga solinib aytilgan. Shu sababli ushbu she’rlar namoyish etilishiga qarab ham tasniflangan – ular yoki baland ovozda baqirib aytilgan, yoki qo‘shiq qilib kuylangan. Bundan tashqari, sijolar musiqiyligi va musiqa tempi jihatdan ham farqlangan. Sijo ijro etilishiga qarab to‘rt, musiqachi uch, musiqa tempi 15 turga bo‘lingan. Minaga qaraganda sijo birmuncha murakkab ijro etiladi.

*Sijo* janri ravnaq topgan davr XVI–XVIII asrlardir. Bu janrga ba‘zan hozirgi davr shoirlari ham murojaat etadilar. XIV–XIX asrlarda yaratilgan ikki mingtaga yaqin *sijo* saqlanib qolgan. Ular o‘n misrali *xyangani* eslatadi: uning uch bandli tuzilishini takrorlaydi, uchinchchi – yakunlovchi qismiga alohida o‘rin beradi; she’rning ohang tomoniga katta e’tibor beriladi.

Sijoni ko‘p hollarda yapon she’riy janri «xayku» yoki «xokku» bilan qiyoslashadi. Bu ikki janrda yaratilgan asarlar ramzlarga boyligi, tabiatga katta e’tibor qaratilishi bilan bir-biriga hamohang. Biroq sijoning «xayku»dan asosiy farqi unda istioralar: metafora, so‘z o‘yini, allyuziyadan keng foydalanimishidir. Bundan tashqari, sijoda tovushlar o‘yinidan ham foydalanimiladi. Shuningdek, ranglar ham katta rol o‘ynaydi. Sijoda yashil, oq va moviy ranglar eng ko‘p qo‘llaniladi. Ushbu ranglar ideal, mammun holat ramzini ifodalaydi. Boshqa ramzlar bilan birgalikda bu ranglar qo‘srimcha ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, oqlik, oq rang va oy nuri yolg‘izlik timsolidir.

Sharq xalqlari adabiyotida qush timsoli juda qadimdan keng qo'llanilib kelinadi. Shu o'rinda qushlar bilan bog'liq ba'zi qarashlarga to'xtalishni joiz deb bilamiz. Zero, koreys adabiyotida, xususan, sijo she'riyatida qushlar ramzi ma'nolarini talqin qilish uchun avvalo bu ma'lumotlarni o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi.

Qush – ruhning timsoli. Hinduizmda afsonaviy qush Garuda abadiy xalos etilgan jonga o'xshatiladi. Jon – qush timsoli Misr, Bobil, Yunoniston asotirlarida rivojlangan. Misr an'anasida inson boshli qushning tasviri – tanani o'limdan so'ng tark etadigan «**ba**» (hayot negizi, odatda «jon» tushunchasi bilan o'xshatiladi, lekin bu bir qadar aniq emas) belgisidir. Markaziy Osiyo xalqlarida jon kabutar qiyofasida namoyon bo'ladi. Hatto mamlakatning ba'zi joylarida kimningdir o'limi haqida gapirilganda «Falonchi uchibdi» iborasi ishlatiladi. Ajodolarimizning qadimiy qarashlariga ko'ra, odam o'lgandan keyin uning ruhi qushga, ya'ni kabutarga aylanib uchib ketar ekan.

Kabutar – nasroniylikda Muqaddas Ruhning ko'zga ko'rindigan timsoli; dunyo yaratilishining tavsifi dunyo tuxumi ustida aylanayotgan qush timsoli sifatida talqin etilishi mumkin. «Ming bir kecha ertaklari»da ulkan ruh qushi tilga olinadi.

Qushlar dunyo daraxtining uchida joylashadi va ko'pincha chaqmoqchaqar ma'bud bilan bog'lanadi. Dunyo daraxtining yuqori shoxlarida, tananing turli tomonlarida joylashgan ikki qush quyosh va oyni, shuningdek, hosildorlik va boylikni anglatadi.

Qushlar u yoki bu ma'budlarining belgilari, muqaddas hayvonlari hisoblanadi. Ular ikki dunyo o'rtasidagi bog'lovchi negiz vazifasini bajaradi. Kishilar, qahramonlar va ma'bularning turli qushlarga aylanishi mavzusi keng tarqalgan.

Qushlar – ilohiy mohiyat, erkinlik, ilhom ramzi. Hinduizm an'anasida qushlar mavjudlikning oliv pog'onalarini ramzidir. Turli asotirlarda ular osmon, quyosh, momaqaldiroq, shamol bilan uyg'unlashtiriladi. Vedalar davrida quyosh ulkan qush – burgut yoki oqqush ko'rinishida tasvirlangan. Olmon an'anasida ham quyosh qushi timsoli uchraydi. Bir so'z bilan aytganda, turli xalqlar madaniyatida qushlar turlichcha talqin qilinadi.

Koreys she'riyatida ham qushlar, parranda va hasharotlar ramzidan foydalanish juda qadimiy an'analardan biri hisoblanadi. Ramzlar sifatida tabiatda mavjud va mifologik qushlar timsolidan foydalanilgan. An'anaga ko'ra Uzoq Sharq xalqlari adabiyotida qushlar ramzi ko'proq ursf-odatlar, diniy-mifologik qarashlar, marosimlar bilan bog'liq talqin qilinadi. Masalan, xo'roz — yovuz ruhlardan himoya qilish, lochin, zag'izg'on, qarg'a — ajdodlar totemi sifatida talqin qilingan. N.I. Konradning «Избранные труды (литература и театр)» asarida yozishicha, qushlar (turna va qaldirg'och) vahshiylilik va turli xil bashoratlar bilan bog'liq.

Koreys adabiyotida insonning qo'liga o'rgatilishi qiyin bo'lgan qarqara va turna obrazining talqini insonlarning uzoq kuzatishlari natijasida shakllangan.

Turnaning umumiyligi ramzlari adolat, uzoq umr tushunchalari bilan bog'langan, shuningdek u taqvodor va mehr-shavqatli jon mujassamidir. Xitoy an'anasida turna — alohida o'lmas ruhlar belgisi hisoblanadi.

Qarqaraning oq rangi, nafaqat baliqlar, balki ilonlar bilan ham oziqlanishi, shuningdek, G'arbda bu qushning abadiylik ramzi hisoblanishi kabi xususiyatlari e'tiborga olingan. Shuningdek, qarqara bahorning betakror manzarasining bezagi hisoblanadi.

Qarqara — soqlik, dunyoning iflosliklaridan xoli bo'lish, oqlik, musaffolik ramzidir. U oqligi tufayli ham hech kim, hatto bu dunyoning chang-u g'uborlarini yuvuvchi «ko'm-ko'k» dengiz suvi ham unga daxl qilishini xohlamaydi.

Bundan tashqari, oq qarqara ko'pgina qadimiy koreys applikatsiyalari va manzarali rasmlarida ham aks ettirilgan. L.S. Vasilyevning ta'kidlashicha, Koreyaga nisbatan «oq qarqaralar mamlakati», «oq turnalar yurti»<sup>1</sup> tashbehlari ham ishlatiladi. Shuningdek, koreys adabiyotida qizlarni «oq qarqara»ga o'xshatish holati ham uchraydi, masalan: «Daryo bo'yidagi oq qarqara misoli...»<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Васильев Л.С. 1976, С. 3.

<sup>2</sup> Бамбук в снегу, 1978, С. 211.

She'riyatda ko'p qo'llaniladigan qush ramzlaridan yana biri chag'alay (baliqchi qush)dir.

Koreys adabiyotida chag'alay – abadiy baxt, xotirjamlik va quvonch hukmron bo'lgan o'zga olamdan kelgan vakil sifatida talqin qilinadi.

Qaldirk'ochning diniy manbalarda talqini turlichha. Buddaviylikda qaldirk'och turg'unlik, mardlik va xotirjamlikning uyg'unlashuvi timsolidir. Nasroniylikda esa, qaldirk'och Iso alay-hissalomning ramzi. Ba'zi diniy manbalarda qaldirk'och ibodat qilayotgan inson ramzidir.

Slavyan misologiyasiga ko'ra qaldirk'och kelishi bahorning kelishi bilan bog'langan. Bu hodisa Xitoy va Koreyada ham kuzatiladi. Mart oyida tun bilan kunning teng kelishi qaldirk'och kelishi bilan belgilangan. Koreys ayollari qaldirk'och shaklida shirinlik va pishiriqlar pishirib eshiklarining tepasiga ilib qo'yishgan va bu bahor boshlanganidan darak bergen. Xitoyda hatto qaldirk'och inidan tayyorlangan sho'rva eng tansiq taom sifatida tortilgan.

Qaldirk'och – bahor, tong, tiklanish, umid, do'stlik va sadoqat ramzi sifatida qo'llaniladi. Xitoyda bahor va hosildorlik tajassumi sifatida e'zozlangan. Uy tomlari ostiga in soladigan qaldirk'ochlar xonardon o'chog'i va shinamlik ramziga aylangan.

Xitoy va Koreyada qaldirk'och – kapalak, ajdarho, gul kabi «baxtli» timsollardan biri hisoblanadi. Ko'pgina taqinchoqlar shakli qaldirk'och shaklida ishlangan. Shuningdek, Koreyada bahor bayrami Tanoda arg'imchoq uchayotgan qizlar qaldirk'ochga o'xshatilgan.

Koreyada kimning uyiga qaldirk'och in qursa, shu uyda yaqin o'rtada to'y bo'lishidan nishon bergen. Badiiy adabiyotda ham qaldirk'och timsoli keng qo'llanilgan. Qizlarning ovozi qaldirk'ochning chug'urlashiga, raqs tushayotganida qo'llarining harakati qaldirk'och qanotlariga, qadam tashlab yurishlari qaldirk'ochnikiga o'xshatilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Xan imperatori Chen-dining joriyasi, keyinchalik ayoli bo'lgan qizning laqabi ham «uchayotgan qaldirk'och» bo'lgan. Uning raqs tushayotgandagi yengil harakatlari uchun shu laqab bilan chaqirishgan.

Qaldirg'och sijolarda qizlarning tashbehi sifatida qo'llanilgan.

Barcha xalqlar adabiyotida bo'lgani kabi koreys adabiyotida ham o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari orqali insonlar ichki dunyosini ohib berish mavjuddir. Shu o'rinda fitonimiyadan keng foydalanilgan.

O'rta asr koreys adabiyotida yaratilgan ko'plab asarlarning asosiy qismi fitonimiyadir. Ammo o'zbekzabon o'quvchilar uchun bu hodisa «begona madaniyat belgilari» deb qaralgan<sup>1</sup>.

Koreyaning o'simliklar dunyosi juda ham katta va o'ziga xos takrorlanmaydigan, mastunkordir. Maysalar, gullar, daraxtlar, mevalar «ideal» insonlar obrazini yaratishda keng foydalaniladi. Nilufar, pion, orxideya, majnuntol, shaftoli va uning mevasi ayollar husni, latofatini ifodalashda qo'llanilgan. O'simliklar turli marosimlarda ishlatilgan, jumladan, hozirgi kunga qadar Koreyada to'y jujub (xurmo) va kashtan daraxti mevasisiz o'tmaydi; xonadonga yaxshilik va baxt olib kelsin deb majnuntol shoxlarini unying eshiklariga ilib qo'yanlar; shaftoli daraxtining shoxlari davolovchi kuchga ega, uning shoxlari bilan talvasaga uchragan bemorni urib, ins-jinslarni haydashgan.

O'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari orqali insonlar taqdirida bo'ladigan hodisalar tasvirlangan: singan yoki toptalgan shox, uzilgan gul yo'qotilgan bolalikdan darak beradi va h.k. Koreys xalqi uchun o'simliklar dunyosi juda ko'p timsollar va ramziylikni anglatib, jumladan archa, bambuk, olxo'ri daraxtlari eng ulug'verlari hisoblanadi. Koreys tilidagi asarlarda boshqa daraxtlar ham uchraydi, ularning ham o'z vazifalari va o'rni bordir: majnuntol, shaftoli daraxti, kiparis, kedr va gullardan nilufar, pion, xrizantema ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O'simliklar dunyosi koreys adabiyotida tasvir vositasining ajralmas qismidir. Gullar, maysalar va daraxtlar faqat tabiatni tasvirlash bilan chegaralanmaydi, balki «ideal» inson qiyofasini yaratishda ham keng qo'llaniladi. Insoniy tuyg'ularni ifodalashda keng qo'llaniladigan tutdag'i uchrashuv — sevimli uchrashuv, sandal daraxtining shoxlarini sindirish — taqiqlangan uchrashuv,

<sup>1</sup> Y.A. Sorokin, I. Y. Markovina. 1989. 43-b.

maysalardan chambar yasash – oxiratda xizmatlar uchun tashakkur bildirish va h.k. sharhlar bilan berilmasa o‘zbekzabon kitobxon uchun tushunarsiz bo‘lishi tabiiy. Ko‘plab o‘simliklar esa koreys adabiyotida mavjud afsonalar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga o‘simliklar rassomchilik san’atida ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, olxo‘ri o‘zining tuzilishi va dog‘lari yo‘qligi bilan shoirning hamrohi bo‘lishi mumkin; bambuk oljanoblik va maqsad sari intilishlari bilan olimlar qatoriga qo‘yiladi.

Shu bilan birga o‘simliklar frazeologik oborotlar va iboralarda ham keng qo‘llanilgan. Koreys adabiyotida quyidagi iboralar juda ham ko‘p uchraydi: qorda qolgan gullagan olxo‘ri, yaproqlarini to‘kayotgan shaftoli daraxti, jigarrang daraxtning alvon shoxlari, sariq xrizantemalar, to‘q qizil qarag‘aylor, egiluvchan majnuntollar, bahor shamolida egilayotgan shox va h.k.

Koreys adabiyotida o‘simliklar dunyosi «olijanob» va «oddiy xalq» kabi turlarga bo‘linadi. Manbalarda keltirilishicha archa, olxo‘ri, shaftoli daraxti, nilufar, pion, xrizantema, orxideya «olijanob» o‘simliklarga kiritiladi. «Oddiy xalq» o‘simliklariga utun, jigarrang daraxt, ipak, qayrag‘och, mandarin, nok, o‘rik, banan, jylda, anor, kashtan va gullar kiradi.

Mugunxva (Gibiskus) guli Koreyaning milliy ramzi hisoblanadi. «Mugunxva» koreys tilidan tarjima qilinganda «mugun» – «abadiyat», «xva» – «gul», ya’ni «abadiyat guli» degan ma’noni anglatadi. Bu gul o‘zida koreys millatining irodasi, sabr-toqati, matonatini mujassamlashtirgan. Har yili iyun oyidan to oktabr oyiga qadar mamlakat shu gullarga burkanadi. Gul ko‘plab koreys shoirlari mavzulariga aylangan.

Archa koreys adabiyotida o‘simliklar dunyosida alohida o‘rinni egallaydi, u boqiylik ramzidir.

Shu bilan birga archa mangulik timsoli bo‘lib, koreys she’riyatida archa va kiparisga shoirlar alohida e’tibor bilan qarashgan. She’rlarda archa mangulik obrazida ko‘rinadi, davriy obrazlar bilan taqqoslanadi.

Bambuk qishda gullaydigan daraxt turi bo‘lib, sharqona jozibadorligi, egiluvchanligi va yumshoqligi, uzoq muddatga chidamliligi bilan ajralib turadi, u yaxshi tarbiya, ayrilmas do’st,

uzoq umr va baxtli qarilik belgisidir. Shu bilan birga bambuk buddanining ramziy belgisi hisoblanadi. Bambuk va qaldirg'och - do'stlik, bambuk va turna – uzoq umr va baxt, bambuk va olxo'ri-mustahkam do'stlik, bambuk va archa qishning ayozli kunlarida sodiqlik ma'nosini anglatadi. Koreyada mavjud bo'lgan uchta ta'limotning bittasi buddizmni bambukka qiyoslashadi. (konfutsiychilik-archa, daosizm-olxo'ri).

Koreyada majnuntolni boshqacha bir mehr bilan yaxshi ko'rishadi. Yozning issiq va quyoshli kunlarida majnuntolning mayin egilgan shoxlari soyasida dam olish mumkin. Egiluvchan shoxlaridan arqonlar va savatlar to'qilgan, barglarida tannin moddasi mavjud bo'lib, choy o'rnini bosuvchi ichimlik sifatida foydalilaniladi. Majnuntol barglari va qobig'idan ba'zi bir xastaliklar uchun dori sifatida ishlatiladi. Majnuntol o'z go'zalligi va mastunkorligi bilan shoirlar va yozuvchilarining bosh mavzusiga aylangan. Bog'langan majnuntol shoxlari sevgi ramzi hisoblanadi. Majnuntol tanasidan ma'budlar yasalgan, shu orqali ruhlar dunyosi bilan muloqot o'rnatiladi, degan aqida mavjud. Erta bahorda erkaklar ekin hosildorligi yaxshi bo'lishi uchun majnuntolga arg'imchoq bog'lab uchishgan, ya'ni majnuntolning sehrli kuchi yerning unumdorligini oshiradi, deb ishonishgan.

«Majnuntollar gullaydigan fasl bahor kelibdi. Butun tiriklik, hatto maysalar va daraxtlar ham bahor quyoshining hayotbaxsh nurlaridan bahra olibdi. Bahor nafasi yigitchani ham o'ziga tortibdi, u tabiat qo'yniga chiqish uchun xizmatkorini chaqiribdi...» («Sadoqatli Chxun Xyan»).

Koreys adabiyotida bahorni to'liq ta'riflashda tabiat tasviriga albatta majnuntolni kiritishadi.

«Majnuntollarning ajoyib gullah davri keldi – nafis bahor. Butun tirik mavjudot uyg'onadi, maysalar va daraxtlar ko'karadi». («Sadoqatli Chxun Xyan»).

«Yana erta bahor keldi...Maysalar nish urdi, majnuntollar gullamoqda» («Бамбук в снегу»).

Shu bilan birga Koreyada ayrılıq ramzi sifatida uzoq safarga otlangan insonga esdalik uchun majnuntol shoxlaridan sovg'a beriladi.

XV asr – Li sulolasi o‘z mavqeyini mustahkamlagan davr. Uning avvali mo‘g‘ullar zulmidan xalos bo‘lish, yapon qaroqchilariga qarshi muvaffaqiyatli kurash davri bilan mos keladi. Bu davr bilan yangi koreys yozuvida bitilgan, yangi sulola va uning asoschisini sharaflaydigan difirambik poeziyaning rivojlanishi bog‘liq (Chon Nin Chji (1396–1478) va Kvon Chje (1387–1445)ning «Uchayotgan ajdarga qasidasi», Pyon Ge Ran qasidalari va b.).

Vatan sarhadlarini himoya qilish, mamlakatda tinchlik va totuvlikni barqaror etish, yangi sulolani qo‘llab-quvvatlash, eski sulolalarни qoralash XV asr – XVI asr boshlari koreys she’riyatidagi asosiy mavzular va motivlardir. Nam I, Kim Chon So, Chon To Chjon, Li Chi Van, Pak Chxen Nyon kabi shoirlar yirik davlat arbobi yoki sarkarda bo‘lgan. Masalan, Nam I (1441–1468) 26 yoshida harbiy vazir lavozimini egallagan. «Katta yo‘lbars» degan nom olgan Kim Chon So (1390–1453) iste’dodli ma’mur – general-gubernator bo‘lgan.

*Sijoda* mamlakat tarixidagi voqealar o‘z aksini topgan. Sulolaning almashishi oliy tabaqa vakillari ikki guruhga bo‘linishiga sabab bo‘lgan. Koryo sulolasining oxirgi podshosiga sodiq qolganlar uchun an’naviy madaniy qadriyatlar o‘ziga xos «ma’naviy boshpana»ga aylangan. Bu hol ilk *sijolarda* ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Jumladan, Li tarafдорлари qatoriga qo‘shishdan bosh tortgani uchun qatl etilgan taniqli arbob, konfutsiychi mutafakkir Chon Monju (1337–1392) ijodi yaqqol misol bo‘la oladi.

1456-yil norasida podsho Tanjonne qatl etib, taxtga Sejonning o‘tirishi ham oliy tabaqa vakillari uchun og‘ir sinov bo‘ldi. Bu davrda she’riyatda insонning ma’naviy nuqtayi nazari, o‘z e’tiqodiga sodiqlik muammosi ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Konfutsiy davridan beri «qarag‘ay» sodiq tabaa timsoli sanalar edi. Bu obrazni Sejon davrida «qatl etilgan oltovlon» sifatida mashhur bo‘lgan shoirlarning *sijo* uslubidagi she’rlarida uchratish mumkin. Navbatdagи bosqich ham ancha og‘ir keldi. XVI asr – XVII asr boshlarida feodalizm ziddiyatlari kuchaydi. Koreya jamiyatining oliy tabaqasi vakillari o‘rtasida siyosiy va maskuraviy

kurash avjga chiqdi. Mazkur jamiyat o‘qimishli qismining eng sara vakillarida hokimiyatga bo‘lgan ishonch va kelajakka umid yo‘qoldi.

Bu umidsizlik natijasida she’riyatda «kanxo munhak» («ko‘l maktabi»)<sup>1</sup> yo‘nalishi vujudga keldi. Ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yengishga aniq yo‘l yo‘qligi va yanbanlar bilan kurashish befoyda ekanligini tushunib yetish, umidsizlik bu yo‘nalish shoirlari ijodida o‘z aksini topdi. Mazkur she’riyatning asosiy motivi – tabiatga ketish bo‘lib, yanbanlar guruhlarining o‘zaro kurashi behuda ekanligini teran anglagan mazkur mактab shoirlari «ko‘rlar» va «karlar», ya’ni olomonni savalaydi.

«Ko‘l mактabi» shoirlari hokimiyat, boylik va mansabni rad etadilar, soddalikka intilishga chaqiradilar. Ularning sevimli mavzusi – tabiat tavsifi, dunyo tashvishlaridan uzoqlashgan odamning uzlatnishin hayoti. Ularning do‘stlari – daryodagi chag‘alay, osmondagи oy, tog‘dagi qarag‘ay, sevimli mashg‘uloti – baliq ovi yoki kulbasi yaqinidagi bir parcha yerga ishlov berishdan iborat.

*Sijoga* tabiat mavzusi XV asr o‘rtalarida Men Sason (1359–1431)ning to‘rt she’rdan iborat turkumi bilan kirib kelgan. Bu turkumda shoir yilning turli fasllaridagi zohid hayotini tavsiflagan. Shundan beri bu mavzu mazkur janrda hukm suradi. Men Sason *sijosida* podsho bilan koinot holati o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi qadimgi tasavvurlar aks etadi. Alovida kuchga ega bo‘lgan va koinotdagi uyg‘unlik uchun javob beradigan podsho tabaa uchun mehr-muruvvat manbai hisoblanadi.

«Ko‘l mактabi» shoirlari koreys she’riyatiga o‘ziga xos uslubda tasvirlangan peyzajni kiritdilar va bu borada yuksak mahoratga erishdilar. Bu yo‘nalishning mumtoz vakillari Yun Son Do va to‘qqiz yoshidan she‘r yoza boshlagan Sin Xim (1586–1628) shuhrati ayniqsa keng tarqaldi. «Ko‘l mактabi» shoirlari sijoning «alovida turkumli shakli»: yagona mavzu bilan birlashtirilgan uchliklar turkumini yaratdilar.

<sup>1</sup> Kanxo munhak — «ko‘l mактabi» — bu yo‘nalish tarafдорлari tabiat qo‘yniga chekinganlar, ularning she’ridagi obrazlar tabiatdan oлинган. Ular hokimiyatni, boylik, mansabni rad etadilar hamda oddiylikka chaqirib, dunyo tashvishlaridan uzlatga chekinishni targ‘ib etadilar.

Yun Son Doning «Besh do'st — daryo, qarag'ay, tosh, oy, bambuk», «Baliqchining yil fasllari», Li Xvanning «Tosanning o'n ikki xirgoysi» turkumlari shular jumlasidan.

Li I (taxallusi Yulgok) (1537–1584) XVI asrning mashhur peyzajchi shoiri bo'lgan. Uning faqat bir she'rlar turkumi — «Kosanning to'qqiz burlishi» saqlanib qolgan. Shoир bir necha shtrixlar bilan juda go'zal peyzaj — miniatyurani yaratadi. U hayratga soluvchi yangi obrazlarni yaratadi, so'zga juda talabchanlik bilan yondashadi. Li Ini tabiat manzarasi yaratadigan kayfiyatdan ko'ra peyzajning go'zalligi ko'proq qiziqtiradi.

XV asr she'riyatida muhabbat mavzusi o'ziga yo'l ochadi. Konfutsiychilik axloqi nuqtayi nazaridan taqiqlangan bu mavzu Koryo davrining she'riy ijodidan ancha keng o'rinn olgan edi, lekin ularga koreys feudal jamiyatining «quyi tabaqasi» — xalq aktyor-qo'shiqchilarini *kvande* va *kisen*<sup>1</sup> she'rlaridagina duch kelish mumkin, ular orasida ham qobiliyatli shoiralar bor edi. Ular shu darajada ma'lum va mashhur bo'lishganki, oxir-oqibatda koreys xalqi orasida ular afsonalarga aylantirilgan. Eng mashhur shoiralardan biri Xvan Jinni (taxallusi *Menvol*) (1506–1544) bo'lib, uning she'riyati ma'lum va mashur, o'zi haqida ko'plab afsonalar ham to'qilgan. Xvan Jinnining she'riy asarlari o'zining nozik yumori, shaklining mukammalligi, poetik tilining go'zalligi va oddiy insonga, uning kundalik hayotiga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

*Kvande* va *kisen* qadimgi she'riy asarlarni avaylab-asrab, og'izdan og'izga o'tkazibgina qolmasdan, balki o'zлari ham ajoyib *sijo* mualliflari hisoblanganlar. Aksariyatining ismi noma'lum bo'lgan xalqdan chiqqan bu shoirlar ijodida asosiy e'tibor inson tuyg'ulariga qaratilgan. Ba'zan *sijo* hazil-mutoyiba bilan boyitilgan. Bu lirik she'riyatda xalq qo'shig'i an'analari jonlangan.

*Sijo* so'z o'yini asosida qurilgan: «tiniq oy» — *Menvol* — shoiraning adabiy taxallusi. Shoira yaratgan *sijo* zamirida quyidagi

<sup>1</sup> Кон Гу Джуне и др. Янгбапы — правящее сословие в традиционном обществе Кореи периода Чосон (XV в. — до начала XX в.). — Сеул, Корея, 2013.

fikr yotadi: yillar o'tadi, yoshlik qaytmaydi, kalondimog'likni qo'y, hayotdan lazzat ol!

Tabiat hodisalari qahramonning ichki kechinmalarni aks ettiradi. Uning mushtoqligiga an'anaviy poetik obraz – to'kilgan xazon yordamida chizilgan kuzgi manzara mos keladi.

Xvan Jinn an'anasini davom ettirib, ko'pgina shoiralar – Sori, Kuji, Mc Xva o'z she'rilarini so'z o'yini asosida tuzadilar. Sijo quyidagi so'z o'yini asosida tuzilgan: *Sori* – shoiraning ismi va *sori* – koreyscha «qayrag'och».

Xalqdan chiqqan shoirlar qalamiga mansub *sijoning* folklor bilan yaqin aloqasi folklor lirikasiga xos bo'lган mavzular va ularni yoritish usullaridan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Xalqdan chiqqan shoirlar lirikasida g'am-hasratgina emas, balki hayot quvonchi, visol lazzati ham o'z aksini topgan.

Koreyada bo'lib o'tgan og'ir urushlar vatanparvarlik mavzusini birinchi o'ringa olib chiqdi. Bu, ayniqsa, Li Sun Shin (1544–1584) ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Li Sun Shin dengizchi, zirhlì kemalar asoschisi va yapon bosqinchilari ustidan g'alaba qozongan xalq qahramoni bo'lish bilan birga iste'dodli shoir ham bo'lgan. Uning xangilda yozgan yagona she'ri (Li Sun Shin xanmunda ijod qilgan) «Xansan orolidagi oy to'lgan kechada» she'ri Xansando orolidagi hal qiluvchi jangda ishtirot etgan jangchining o'ylari haqida yozilgan.

Vatanparvarlik mavzusi Kim Sanxon (1570–1652) she'riyatida ham yangraydi. «Ko'l maktabi»ning peyzaj lirikasi ham vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan, qadrdon tabiatga, uning go'zalliklariga muhabbat uyg'otishga qaratilgan. Bu yo'nalişning ayrim shoirlari milliy ozodlik urushining faol ishtirotchilaridir (masalan, Sin Xim).

«Ko'l maktabi» she'riyati ham vatanparvarlik, ona vatanga muhabbat va uning go'zalligi mavzusini bosh mavzu qilib olgan. Bunday vatanparvarlik she'riyatining ko'pchilik qismi baribir ham konfutsiychilik ta'limoti targ'ib qilgan yakka hukmdorga xizmat qilish g'oyalari bilan chuqur sug'orilgan edi. Yuksak ehtirom ayniqsa Xon Ixhan (1586–1637) va Li Myonxon (1595–1645) kabi shoirlarga tegishlidir.

XVII asrda koreys she'riyatida yangi hodisa hisoblangan jarayon — chan-sijo (uzun sijo)ning paydo bo'lishidir. Bu bir necha she'riy shakllarning umumiy nomi bo'lib, uning asosida sijolarning o'lchov tizimi yotadi. Klassik sijo misrasi ikki yarim misradan iborat bo'lsa, chan-sijo misrasi yarim misralarning biron bir muayyan miqdori bilan cheklanmaydi. Uch va ikki turoqli yarim misralar o'rni chan-sijoda oldindan belgilanmaydi. Yarim misralar chegarasi chan-sijoda ham sijodagi kabi aniq belgilanadi. Turoqdagi klassik sijoga berilgan tavsif chan-sijo uchun ham qo'llanishi mumkin.

Bu janarda yaratilgan asarlar mualliflarining dunyonи aniq tasvirlashga intilishi bilan tasniflanadi. Koreys peyzaj lirkasidan farqli o'laroq, uzun sijoda tabiat yaxlit va yagona hodisa sifatida tasviflanmaydi. Umuman olganda, sof peyzaj lirkasiga bag'ishlangan sijolar juda kam saqlanib qolgan. Olamning abadiyligi va cheksizligidan bahs etuvchi tog'lar, daryolar va ko'llarning keng tasviri yo'qoldi. Endilikda tabiat nafaqat go'zal, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Inson o'ziga bevosita yaqin bo'lgan narsalarni tasvirlaydi. Turli hasharotlar, o'simliklar, baliqlar va hokazolar sanab o'tilgan she'rlar yaratildi. Bir qarashda she'rlar ortiqchaday bo'lib tuyulgan mazkur tafsilotlar ko'pincha ijtimoiy tanqid vazifasiga bo'ysundirildi. Sijo asosida paydo bo'lgan, bir nechta turdag'i she'riy formalarning umumiy nomi bo'lgan. Bu janr qisqa she'rning rivojlanishida tartibga solingan she'r dan erkin she'r ga o'tish bosqichi bo'lsa kerak.

Uzun sijo paydo bo'lishi bilan dunyoning she'riy konsepsiysi (inson va koinot aloqasining xususiyati)gina emas, balki she'riyat subyekti ham o'zgardi. Masalan, XV—XVI asrlar peyzaj lirkasida odamzod insoniy munosabatlар sohasidan ajralib olingan va tabiat bilan birikishga burchli bo'lgan qandaydir mohiyat, ijtimoiy nomuayyan birlik sifatida tasvirlansa, uzun sijoda inson konkret ijtimoiy-maishiy muhit vakili sifatida amal qiladi.

Chan-sijo markazida inson va uning boshqa odamlar bilan kundalik munosabatlari turadi. Shu tufayli ham dialog ulkan rol o'ynay boshlaydi, she'riyatga odatdag'i so'zlashuv tili kirib keldi.

Uzun sijolar misolida koreys adabiyotida yangi uslubiy tizimning tug‘ilishi kuzatiladi. Shu bilan birga she’riyatda an’anaviy qadimgi uslub ham saqlanib turdi.

Chan-sijoda so‘zlashuv elementining salmog‘i oshadi. Ayni hol she’rlar kompozitsiyasida ham namoyon bo‘ladi: aksariyat she’rlar dialog shakliga ega. Vaholanki, dialog sijoda kamdan kam kuzatiladi.

Milliy obrazlilikka murojaat etish bilan bir qatorda, chan-sijoda turmushni yuzaki tavsiflashga moyillik va shu bilan birga she’rdagi obrazga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, unga teran kirish, uni ichdan yoritishga intilish ham kuzatiladi.

Chan-sijoda umumiy tasvir o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketadi, chunki chan-sijoni predmet tavsifidagi «umumiylig» emas, balki «individuallik»: predmetning xususiyatlari, uning xossalaring betakrorligi qiziqtiradi. Chan-sijoda predmet serqirra va shu bois unga har safar predmetning mazkur betakror vaziyatda namoyon bo‘lgan xususiyatlarini aks ettiruvchi tavsifi zarur. Shu tufayli ham klassik sijo xitoy adabiyotidan o‘zlashtirgan badiiy ifoda vositalari tizimi, xitoy she’riyati klassiklarining she’rlaridan iqtiboslar o‘zining avvalgi ahamiyatini yo‘qotib, o‘rnini hayotda, turmushda kuzatiladigan obrazlar egalladi.

Uzun sijolar dunyoning konkret ko‘rinishini targ‘ib qilgan mavzularda yozilgan. Bunda tabiat asosiy mavzu emas, balki vosita rolini bajargan. Endi inson ko‘proq o‘ziga yaqin bo‘lgan narsalarni tasvirlashga intildi. Jumladan, baliqlar, qushlar, hasharoqlar va shu singari mavzularda she’rlar yozildi.

Shu bilan bir qatorda, she’riyatda insonning ko‘p qirrali tomonlarini ochib berish holatlari ham uchray boshlaydi. Masalan, she’rlarda ayollar turfa ko‘rinishda tasvirlana boshlandi.

Uzun sijolarda an’anaviy obrazlilikdan voz kechish holatlari yaqqol ko‘zga tashlana boshladи. XV—XVI-asrlar tabiat lirkasida inson bor-yo‘g‘i tabiatni bir mahsuli bo‘lgan oddiy jonzot deya ta’riflangan bo‘lsa, endilikda uzun sijolarda inson obrazi jamiyat hayotining bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ldi.

Uzun sijolarda ijtimoiy hodisalar va muloqotlar asosiy o‘rinni egallaydi. Bunda satirik holatlarning ishlatilishi uzun sijolarning

zavqini yanada oshiradi. Bundan tashqari amaldorlarning o‘zaro urushi va budda dini ruhoniylarining gap-so‘zлari va ruhiyati ham kulgi ostiga olingan.

Uzun sijolarning o‘ziga xos xususiyatlardan biri bunda kulgi ostiga olinayotgan jamiyatdagi shaxslar to‘g‘ridan to‘g‘ri yozilmasdan, balki hayvonlar va hasharotlar obrazida bayon qilingan.

XV asr o‘rtalari – «*Kasa*» («musiqiy qatorlar») janri vujudga kelgan davr. *Kasa* – qo‘sish qilib aytildigan doston. Bu janr peyzajli *xyanga*, ko‘p misrali *kayo* va daos-chan g‘oyalarining birikmasidan iborat. Ko‘p misrali *kayoda* bo‘lganidek, *kasada* ham inson hayotining uncha katta bo‘limgan qismi (bir yilgacha yoki bir necha yil) haqida hikoya qilinadi. Ilk *kasalardan* biri Chon Gigin (1401 – 1481)ning «Bahorni sharaflayman» dostonidir. Bu she’riy janr asosan qirol xonadonlarida ijro etilgan. Bu janrning vujudga kelishi koreys milliy yozuvi xangilning yaratilish davriga to‘g‘ri keladi. Kasa janri tuzilishi jihatidan sijo janriga, ayniqsa chan-sijoga juda ham o‘xshashdir. Kasa janriga qo‘yiladigan qat’iy talablar mavjud emas, bo‘g‘inlar soni ham chegaralanmagan. Bir qarashda kasa prozaga ham o‘xshaydi. Kasada peyzaj, geografik tasvir, baliqlar, hasharotlar nomlari ko‘p uchraydi. Kasa koreys qissalarining paydo bo‘lishiga turki bo‘ldi. Kasa she’riy tarzda o‘qiladi. Kasa mualliflari aniq emas, asosan anonim tarzda yozilgan. Kasani ko‘proq ayol yozuvchilar yozishgan va aynan ayollar tomonidan o‘qilgan. Kasaning kyuban-kasa, kixen-kasa (yo‘lovchining yozuvlari) kabi turlari mavjud. Kasaning asosiy mavzulari Koreya hayoti va tabiatiga bag‘ishlangan bo‘lib, tarixiy kasalarda Koreya tarixi va madaniy hayoti haqida yozilgan.

XVIII asr oxiriga kelib shahar aholisi o‘rtasida tuzilishi jihatidan kasaga o‘xshash, xalq qo‘sishlari asosida *chapka* (murakkab ashula) vujudga keldi. Chapkalarni asosan kisenlar ijro etishgan.

Bu davrga kelib yana bir janr – *talgori* yoki *vollyochega* («yil fasllari qo‘sish‘i») vujudga kelgan bo‘lib, bu kasa tuzilishiga o‘xshash she’rdir, bu she’rlar oy taqvimiga qarab tuzilgan, ya’ni *talgori* asosan xalq bayramlarida va dalalarda boshlanadigan mavsumiy ishlardan oldin va hosil bayramida ijro etilgan.

She'riy janrlardan yana bittasi *changa bo'lib*, bu erkin, qisqa tuzilishga ega hamda she'riy janrning bu turi XIX–XX asrlarda ancha rivojlangan. XX asrning 10–20-yillarining boshlarida erkin she'r — *chayusiga* asos solindi.

*Kasa XVI* asrda ayniqsa ravnaq topgan va bu eng avvalo atoqli shoir Chon Chxol nomi bilan bog'liq.

XVI asr atoqli koreys shoiri Chon Chxol ko'proq *Songyan* adabiy taxallusi bilan mashhur («Qarag'ay va daryo»). Shoirning zamondoshlaridan biri mazkur taxallusning birinchi qismini shunday sharhlaydi: «Chon Chxol sirtdan qarag'ayga o'xshaydi, sabr-bardoshliligi bilan u qor bosgan bambukni cslatadi». Bu har qanday sharoitda o'z prinsiplari va e'tiqodiga sodiq qoluvchi insonning obrazli tavsifidir. Mazkur tavsif ona tilida birinchi mualliflik she'riy to'plamini yaratgan, Koreya adabiy olamida xitoy badiiyati qonunlari hukm surgan bir sharoitda milliy she'riyat janrlarini barkamollik darajasiga ko'tara olgan shoir hayoti va ijodining mazmunini to'liq va aniq aks ettiradi.

Chon Chxol Koreya uchun og'ir davrda yashagan va ijod qilgan. XVI asrda yirik zamindorlikning o'sishi va markaziy jamiyatning zaiflashishi sinfiy ziddiyatlar kuchayishiga sabab bo'ldi. Ayni hol, jumladan, dehqonlar o'zлari yashayotgan joylarni tashlab ketishida, xalq g'alayonlarida o'z aksini topdi. Bundan tashqari, XVI asrning birinchi choragida boshlangan hukmron sinf vakillari o'rtasida nifoqning kuchayishi 1575-yilda ikki guruh — poytaxtning eski zodagonlaridan iborat «g'arbiy» guruh va yosh konfutsiychi olimlarning manfaatlarini aks ettiruvchi «sharqiy» guruh tashkil topishiga sabab bo'ldi.

«Bu ketishda bir necha yildan so'ng xalq qo'zg'alishi muqarrar va mamlakat halok bo'ladi», deb yozgan edi mamlakatdagi ahvol haqida Chon Chxolning zamondoshi, yirik mutafakkir va davlat arbobi Li I.

Shuning uchun bo'lsa kerak, Chon Chxol ijodida tushkunlik va hayotga chanqoqlik, o'zini qurshagan muhitdan norozilik va mamlakat manfaatlariga sodiqlik uyg'unlashgan.

Chon Chxol 1537-yilda podsho avlodi bilan bog'liq bo'lgan yirik saroy amaldori oilasida tug'iladi. Chon Chxol taxt vorisi,

bo'lg'usi podsho Myonjon bilan bolalikda birga o'ynab katta bo'ladi. Bu ularning keyingi munosabatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi — saroydagagi fitnalar tufayli Chon Chxolning otasi oilasi bilan birga mamlakat janubiga surgun qilinadi. Chon Chxol otasi avf etilgan 1551-yildagina poytaxtga qaytib keladi va ta'limni davom ettiradi. Chon Chxolning muallimlari orasida o'z davrining mashhur faylasuflari — konfutsiychilar va tan she'riyati bilimdonlari Kim Desin va Kim Inxu bo'lgan. Kim Inxu bo'lg'usi shoirda ona tilida she'r yozishga havas uyg'otgan. Chon Chxol o'z davrining o'qimishli kishisi bo'lib yetishgan. 1562-yilda u davlat xizmatiga imtihonlarda birinchi o'rinni egallagan. Qirol Myonjon g'olib bolalik do'stini tanigan, o'sha zahoti Chon Chxol yuksak lavozimiga tayinlangan.

Ammo keyinchalik Chon Chxolning taqqidiri silliq kechmagan. Saroydagagi xizmat ko'p karra quvg'in yoki ixtiyoriy tarkidunyochilik bilan almashgan. Ba'zan bunga shoirning o'jar fe'l-atvori, uning beg'arazligi va pok vijdonliligi sabab bo'lgan.

1567-yilda Chon Chxol va faylasuf Li I saroy qoshidagi akademiya — Okshan a'zoligiga saylangan. Taxtga Sonjo o'tir-ganidan so'ng u bir qancha mas'ul lavozimlarda xizmat qilgan. Har qanday sharoitda shoir-amaldor doim o'z maslagiga sodiq qolgan, laganbardorlik qilmagan, o'z fikridan qaytishdan ko'ra xizmatni tashlab ketishni afzal ko'rgan.

1584-yilda Li I vafot etadi. Chon Chxol a'zosi bo'lgan «g'arbiy» guruhga tazyiq kuchayadi. Chon Chxolning mayga o'chligi unga qilingan xurujlar nishoniga aylanadi. Bunday sharoitda Chon Chxol yana poytaxtni tark etishga majbur bo'ladi.

1589-yilda «sharqiy» guruhning qiroqla qarshi fitnasi fosh bo'ladi va Chon Chxol darhol poytaxtga qaytib keladi. Quvg'in qilingan shoirning sodiqligini ko'rgan qiroq unga Davlat kengashida «o'ng» (ya'ni, ikkinchi) vazir lavozimini taklif qiladi, tez orada uni «so'l» (birinchi) vazir etib tayinlaydi. «Sharqiy» guruh a'zolari Chon Chxolga qarshi fitna to'qishda davom etadi. Natijada qiroqlarning unga bo'lgan munosabati asta-sekin soviydi. Chon Chxolning to'g'riso'zligi laganbardorlikka ko'nikkan qiroqlarning hamiyatiga tegadi. Boz ustiga, merosxo'rni tanlash masalasi bo'yicha ularning

o'rtasida kelishmovchilik yuz beradi. Chon Chxol rohib ilgari surgan shahzoda Sejon o'miga shahzoda Kvanxeni taklif qiladi. Bu qirolning noroziligiga va shoir yana, bu safar oxirgi marta quvg'in qilinishiga sabab bo'ladi.

1592-yil may oyining oxirida Imjin urushi boshlanadi. Janubiy darvoza oldida qirol Sonjo xalqqa murojaat etadi. U o'z ma'ruzasini tugatgani zahoti olomon orasidan bir mo'ysafid chiqib, qiroldan Chon Chxolni avf etishni so'raydi. Xalq oqil amaldorni eslaydi: Koreya uchun og'ir kunlarda faqat Chon Chxol va unga o'xshaganlar mamlakatni qaramlikdan qutqarishi mumkin, deb hisoblaydi. Shoir alohida farmonga binoan surgundan ozod qilinadi. U Chollado va Chxunchondo provinsiyalari qo'shinlarining qo'mondoni etib tayinlanadi, yapon armiyasiga qarshi bir nechta muvaffaqiyatli jangovor operatsiyalar o'tkazadi. 1593-yilda u Xitoyga elchi qilib yuboriladi. Bu vazifani muvaffaqiyatli bajargach, Chon Chxol Kanxvado oroliga qaytib keladi va bu yerda 1594-yil 7-fevralda vafot etadi.

Oradan to'qson yil o'tgach, 1685-yilda Chon Chxolga Koreya-ning boshqa atoqli yozuvchi va shoirlari bilan bir qatorda o'limidan so'ng «Hassos adib» unvoni berilgan.

Chon Chxoldan ulkan adabiy meros qolgan. Shoirning o'g'li Chon Chjonmyon 1632-yilda otasining asarlarini to'plab, yetti jiddan iborat «Songan asarlari»da nashr etgan. Ularga xitoy adabiyotiga xos janrlar: xanmunda yozilgan she'r, epistolar nasr, badia, epitafiya, tarjimayi hol va hokazo 570 asar kiritilgan. Bu asarlarga «Qirol Sonjo hukmronlik qilgan davr solnomalari»da yuksak baho berilgan. Uning she'rlari va nasriy asarlari ko'tarinkilik ruhi bilan sug'orilgan, adabiy uslubi nafis va erkin. Chon Chxol urush yillarida yaratgan *xanmundagi* she'rlar vatanparvarlik ruhiga to'la.

Shoirning «Songan kasa» she'rlar to'plami ona tilidagi koreys she'riyatining rivojlanish yo'lida muhim bosqich bo'lди. To'plamning 1690-yildagi birinchi nashri saqlanib qolmagan. Bizgacha yetib kelgan nashrlarning birinchisi shoirning chevarasi — Chon Chxon tomonidan 1747-yil Sonjuda nashr etilgan va 1768-yil

Pxenyanda qayta nashr etilgan. Undan to'rt doston *kasa*, sakson ikki uchlik *sijo* va bir uzun — *chan-sijo* o'rin olgan.

Umrining oxirigacha o'z podsholigiga sodiq qolgan Chon Chxol o'z she'rlarining kattagina qismini qiroqla bag'ishlagan. Bunga o'n sakkizta she'rdan iborat «Sevikli yor haqida qo'shiq» turkumi misol bo'lishi mumkin.

Chon Chxolning dunyoqarashi ziddiyatli bo'lган. Bu uning ijodida ham o'z aksini topgan. Vayron bo'layotgan uy deganda shoir Koreya davlatini nazarda tutadi, «duradgorlar» — o'zaro nifoq bilan band saroy amaldorlari.

Bu yerda ham guruuhlar o'rtasidagi behuda kurashlarga sha'ma qilinadi. Guruuhlar o'rtasidagi kurashni qoralasa-da, Chon Chxol qulay sharoit tug'ildi deguncha bu kurashga yana faol qo'shiladi. Navbatdagi mag'lubiyat uning she'rlarida pessimistik ohangni kuchaytiradi. Bir qancha *sijolarda* umidsizlik ruhi seziladi.

Yolg'iz turnani olomonga qarshi qo'yish orqali shoir o'zining «dunyo»ga salbiy munosabatini ifoda etadi. Chon Chxol *sijosi* o'zining g'oyasi, siyosiy mazmuniga ko'ra guruuhlar kurashiga berilgan oqsuyak-shoirlar *sijosidan* kengroq va o'tkirroq. Shoir she'rlarining tanqidiyligi, ijtimoiy mazmunga boyligi ularni XVI asr she'riyatining ulkan hodisalariga aylantiradi. Ijtimoiy-siyosiy mavzudan tashqari, Chon Chxol *sijolarida* boshqa mavzular ham aks ettirilgan. Bu yerda, masalan, muhabbat mavzusidagi she'rlarga duch kelish mumkin.

Chon Chxol *sijolarida* peyzaj lirkasi, mehnat va nochorlarga hamdardlik mavzulari ham yangraydi. Shoirning bir qancha she'rlari uning tarkidunyochilikka moyil kayfiyatini aks ettiradi.

Aynan Chon Chxol kasa janrini barkamollik darajasiga ko'targan va uni rivojlantirishning boy imkoniyatlarini namoyish etgan.

O'tgan asrlar koreys adabiyotshunoslari, ba'zan hozirgi tadqiqotchilar ham Chon Chxol *kasalarining* deyarli barchasini, ayniqsa «Sevgilimni qo'msayman» va «Ikki ayol suhbat»ni,

shuningdek bir qancha *sijolarni* quvg‘indagi shoirning qiroq Sonjoga nomasi sifatida talqin qiladilar. To‘g‘ri, uning asarlarida «podsho, janob, xo‘jayin» degan ma’noni anglatadigan koreyscha *nim* so‘ziga duch kelish mumkin. Ayrim she’rlarda u ayni shu ma’noda ishlataladi. Shoir, chin konfutsiychi sifatida, o‘zining burchi podshoga sadoqat bilan xizmat qilish ekanligiga ishonadi. Konfutsiychilik ta‘limotiga binoan, komil inson podshoga xizmat qiladi va shu tariqa mamlakat ravnaq topishiga ko‘maklashadi. Ayni shu sababli «podsho» tushunchasi Chon Chxol she’rlarida odatda «davlat» tushunchasi bilan mos keladi. Saroy a‘yonlaridan farqli o‘laroq, shoir qiroq e‘tiborini qozonishga harakat qilmaydi. U lagabardorlikdan xoli bo‘lgan sadoqat haqida mulohaza yuritadi. Bu sidqidillik unga ancha qimmatga tushadi (hasadgo‘ylarning fitnalari tufayli u bir necha marta quvg‘inga uchraydi), lekin, shu bilan bir vaqtda, barcha mushkul vaziyatlarda unga kuch va ishonch baxsh etadi.

Umuman olganda, Chon Chxol *nim* so‘zini ishlatganda ko‘proq «sevgilim, yorim»ni nazarda tutadi, ayol va erkak o‘rtasidagi muhabbat va hurmatning oliy shakliga urg‘u beradi. Zero, konfutsiychilikka xos bosiqlik o‘sha davrda sevikli yorga bo‘lgan tuyg‘ularni ochiq ifodalash imkoniyatini bermagan. Shu bois Chon Chxol muhabbat mavzusida ham o‘ziga xos ifoda usullari, mubolag‘alarni izlashga majbur bo‘lgan.

Shuning uchun ham Chon Chxolning «qirol»ga murojaatlari tarjimalarda ko‘pincha «sevikli yor»ga murojaatlar bilan almashtiligan. O‘ta asrlar lirik she’riyati ana shunday o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan.

«Kvandonga sayohat» dostoni (1580) Chon Chxolning eng yirik va mazmunan salmoqli *kasasi*. Bir marta ko‘rgach, madh etmaslik mumkin bo‘lмаган Olmos tog‘larining sakkiz diqqatga sazovor joyi Chon Chxolga qadar ham koreys adabiyotining sevimli mavzularidan biri bo‘lgan. Ammo Chon Chxolga qadar ham, undan keyin ham Koreya peyzajlarining bu qadar kuchli badiiy tavsifi yaratilmagan, tabiat manzaralari falsafiy va badiiy jihatdan bu darajada teran idrok etilmagan.

Dostonning dastlabki misralari Chon Chxol o'zining betobligini vaj qilib davlat ishlarini tark etgan va o'z vatani, Chollado provinsiyasiga kelib yashagan davr manzarasini gavdalantiradi.

Shoir «Bambukzor» nomini ishlatish orqali bir she'riy shtrix — ishora bilan o'zining erkin ijodiy kunlari muhitini gavdalantiradi. Ammo u davlat xizmatiga qaytayotganidan mammun va bo'lg'usi faoliyat fikri bilan yo'lga chiqadi. Shu tufayli ham, shoirning dostondagi tarixiy reminissensiyalari mutlaqo o'rinali va tabiiy bo'lib tuyuladi. Ularning barchasi konfutsiychilik ruhi bilan hamohang.

Chon Chxol davlatga asos solgan Kun Eni va ideal podsho Xveyanni esga oladi va o'zi hokim ctib tayinlangan Kanvondo provinsiyasida qadimgi tartibga tiklashni orzu qiladi.

Aholisining yuksak fazilatlari bilan dovrug taratgan Kannin haqida so'z yuritar va mamlakatda odamlar xulq-atvori buzilganidan afsuslanar ekan, shoir hayratlanib yozadi.

Chon Chxolning tarixiy reminissensiyalarida konfutsiychilikka xos bo'lgan qadimga sig'inishgina emas, balki o'zi yashagan davr voqeligiga tanqidiy munosabat ham namoyon bo'ladi. Chon Chxolning fikri odamlar dunyosiga qaratilar ekan, u o'z afsusnadomatini yashira olmaydi, birgina tabiat shoir uchun boqiylik va uyg'unlikning o'chmas timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Chon Chxol odamlar boylik va hokimiyat ketidan quvib, insонning asl vazifasi nimadan iborat ekanligini unutganlarini afsus bilan qayd etadi. U bokira tabiat yaratgan material yordamida insонни qaytadan yaratish kerak deb hisoblaydi. Ona tabiat go'zalligi Chon Chxolning kayfiyatini o'zgartiradi. Bo'lg'usi davlat faoliyati bilan bog'liq tashvishli fikrlar yo'qoladi, konfutsiychilik ruhidagi tarixiy reminissensiyalar ham ortga chekinadi. Chon Chxol o'zi tabiatda topgan idealni madh etadi.

Shoir o'zaro nifoqlar unutilib, mamlakatda tinchlik va adolat hukm sura boshlaydigan davrni kutadi. Buni Maytreya ma'budiga ishora ham tasdiqlaydi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Buddaviylar yaxshi kelajakka bo'lgan ishonchni Maytreya ismi bilan bog'laganlar.

Chon Chxol o'ta yorqin, bayramona tabiat manzaralarini yaratadi: tabiat bilan birikish tuyg'usi tog'lar va vodiylar bag'rida abadiy qolish istagini uyg'otadi. Afsonalarga ko'ra, Olmos tog'lari manzarasidan maftun bo'lib, tarkidunyo qilgan to'rt Silla ritsari – xvaranlarni shoir o'z she'rлarida ko'p eslashi tasodifiy bir hol emas.

Daocha kayfiyatlar Chon Chxol dostoniga Li Bo asarlari orqali kirib kelgan. Doston sahifalarida tan davri buyuk shoirining obrazini ko'p uchratish mumkin.

Doston oxirida Chon Chxol qarshisida Li Bo ruhi paydo bo'ladi. Obrazlar davrasi kengayadi, daochi avliyoga xos bo'lgan timsollar – oy ham, turna ham paydo bo'ladi. Tabiat bilan birikish ideali (parvoz motivi) birinchi o'ringa chiqadi. Ba'zi bir misralarda daosizm yodgorliklariga ishoralar ham mavjud bo'lib, ular Le Szining shamol bilan sayohati haqidagi voqeani eslatadi.

Chon Chxol Li Bodan ulkan kosmologik va tabiiy obyektlar bilan osongina ish ko'rishni o'zlashtirgan. Uning asarlarida Katta Ayiq may uchun cho'michga, Sharqiylengiz suvi – mast qiluvchi ichimlikka aylanadi. Bu o'zini tabiiy dunyoning ajralmas qismi deb idrok etish bilan ham bog'lanadi.

«Kvandonga sayohat» dostonida Chon Chxol qaysidir bitta mafkuraviy konsepsiya amal qilmaydi – asar sahifalarida daosizm motivlari konfutsiychilik motivlari bilan yonma-yon keladi. Chon Chxol yashagan davrda uning dunyoqarashidagi ziddiyatni faqat ikki yo'l – utopiya va tabiat bilan birikish (tarkidunyochilik) yordamida hal qilish mumkin bo'lган.

Keyinchalik birinchi yo'l Chon Chxol uchun noreal bo'lib chiqadi, chunki uning islohotchilik faoliyati bilan bog'liq umidlari chilparchin bo'ladi. Shoirning qarshisida ikkinchi yo'l – tabiat bilan birikish qoladi. Keyinroq Chon Chxol o'zining eng yaxlit asari – izchil qarashlar tizimidan iborat bo'lgan «Sonsan navolari» dostonini yaratadi. Ma'naviy jihatdan barkamol donishmand – «*szünszi*» obrazi o'rnini unda poxol choriq va yupun kiyimdag'i zohid egallaydi. Dunyo tashvishlaridan «tog'lar va daryolar» bag'riga qochish, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik

shoir uchun ichki erkinlikka erishish vositasiga aylanadi. «Sevgilimni qo‘msayman» va «Ikki ayol suhbat» dostonlari (1585–1588-yillar) shu darajada lirik va g‘amgin asarlarki, XVIII asr koreys musavviri Kim Sansuk ta’biri bilan aytganda, «kitobxonning ko‘zida yosh chiqarishga qodir». «Ikki ayol suhbat» o‘sha davr koreys adabiyotida ikki ovozlilik shaklining kam uchraydigan namunasidir.

O‘rtalaslar koreys adabiyoti tarixida *Songan kasa* darajasida mashhur bo‘lgan, boz ustiga koreys tilidagi boshqa mualliflik to‘plamini topish mumkin bo‘lmasa kerak. O‘tmish shoirlari va yozuvchilarini uning haqiqiy badiiy qimmatini tan olganlar. *Sirxak* g‘oyaviy oqimi asoschisi Li Sugvan Chon Chxol *kasalarini* «yangi davrning eng yaxshi qo‘schiqlari» deb tavsiflagan. Kim Manjun va Kim Chxontxek Chon Chxol *kasalarini* Syuy Yuan asarlari, xususan uning «Qayg‘u va g‘azab dostoni» bilan taqqoslab, bu shoirlar ijodini «Quyosh va Oy raqobati»ga tenglashtirgan. Kim Manjun Chon Chxolning to‘plamini «ona tilidagi adabiy andoza» deb nomlagan.

Shoir asarlariiga bunday yuksak baho berilishining sababi, ular insonparvarlik ruhi va chuqur lirizm bilan sug‘orilganida, she‘r tili va ohangining go‘zalligidadir. «Aniqlik», «soddalik» va «qisqalik» estetikasini anglab yetgan Chon Chxol uni xalqqa tushunarli bo‘lgan tilda ifodalagan. Keng ko‘lamlilik, dinamizm va ekspressivlik – Chon Chxol ijodiy uslubiga xos xususiyatlar. Shoir she‘riyatining betakrorligi Chon Chxol shaxsining o‘ziga xosligi bilan ham belgilanadi. Shoirning asarlari uning hayotidan ko‘chirib olingan nusxalardir. Aksariyat hollarda ular muayyan shaxsiy yoki ijtimoiy voqealar ta’sirida yaratilgan.

Chon Chxol *kasalarining* deyarli barchasi *xanmunga* o‘tkazilgan, ular keyingi davrlarda yashab ijod qilgan shoirlar uchun o‘ziga xos andozaga aylangan. Ular og‘izdan og‘izga o‘tgan va qo‘lyozma ko‘rinishida tarqalgan. Ularni mohir ashulachilar ijro etgan. *Kasalarga* notalar yozilgan, *sijolar* esa antologiyalardan kuylariga ko‘ra o‘rin olgan. Ayrim dostonlar qo‘sinqilib aytildigan xalq ertaklari – *pxansoriga* asos bo‘lgan.

Chon Chxol she'rlari ingliz, fransuz, yapon, xitoy tillariga o'girilgan. Ular hanuzgacha koreys mumtoz adabiyotining durdonalari qatoridan o'rinn olib kelmoqda.

XV–XVI asrlarda koreys yozuvi amalga kiritilgani va mazkur yozuvda yaratilgan she'riy asarlar paydo bo'lganiga qaramay, ushbu ikki asr mobaynida *xanmun* badiiy nasr tili bo'lib qolgan.

Ona tilidagi she'riyat — *sijo* insonning ichki dunyosiga murojaat etadi, ayni shu jarayon xitoy tilidagi she'riyatda ham yuz beradi. XVI asrda adabiyotda ayollar — *kisen*, ya'ni oliv tabqa vakillarining ismlari paydo bo'ladi. Ularning she'rlarini mashhur so'z ustalari biladi, muhokama qiladi va ularga baho beradi. Masalan, Xvan Jinni xitoy tilida yozilgan sevgi va tabiat haqidagi she'rlar ustasi sifatida ham dong taratadi. U bilan yonma-yon Li Keran (1573–1611) ijod qiladi. Mechxan taxallusi bilan mashhur bo'lgan bu shoira o'z tuyg'ulari, taqdiri va kechinmalarini she'rga soladi.

Amaldorning xotini va neokonfutsiychi-saylasuf, shoir Li Ining onasi Sin Saimdan (1504–1551) shoir va rassom bo'lgan. Nan Sor Xon ismi bilan mashhur bo'lgan shoira Xo Chxoxi (1563–1589) dovrug'i ayniqsa keng tarqalgan. Uning har bir she'ri hayotining bir sahifasidir.

Xitoy tilida yozilgan ayollarning she'rlarida shoiralarning individual dunyosi aks etadi. Ular o'z muhabbatি, tuyg'ularini oilaga baxshida etgan. Ularning tabiatga bag'ishlangan she'rlari ham ayollarning shaxsiy kechinmlarini bilan bog'liq.

Nasrda syujctli janrlar ayniqsa muhim rol o'ynay boshlaydi. To'qima qahramon paydo bo'ladi, uning kundalik shaxsiy hayoti tasvirlanadi. Nasrda kichik shakllar, eng avvalo *pxesol* to'plamlarida jamlangan qisqa novella yetakchilik qiladi.

XV–XVI asrlarning eng mashhur yozuvchiları «Sharqiy to'plam» (130 jıldan iborat) tuzuvchisi, «Mashhur xattotlar haqida hikoyalari», «Tinchlik va farovonlik yillari hikoyalari» va «Koreys shoirlarining she'rlari haqida hikoyalari» to'plamlarining muallifi So Gojon, «Yonjening turli hikoyalari», «Yonchxonning yolg'izlikda yozilgan hikoyalari» to'plamlarining muallifi Son Xyon (1439–1504), «Pxegvanning kulgili hikoya-

lari» to‘plamining muallifi O Sukkovon bo‘lgan. Bu mualliflarning hikoyalarida qahramon odatdagi vaziyatda harakat qiladi. U biron-bir belgiga ko‘ra boshqalardan farq qiladi (masalan, ko‘r odam) yoki jamiyatda alohida mavqega ega (masalan, buddaviy rohib, beva va sh.k.). Shuning uchun bo‘lsa kerak, qahramon dunyoni normal odamlardan boshqacha idrok etadi. Novellalarda vaziyatdagi keskinlikka va komik effektga qahramoning kundalik hayot bilan to‘qnashuvi orqali erishiladi. Masalan, «O‘z xotiniga jazman bo‘ldi» asarini misol tariqasida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

XV–XVI asrlar *pxesoliga* kundalik hayotni tasvirlashga intilishgina emas, balki kundalik hayotning «tuban» tomonlariga urg‘u berishga harakat qilish ham xos. Buzuq rohiblar va bevalarning ko‘ngilxushliklari novellalar mavzusiga, mechkaylik esa – ko‘ngilsizliklar omiliga aylanadi. Shunday qilib, hayotda erkak va ayol nozik munosabatlariga bo‘lgan qiziqish xalq og‘zaki ijodidagi kabi dag‘al tarzda ifodalananadi.

*Pxegvanlarning* hikoyalari kengroq adabiy janrlarga o‘tish uchun tasviriy vositalarga yetarli darajada boy bo‘lgan.

Ijtimoiy hayotdan uzoqlashishga intilish shaxsiy manfaatlar sohasiga kirish bilangina emas, balki bu o‘zgaruvchan dunyoda insonning o‘rni va vazifasi haqidagi mulohazalar bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Mazkur mulohazalar daosizm dunyoqarashi ruhi bilan sug‘orilgan adabiyotning rivojlanishini rag‘batlantirgan. Mazkur adabiyotda Lim Je ijodi markaziy o‘rinni egallaydi.

Lim Je (ikkinchi ismi – Chja Sun, taxallusi Pek Xo, Kyom Chje) janubdagagi Nachju shahrida dvoryan oilasida tug‘ilgan. Lim Je zamondoshlari uni, Kim Si Sip va yana ikki shoirni «to‘rt buyuk» deb nomlagan. Lim Je davlat xizmatiga imtihondan o‘tgan bo‘lsa-da, lekin mansabdorlikdan adabiy faoliyat bilan shug‘ullanishni afzal ko‘rgan.

Serqirra iste’dod sohibi bo‘lgan Lim Je she’riyatda ham, nasrda ham samarali ijod qilgan. Uning she’riyatiga fuqarolik mavzulari ham, lirik mavzular ham xos. Uning ko‘pgina she’rlari vatanga muhabbat, mamlakat taqdiri haqida g‘am chekish ruhi bilan

sug‘orilgan. Lim Je podsholarning mamlakatni bosqinchilardan himoya qilishga befarqligini qoralagan.

Ammo Lim Jega haqiqiy shuhratni uning nasriy asarlari keltirgan. Lim Je ijodining ilk davrida «Von Senning tushdagi sayohati» novellasi yaratilgan bo‘lib, unda qahramon yerda nohaq ayblanganlarning ruhlari yashaydigan dunyoga tushib qoladi. Lim Je qalamiga uch qissa: «Gullar tarixi», «Qayg‘u shahri» va «Kema ostidagi sichqon» ham mansubdir.

Lim Jening zamondoshlari orasida bu darajada teran fikrlaydigan yozuvchini topish qiyin. Uning asarlari sirtdan yengil-yelpi bo‘lib ko‘rinsa-da, ichdan murakkab va purma’nodir.

«Gullar tarixi» qissasida gullar dunyosida to‘rt podsholikning yuksalishi va navbatma-navbat halok bo‘lishi haqida hikoya qilinadi. Bu podsholiklarning har biri yilning muayyan fasliga muvofiq keladi. Podsholar tug‘iladilar, voyaga yetadilar, uylanadilar va taxtga o‘tiradilar. Ular oqil tabaalarni o‘zlariga yaqinlashtiradilar yoki tuhmatga qulq solib xatolarga yo‘l qo‘yadilar; she‘r yozishga yoki aysh-ishratga berilib, davlat ishlari haqida unutadilar. Bu yerda hamma narsa xuddi odamlar dunyosidagi kabi. Ammo podsholar xuddi gullar kabi tug‘iladilar va so‘ladilar, ularning fazilatlari haqida guli va atriga qarab hukm chiqaradilar. «Sopol tuvak» podsholigi asoschisining xizmati shundaki, Gao-szun davlatida u podshoning qozonda pishayotgan bo‘tqasiga ziravor bo‘lib xizmat qilgan va shu xizmati uchun unga Sopol tuvakdag‘i yer hadya etilgan. Gullar odamlar bilan ayni bir qonunlar bo‘yicha yashaydilar va harakat qiladilar, lekin, shu bilan bir vaqtida, boshqa — gullarning qonunlariga ham amal qiladilar. Ular gullar va ayni vaqtida odamlar hamdir.

«Gullar tarixi» tarixiy asar turlaridan birining qoidalariga binoan yozilgan, uning shaklini aniq gavdalantiradi. Voqealar boshqaruvi yillari bo‘yicha, «xolisona» bayon etiladi, muammo tug‘ilgan hollarda tarixchining ovozi aralashadi. To‘ttala podsholik tarixlari ham uning birinchi shaxs nomidan bildirilgan mulohazalari bilan yakunlanadi. «Gullar tarixi» tarixchining inson tabiatining norasoligi

haqidagi umumiy mulohazasi bilan tugaydi. «Tarixchining so‘zi» qissadagi voqealar bayoni bilan kontrastga kirishadi.

Tarixiy asarlarning mualliflari o‘rnak bo‘ladigan xulq-atvordan namunalar va nomaqbul xatti-harakatlarga misollar keltirish orqali podsho va tabaalarning xulq-atvor andozalarini yaratishga harakat qilganlar. Zamondoshlar podsho va uning amaldorlarining qaysidir harakatlarini ideal me’yorlarga nomuvofiq deb topsalar, tarixiy asar ba’zan o‘z nomunosib asrining tanqidi sifatida qabul qilingan. Lim Jening zamondoshlari «Gullar tarixi» asari bu jihatdan tarixiy asardan farq qilmasligini anglab yetishgan.

Gullar podsholigida tavsiflangan ko‘pgina holatlar yozuvchining zamondoshlariga juda tanish va dolzarb narsalarni eslatgan. O‘rta asrlar koreys kitobxoni gullar podsholigining fantastik personajlarini hozirgi kitobxonidan butunlay boshqacha idrok etgani shubhasizdir. Masalan, qishsovug‘idan qo‘rqmaydigan qarag‘ay va sarv daraxtlari o‘rta asrlar kitobxoni uchun podshoga sadoqatli tabaalar, o‘z maslagiga sodiq kishilar timsoli sanalgan. Bu obrazlarga Konfutsiyning «Mulohazalar va suhbatlar» kitobida ham duch kelish mumkin.

Adabiyotda qor orasidan yam-yashil bo‘lib ajralib turadigan bambuk ham asrlar osha ayni shu ma’noda idrok etilgan. Nilufar bokiralik, xrizantema – olijanoblik timsoli sanalgan. Ayni shu sababli «Gullar tarixi»da shaftoli oddiy shaftoli emas, balki qadimgi «Qo’shiqlar kitobi»da belgilangan timsol. Uzoq Sharq mammalakatlari madaniyatida gul bilan bog‘liq timsollar ulkan rol o‘ynagan. Asosiy gullar dunyo tomonlari, yil fasllari, u yoki bu podsho boshqaruvi bilan tenglashtirilgan. Bu esa gullar podsholigidagi vaziyatlarni ko‘chma ma’noda tushunish imkoniyatini kuchaytirgan, o‘rta asrlar kitobxonida qo‘srimcha assotsiatsiyalar uyg‘otgan.

Uzoq Sharq madaniy an’analari bilan belgilangan tarix va jamiyat xususidagi muayyan qarashlar Lim Jega o‘z allegoriyalarini yaratishga yordam bergan. Umuman olganda, tarixiy asar personajlari istalgan narsa – gul, hasharot va hokazolar bilan almashtirilishi mumkin, ular harakatlarning lozim obrazini saqlab qolsa, bas. Lim Je shunday ish tutadi. U mexanizm detallarini

almashtiradi va uni ishlashga majbur qiladi. Yozuvchi odamlarni xizmat pillapoyalaridan ko'tarilish uchun o'z vijdonini sotmaslikka, balki o'z yaxlitligini saqlab qolish va «barkamollik namunasi» — tabiatga qaytishga chaqiradi.

Bu tasodifiy topilma emas, balki o'rta asrlar dunyosining sxemasiga ongli munosabat ekanligini Lim Jening boshqa asarlari ham tasdiqlaydi.

«Qayg'u shahri» qissasida ham voqealar odamlar dunyosi qonunlariga muvofiq tashkil etilgan dunyoda yuz beradi: bu yerda ham podsho va tabaalar o'rtasida munosabatlar amal qiladi, podsholikning mavjudligini belgilaydigan bosh omil — podshoning tabiatda yorug'lik va zulmatning uyg'unligiga erishish va uning buzilishiga yo'l qo'ymaslik qobiliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Umuman olganda, hamma narsa odamlar dunyosidagidek va hamma narsa gullar podsholigidagidek. Ammo qissada ishtirot etuvchi shaxslarga g'alati ismlar qo'yilgan. Bu yerda Yurak podsholik qiladi, uning tabaalari — Insonparvarlik va Odillik, uning xizmatkorlari — Ko'rish qobiliyati va Eshitish qobiliyati, Nutq va Harakat. Ular bilan bir qatorda Don va Xamirturushdan bino bo'lgan bahodir May jang qiladi, bahodirning izidan chopar — Pulni jo'natishadi, zero, «may bor joyda pul ham bo'ladi».

«Qayg'u shahri»dagi hikoyani biz xayoliy, lekin muallifdan sirdagi obyektiv dunyoda yuz berayotgan voqealar bayoni sifatida idrok etamiz. Ammo o'rta asrlar koreys kitobxoni bu asarni o'zgacha idrok etish uchun asosga ega bo'lgan. Inson vujudi va davlatni bir-biriga o'xshatish Uzoq Sharq madaniy an'anasisiga xos bo'lgan. Inson organizmi «mikrokosm» sifatida, aniqroq aytganda, «makrokosm» — davlatning aniq nusxasi sifatida fikrlangan. Ularning ish mexanizmi va tuzilishi bir xil deb hisoblangan.

Bu «Qayg'u shahri»ni yozuvchining tarix xususida mulohaza yuritish jarayonini, ya'ni muallifga nisbatan «ichki» jarayonni tasvirlovchi asar sifatida tushunish imkoniyatini beradi. Mazkur mulohazalar uni sodiq va prinsipial odamlar kamdan kam holda xizmatiga yarasha mukofotlangan, ularning hayoti ko'pincha fojiali tugagan, degan achchiq xulosalarga olib kelgan. Natijada u mayni

qayg'uni tarqatish va o'zini qurshagan dunyo bilan uyg'unlik hissini uyg'otishning birdan-bir vositasi deb hisoblagan.

O'zboshimchalik va zo'ravonlikka qarshi norozilik, o'zaro nifoqlarga berilgan hokimlar – feodallarning faoliyatsizligini qoralash, oddiy xalqqa sidqidildan hamdardlik Lim Je asarlariga xos.

Yozuvchining satirik sifatidagi qobiliyati «Kema ostidagi sichqon» qissasida ayniqa bo'rtib namoyon bo'lgan.

Koreys adabiyotida sichqon obrazi ekspluatator – feodal yoki dehqonlardan hosilni deyarli to'liq tortib oluvchi qirol amaldori timsolidir. Bu obrazdan Lim Je ham foydalangan.

Yozuvchi Sichqon omborga kirgani, donni yegani, ammo – o'sha davrda kamdan kam uchragan hol – qo'lga tushgani va shafqatsiz Ruh – Omborxona Sohibining sudi oldida javobgar bo'lGANI haqidagi voqeani hikoya qiladi. Og'ir jazodan qo'rqqan ayyor Sichqon o'z aybini boshqalarga to'nkay boshlaydi. Vijdonsiz Sichqon o'zini oqlash uchun hatto muqaddas hayvonlarga ham tuhmat toshini otishdan qo'rqi maydi.

Tadqiqotchilar qissaning g'oyaviy mazmunini feodal jamiyat nuqsonlari satirik aks ettirilgani bilan cheklash adolatdan bo'lmasligini qayd etadilar. Sichqon obrazi bizda kuchli nafrat uyg'otmaydi. Qissa qari Sichqon o'g'ri va aldoqchi, lekin uning aqliligi, mulohazakorligini ham inkor etish mumkin emas. Naqadar ajablanarli bo'lib tuyulmasin, lekin Sichqon niqobi ostida Lim Jening o'zi yashirin. U nafaqat Sichqonni qoralaydi, balki o'z g'oyalarini uning nomidan ifodalaydi. U bunday ijtimoiy hodisalarning asl sabablarini ochishga harakat qiladi va bunda butun jamiyat aybdor ekanligini isbotlaydi. Yozuvchi o'sha davrda Koreyada mavjud bo'lgan uch ta'llimot: konfutsiychilik, buddizm va daosizmning kamchiliklarini fosh qiladi. Lim Je mazkur masfkuralar ziddiyatli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatib beradi. U konfutsiychilik aqidalari quruq gapdan boshqa narsa emasligini qayd etadi. Omborxona Sohibi – Ruh obrazida ham yuqori turuvchi boshliqlar ruxsatisiz jinoyatchi Sichqonga hukim chiqarishga jur'at

qilmaydigan ashaddiy konfutsiychi amaldorning tipik obrazi namoyon bo'ladi.

Sichqon buddizm haqida ham ochiq-oydin gapiradi: «Yolg'on-yashiq gaplar bilan buddizm xalqni butga sig'inishga majbur qiladi». Sichqon daosizmni ham tanqid qilishni unutmadi. Natijada Turna va Ohuning aybsizligiga Ruhning o'zi ham shubha qila boshlaydi. Daosizmning behudaligi, tog'lar va o'rmonlarda yashirinib yurgan daochilardan xalqqa hech qanday soyda yo'qligi haqidagi mulohazalar Ruhning o'z og'zidan yangraydi.

Shu tariqa o'g'ri Sichqon fosh qiluvchi Sichqonga aylanadi, ayblanuvchining o'zi ayblovchiga aylanadi. Bosh qahramonning bunday ikkiyoqlamaligi asarning asosiy g'oyasini yaxshiroq tushunishga, u g'azna o'g'rilarigagina emas, balki bunga sabab bo'lувчи ijtimoiy tuzumga ham qarshi qaratilganini anglab yetishga yordam beradi.

Lim Je badiiy uslubining diqqatga sazovor jihatlaridan biri – satirik va allegorik asoslarni o'ziga xos tarzda birlashtirishdir. Yozuvchi o'z davrining ko'pgina salbiy jihatlarini ko'rsatib berishga muvaffaq bo'ladi. Bunda u kamchiliklar va nuqsonlarni to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmaydi, balki ularni mubolag'a yordamida aks ettiradi. Aynan Lim Je ijodi ta'sirida koreys adabiyotida mazkur an'ana paydo bo'ldi va keyingi yillarning juda ko'p boshqa satirik asarlarida («Qirg'ovul haqida qissa», «Quyon haqida qissa») davom ettirildi.

XVII asr koreys adabiyotining eng yirik vakillaridan biri bu Kim Manjundir. Kim Manjun 1637–1692-yillarda O'rta Chosonda yashab ijod etgan koreys yozuvchi va siyosatchisi, faol davlat arbobi, taniqli sirxakchi olimdir. U 1637-yil Seulda tug'ilgan. Adabiy taxallusi Sopxo. U Choson davridagi Yangi konfutsiychilik maktabining yetakchisi Li Ining shogirdi Kim Jang Sengning nabirasi va Kim Jipning jiyani edi. Va Choson qirolichasi Ingyon xonimga kichik amaki bo'ladi. Kim Manjunning otasi Kim Ikkynom Ikkinchchi Manjur bosqini davrida o'g'li dunyoga kelishidan oldin vafot etgan. Onasi Yun xonim bo'lajak yozuvchi va uning akasi Kim Manjunni yolg'iz o'zi tarbiyalagan, farzandlariga xitoy adabiyoti va o'z xalqiga muhabbatni uyg'otgan inson. Onasi qimmatbaho kiyimlarni ko'p

kiymas, tug‘ilgan kunida ham ziyofat tashkil etmasdi, ammo farzandlari imtihondan o‘tganda, albatta, ziyofat uyuşdırır edi. Farzandlariga dastlabki ta’limni Yun xonim bergen. Adib 12 yoshida yozish qobiliyatiga ega bo‘lgan. Onasi o‘g‘li imtihon topshirgani kirib ketganda o‘g‘lini poylab, imtihon tugagunga qadar yig‘lab o‘tirgan<sup>1</sup>. Ilk bor 29 yoshida Kim Manjun oliy bilim dargohi Songkyungvanga qabul qilinadi. Kim Manjun konfutsiylikdan tashqari yangi konfutsiylik, arifmetika, geografiya kabi fanlardan boxabar bo‘lgan, uni iqtisodiy muammolar, ta’lim va ma’rifat masalalari qiziqtirgan. 1674-yili u olimlar Li Su Gvan va Kim Yuk bilan hamkorlikda Koreya xaritalarini tuzish bo‘yicha ko‘p yillik ishni tamomlagan. U koreys madaniyati va ona tilining otashin targ‘ibotchilaridan biri bo‘lgan, xitoy madaniyatiga qullarcha taqlid qilishga qarshi chiqqan.

Byurokratik feodal davlatda o‘z iste’dodi bilan Kim Manjun yuqori mavqega erishadi. Yanban sinfidan chiqqan Kim Manjun «kvago»<sup>2</sup> imtihonini muvaffaqiyatli topshirib qirol xizmatiga kiradi va Qirol Sukjong davrida saroy amaldori sisatida xizmat qilib, keyinchalik saroy vaziri darajasiga ko‘tariladi. Ammo uning hayotidagi ziddiyatli davr ham aynan shu paytdan boshlanadi. U 44 yoshida davlat ishlaridan chetlashtiriladi. 51 yoshida esa qirolichcha Inxyonning yordami bilan saroya qaytadi. Ammo haqiqatgo‘yligi sabab yana bir necha bor davlat ishlaridan chetlatilib, surgun qilinadi. 1690-yilda adibning onasi dunyodan o‘tadi. So‘nggi daqiqalarda onasining yonida bo‘la olmaganidan u juda ham kuyinib dardga chalinadi va yozuvchi 1692-yil 55 yoshida Namvon shahrida dunyodan o‘tadi.

Kim Manjun adabiy faoliyati siyosatdan ustun bo‘lgan. Uning qarashlari Sirxak yoki Pragmatik maktab qarashlariga yaqin bo‘lgan. U yoshligidan she’rlar yozib yurgen. U surgun qilinib, onasidan yiroqda bo‘lgan paytida «Bir kunlik tush» nomli she’rini yozadi<sup>3</sup>. Uning ilk bor nasrda yaratgan katta hajmli asarlari «To‘qqiz

<sup>1</sup> 김 만중. 구운봉. -서울, 2004, -19쪽.

<sup>2</sup> Kvago – Koryo davrida joriy etilgan imtihon. Davlat xizmatiga kirishni istagan ozod fuqarolargina «kvago» imtihonini topshirishga haqli bo‘lgan.

<sup>3</sup> 김 만중. 구운봉. -서울, 2004.

kishining bulutli tushi» (1687) va «Janubga surgun qilingan Sa xonimning kundaligi» (1689) koreys adabiyotida birinchi romanlar sirasiga kirgan.

Kim Manjun onasiga juda ham mehribon farzand bo'lgan. U bir umr o'zini onasining oldida xuddi yosh boladek tutgan. Bo'sh vaqtlarida onasiga turli hikoyalar o'qib bergen<sup>1</sup>. Shu asnoda unda yozuvchilik xususiyati shakllanib, turli asarlar yozishga ishtiyoq uyg'ongan. «To'qqiz kishining bulutli tushi» romanı yozuvchi siyosatdan chetlashtirilgan paytda yozilgan. Onasi unga dunyodagi har bir buyuk inson bir kun kelib shu holga tushishini, ortiqcha qayg'urmasdan sog'lig'ini o'ylashi kerak ekanligini uqtirar edi<sup>2</sup>. «To'qqiz kishining bulutli tushi» asari yozuvchi onasining maslahatlariga amal qilganligini ko'rsatadi. Adib bu asarida dunyo aslida bir tush ekanligi, arzimas tashvishlarni jiddiy qabul qilmaslik kerak, degan g'oyani ilgari suradi.

Ikkinci yirik roman «Janubga surgun qilingan Sa xonimning kundaligi» esa mavzu jihatdan taxtdan ayrılgan qirolicha Inxyon taqdirini eslatadi. Demak, bu asarni Qirol Sukjongning faoliyatiga munosabatini bildirib, qirol yo'l qo'yan xatoliklarni ko'rsatish maqsadida yozilgan asar sifatida tahlil qilish mumkin. Uning so'nggi asari «Chon xonim haqida qissa» (1690) bo'lib, asar yozuvchida adabiyotga mehr uyg'otgan inson, uning onasi Yun xonimga bag'ishlangan.

Kim Manjun yozuvchilikdan tashqari, adabiy tanqidchi sifatida ham o'z qarashlarini bildirib o'tgan. Adibning «Sopxoning badiiy yozmalari» to'plamida tanqidchi sifatidagi qarashlarini ko'rish mumkin. Ushbu to'plamda adib koreys xalqining Xitoy madaniyatiga ko'r-ko'rona taqlid qilishini tanqid ostiga oladi va milliy urf-odat va an'analarni yoqlab, ijodida unga urg'u beradi.

Kim Manjunning eng mashhur asari «To'qqiz kishining bulutli tushi» romanidir. Asar sharqda pro-modern roman hisoblanib, g'arb adabiyoti romanidan farq qiladi. Asardagi voqealar IX asrda Xitoyda sodir bo'lsa-da, aslida XVII asr Choson sulolasi davri

<sup>1</sup> James Gale. «The cloud dream of nine». — L., 1922, — 5 page.

<sup>2</sup> James Gale. «The cloud dream of nine». — L., 1922, — 6 page.

nazarda tutilgan. Bu asar keyingi asrlarda xuddi shu janrdagi «tush»ga asoslangan asarlarning yaratilishi uchun turtki bo'ldi. Bu asarning badiiy qiymati birinchi koreys romanini ekanligi bilan o'lchanadi. Oradan qancha asrlar o'tsa-da, hamon kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Asar koreys tilida qayta-qayta nashr etilgan. Asarning dastlabki asl nusxasi hozirda Seul Universitetida saqlanmoqda, asar to'rt kitob va to'rt bo'limdan iborat. Asarning bu nusxasi yozuv uslubi bilan o'rta asrlardagi boshqa asarlardan ajralib turadi. Asarning kalligrafik usuli juda ham nafis va betakrordir<sup>1</sup>.

Ushbu asarni o'rganish bo'yicha nafaqat Koreya, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida tadqiqotlar olib borilgan. Asar xitoy, yapon, ingliz tillariga, hozirgi kunda esa koreys filologiyasi kafedrasini professor-o'qituvchilari tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan<sup>2</sup>. Dastlab asar 1922-yilda asli kelib chiqishi kanadalik bo'lgan koreysshunos olim Jeyms Geyl tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan va Londonda «Vestminster» nashriyotida nashr etilgan. Keyinroq esa Nyu-York universiteti professori Suzanna Fessler Geyl tarjimasiga qo'shimcha qilib, kirish qismini qo'shadi. Jorjtoun universiteti o'qituvchisi Francheska Cho esa asarning badiiy tahlilini amalga oshirib, asarga sharh yozgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, asar jahon adabiyotining durdonalari qatoriga kiritilgan.

Kim Manjun ilk romani bo'lgan «To'qqiz kishining bulutli tushi» asarini 1687–1689-yillarda siyosatdan chetlashtirilgan paytida yozgan. Ushbu asar yozuvchining onasiga atalgan bo'lsada, yozuvchi o'z asarini xalqqa yetib borishini istaydi. Biroq asarning adabiyot sohasida ham o'z qadrini topishini istagani holda, asarni ham xanmun, ham xangil<sup>3</sup> da yozadi. Chunki XVII

<sup>1</sup> 김 만중. 김 병국. 구운봉.-서울, 2008, 227쪽.

<sup>2</sup> Saydazimova U., Choy So Yong, Xvan L., Shakirova N., Kim O., Kim Y. Klassik koreys nasri antologiyasi. – T.: »Istiqlol», 2013.

<sup>3</sup> Xangil — koreys fonetik yozuvni bo'lib, 1446-yil buyuk qirol Sejong davrida va uning rahnamoligi ostida yaratilgan. U dastlab «Hunmin chonim» deb atalgan. Tarjimasi: «xalqqa oson o'rgatishga mo'ljallangan yozuv» ma'nosini beradi. Xangil uzoq vaqt xitoy iyerogliflaridan foydalansida, ularni o'rganish ko'p vaqt talab qilgani hamda oddiy xalqning uni o'zlashtirishga moddiy va ma'naviy imkoniyati mos kelmagani natijasi o'laroq, xalqni savodli qilish hamda koreylarning boshqalardan o'ziga xosligini ko'rsatib berish maqsadida yaratilgan. Hozirda Koreyada 9-oktabr — «Xangil kuni» bayrami keng nishonlanadi.

asr Choson sulolasi davrida ayollar va past tabaqa vakillari xangil orqali savod chiqargan, xitoy iyeroglislarini o'qishni bilmagani holda, oliv tabaqa vakillari koreys yozuvida yaratilgan asarlarni nazarga ilmagan. Shu boisdan ham Kim Manjun o'z asarini bir paytda ikki yozuvda yozib qoldirgan. Bu usul asarning keng yoyilishida katta xizmat qilgan.

«To'qqiz kishining bulutli tushi» o'quvchilarni Osiyoning sirli vodiylari manzaralari ichiga jalb etadi va uzoq o'tmishta ega Sharqning yopilgan eshiklarini ochadi. «To'qqiz kishining bulutli tushi» — murakkab syujet va o'ziga xos kompozitsiyali asar. Roman fantastik doiraga ega bo'lib, unda asarning asosiy mazmunini belgilovchi voqealar bayon etilgan. Romanning avvalida avliyolar dunyosida yashagan to'qqiz qahramon dunyoviy quvonchlar haqidagi fikrlar bilan o'z bokiralingini buzgani haqida hikoya qiladi. Buning uchun jazo tariqasida ularni «g'am-tashvishlar dunyosi»ga quvg'in qilinadi: ular insoniy mayllar va ehtiroslar girdobiga sho'ng'ish uchun qaytadan tug'iladi. Oxir-oqibatda ular o'z taqdirlarini birlashtiradi va o'zlariga berilgan umrni yashab, dunyoviy hayotning barcha quvonch va tashvishlarini tatib ko'rib, yana chin dunyoga qaytadilar.

Roman qahramoni Yan So Yu va sakkiz go'zal o'rtasidagi sevgi tarixi asar syujetining negizini belgilaydi. Yan So Yu hayotining asosiy mazmunini davlat hayoti emas, balki muhabbat tashkil etadi. Yan So Yu qayerda paydo bo'lmashin, hamma joyda ayollar qurshovida bo'ladi: poytaxtga imtihon topshirgani ketayotib yo'llda Chin Chxe ismli qizni uchratadi va ular bir-biriga sodiqlikka qasam ichishadi; poytaxtga kelgach Yan So Yu go'zal Ke Som Vol muhabbatidan lazzatlanadi. Imtihondan o'tib, davlat xizmatiga kirgach, u hokimning qizi Chon Gyon Pxe visoliga erishish yo'llarini izlaydi, unga sovchi qo'yadi va ayni vaqtida uning oqsochi Chun Unni kanizaklikka oladi. Hatto harbiy safarda ham Sim Yo Yon va Pek Nin Pxa kabi qizlar muhabbatini qozonadi. Sevgi jomini oxirigacha sifqorib, Yan So Yu va sakkiz go'zal yana avvalgi dunyoga qaytadilar.

Romanning o'ziga xos tuzilishi — uning «tush» so'zini oqlovchi buddaviylik g'oyasi ruhi keyinchalik XVIII asrda yaratilgan ko'pgina asarlarning mualliflari tomonidan o'zlashtirilgan.

Roman voqealarini yozuvchi Xitoya ko'chiradi. Bu adabiy an'anaga o'ziga xos yon berish yoki yozuvchi yashagan davr voqeligining tanqidini niqoblash uchun kerak bo'lgan adabiy usul.

Kim Manjunning hayot va ijodini o'rganish davomida «To'qqiz kishining bulutli tushi»ni yozishga o'zinng ko'rgan tushi turki bo'lgan, degan fikr tug'iladi. «Bir kunlik tush» nomli she'r adibning ilk romanni yozishi uchun epilog vazifasini bajargan bo'lishi mumkin. Chunki har ikki asarda ham voqealar bir kunda tushda sodir bo'lib o'tadi.

«Bir kunlik tush» va «To'qqiz kishining bulutli tushi» har ikkisi tasavvur mahsuli ekanligi bilan e'tiborni tortadi. Ikki asardagi tasavvur ham kech tundagi yolg'izlikdan boshlanadi. She'r dagi shamol va chaqmoqqa quvlanish esa shamol turib Songjinni insonlar dunyosiga tashlagan vaziyatni eslatadi.

«Bir kunlik tush»da tush va uyg'onishning almashishini «To'qqiz kishining bulutli tushi»da Songjinni uyg'otish uchun Ustozning kelishi bilan taqqoslash mumkin. Ko'z oldida tushning yo'qola borishi har ikki asarda ham uchraydi. She'r yakunidagi qahramonning xayolot dunyosini anglaganidan yostig'i nam bo'lGANI Songjiinning yig'lab tushini anglagani bilan o'xshash.

«To'qqiz kishining bulutli tushi» o'z mavzusining qiziqligi bilan o'quvchilar qalbiga tez kirib boradi. Asarning tarbiyaviy ahamiyati ham katta. Yozuvchi shaxsiy istaklarning o'tkinchi tush ekanligini ko'rsatish uchun Songjin obrazidan foydalanadi. Songjin aslida butun insoniyatning timsoli sifatida olinadi. Abadiyatdan uzoqlashib, o'tkinchi hoy-havasga berilgan jamiyatning ko'zini ochish asarning bosh maqsadi edi.

«Janubga surgun qilingan Sa xonimning kundaligi» Kim Manjunning ikkinchi romanidir. Asar taxminan 1689-yillar atrofida yozilgan<sup>1</sup>. Ammo asarning aynan qachon va qayerda yozilganligi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Asarni Kim Chuntek oqqa ko'chiradi va u faqat asarni ko'chirganligini, asar aslida Kim Manjunga tegishli ekanligini yozib o'tadi.

<sup>1</sup> 김병국. 서포 김만종의 생애와 문학. - 서울, 2001.-202쪽.

Asarning yozilishiga turtki bo‘lgan omil muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asar kanizak Jang hodisasini fosh etish maqsadida yozilgan asardir. Asar qirolicha Inxyonning taxtdan ag‘darilib, o‘rniga kanizak Jangning qirolicha bo‘lganligi munosabati bilan yozilgan. Agarda asar 1687-yil yozilgan degan fikrlarga tayanadigan bo‘lsak, bu paytda qirolicha Inxyon hali saroyda o‘z o‘rnida edi. Shu boisdan asar Kim Manjun janubga surgun qilingan 1689-yildan keyin yozilganligi haqiqatga yaqinroq. Kim Manjun 1689-yil 7-mart kuni Janubga surgun qilingan bo‘lsa, qirolicha Inxyon 23-aprel kuni taxtdan tushiriladi. Asar yakuniga ko‘ra Sa xonim Qirolicha Inxyon kabi o‘z o‘rniga qaytib keladi. Qiziq jihat esa, Qirolicha taxtga qaytarilganda Kim Manjun hayotdan ko‘z yumgan edi. Shu sababli Kim Manjun voqealar rivojini oldindan taxmin qilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Aslida asardagi Sa xonimning prototipi Qirolicha Inxyon bo‘Isa Yu Yonsu Qirol Sukjong, Kyo xonim kanizak Jang obrazidir. Saroy kanizaklaridan biri ushbu asarni Qirolda o‘qib bergenligi haqidagi ma’lumot ham mavjud. Asarda oila muammolari asosiy planda bo‘lsa-da, salbiy qahramonlar orqali yomonlik javobsiz qolmasligi va oddiy ayolning qiyinchiliklarga duchor bo‘lishi kabi epizodlar oilaviy asarlarning modeliga aylanib borgan.

O‘rta asrlar Koreyasi ayollarining ma’naviy hayoti ataylab qashshoqlashtirilgan. Bu hol ayniqsa Sirxak harakati vujudga kelgan va rivojlanayotgan davrda ularni qanoatlantirishi mumkin emas edi. Jamiyatda qabul qilingan ayollarni tarbiyalash dasturidan birinchi bo‘lib sirxakchilarining oilalari chetga chiqa boshlaganlar. Ularda qizlar va xotinlar erkaklar bilan teng ma’lumot olgan. Bunday ayollarga misol bo‘lib yozuvchining onasi Yun xonim (1617–1689) va o‘rta asrlar Koreyasinining eng o‘qimishli ayollaridan biri, bir nechta kitoblar muallifi Li xonim (1759–1824) xizmat qilishi mumkin.

Ammo XVI–XVII asrlarda ayollarining umumiyl madaniy saviyasi erkaklarnikidan ancha past bo‘lgan. Bu tafovut sirxakchilar harakati rivojlanishiga qarab, ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Mazkur davrda Kim Manjun o‘z romanida alohida e’tiborni qaratgan kisenlarning ijtimoiy-adabiy roli oshgani tasodifiy bir

hol emas. Ular kamchilik – adabiyot va san'at haqida fikr almashish mumkin bo'lgan o'qimishli va aqlli hamsuhbat ayollar yo'qligi o'rnini to'ldirganlar. Romanda qahramonlar orasida biz ikki kisen: Ke Som Bol va Chok Kyon Xonni ko'ramiz. Ularning obrazlari oljanob oilalarning vakillari bo'lgan fazilatli qizlarning obrazlaridan jonliroq chiqqan.

Roman qahramonlari yoshlarning shaxsiy mayllari e'tiborga olinmagan nikoh shakliga qarshi bosh ko'taradilar. O'zlariga yoqqan odamni tanlash uchun ular rasmiy axloq nuqtayi nazaridan misli ko'rilmagan qilmishlarni sodir etadilar. Masalan, Kyon Xon ismli qiz o'ziga ma'qul yigitni topish uchun *kisenlik* bilan shug'ullana boshlaydi. Muallif bu epizodda paradoksal xulosaga keladi: erkin bo'lish uchun ayol jamiyat tubiga tushishi lozim. Feodal jamiyat sha'niga bundan og'irroq ta'nani o'ylab topish mumkin bo'lmasa kerak.

Yan So Yuning xulq-atvori amaldagi me'yorlarga ziddir. U an'anaga ko'ra bo'lg'usi xotini bilan biror marta ham ko'rishmay va suhbatlashmay uylanishni istamaydi. Ayni shu qahramon qirolning o'ziga kuyov bo'lish taklifini rad etadi va buning oqibatida zindonga tushadi. Qahramon o'zini shaxs sifatida hurmat qilishni talab etadi. Noma'lum erkakka unga tegmoqchi ekanligi haqida xat yozgan Chin Chxe Bon ham o'z baxti uchun kurashadi.

Yirik ma'rifatchi-yozuvchi Pak Chivon ijodi XVII–XVIII asrlar koreys klassik badiiy nasri rivojlanishining tabiiy yakuni hisoblanadi. Pak Chivonning serqirra iste'dodi adabiy ijoddha ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Iste'dodli yozuvchi va shoir Pak Chivon qo'rmas publisist va yangi estetik qarashlarni ilgari surgan va himoya qilgan adabiy tanqidchi ham bo'lgan.

Umuman olganda, Pak Chivondan qolgan adabiy meros uncha katta emas. Bu «*Pagyongak vechjon*» to'plami, «*Jexey kundaligi*» ko'p jildli asaridan bir nechta parchalar, she'rlar, turli yozuvlar va sh.k. Ammo bu oz sonli asarlarda ham Pak Chivonning koreys adabiyotidagi yangi realistik yo'nalish vakili sifatidagi ulkan iste'dodi namoyon bo'lgan. Pak Chivon o'z vatani bilan g'ururlangan. U koreys xalqining kuchi va qobiliyatlariga ishongan, Koreya shuhrati, milliy adabiyot shuhratini o'zi uchun qadqli deb bilgan. Bu unga «U San haqida afsona»ni yaratishga turtki bergan.

«Pangyongak vechjon» to‘plami hikoyalarini Pak Chivon yoshligida yozgan bo‘lsa ham, muallif ularda o‘zini yetuk yozuvchi va mehnatkash xalq baxt-saodati, o‘z mamlakatining ozodligi va yaxshiroq kelajagi uchun otashin kurashchi sifatida namoyish etgan.

«Jexey kundaligi» Pak Chivon ijodida markaziy o‘rin egallaydi. Bu ko‘p jildli asarda yozuvchi o‘zi yashagan davrdagi odamlar hayotining turli tomonlarini aks ettirgan. Muallif tarixga ham, iqtisodga ham, geografiyaga ham, adabiyotga ham e’tiborni qaratadi. «Jexey kundaligi» nafaqat Koreya, balki Xitoy tarixi va adabiyotini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham diqqatga sazovordir. Xitoy va koreys adabiyotida bunday serqirra asarlar *chapki* – qaydlar, kulgili hikoyalar deb ataladi.

«Jexey kundaligi», umuman olganda, adabiy asar emas, lekin unda mustaqil badiiy asarlar deb nomlash mumkin bo‘lgan sof adabiy hikoyalarga duch kelish mumkin. Bular «Yo‘lbars jangi» va «Xo Sen haqida afsona».

«Yo‘lbars jangi» hikoyasida Pak Chivonning satirik yozuvchi sifatidagi iste’dodi ayniqsa bo‘rtib namoyon bo‘lgan. Yozuvchi konfutsiychilikning soxta axloqini fosh qiladi, jamoat tartibining daxlsiz asosi hisoblangan konfutsiychilik aqidalarining soxtaligi va asossizligini ko‘rsatib beradi, «dono» Puk Kvak ustidan kuladi va bu kulgi bunday konfutsiychi olimlar va ular bilan bog‘liq hamma narsalar o‘tmishda qoladigan kun yaqin ekanligiga yozuvchining chuqur ishonchini aks ettiradi. Muallif ataylab allegorik shaklni tanlagan – u yozuvchiga hukmron sinf va uning malayı bo‘lgan ziyolilar vakillarining nuqsonlarini ishonarli va obrazli qilib ko‘rsatib berish uchun imkoniyat yaratgan.

Markaziy obraz – keng bilimlar egasi bo‘lgan ziyoli Xo Sen. U Pak Chivon o‘z atrofida ko‘rgan olimlarning butunlay teskarisi. «Yanban haqidagi afsona» qahramonidan farqli o‘laroq, Xo Sen serg‘ayrat odam, kerakli paytda harakat qila oladi. Olim savdosotiqligini bilan shug‘ullanadi. Yozuvchi bu yerda ichki va tashqi savdoni rivojlantirmasdan mamlakatda xo‘jalik darajasini yuksaltirish, xalqaro aloqalarni kengaytirmasdan mamlakatni kuchli va boy davlatga aylantirish mumkin emas, degan fikrga urg‘u bergen. Xo Sen – yozuvchi ideallarining timsoli va shu

bois, tabiiyki, voqelik bilan ziddiyatga kirishadi. Bu jamiyatda u o'zini ortiqcha his qiladi va jamiyat qonunlari o'zini cheklamaydigan inson qadami yetmagan orolga bosh olib ketadi.

Qissada ijtimoiy ziddiyatlar ham aks ettirilgan. Pak Chivon «qaroqchilar to'dasi», ya'ni tirikchilik qilish imkoniyatidan mahrum etilgani tufayli yo'lto'sarlik qilishga majbur bo'lgan dehqonlar haqida hikoya qiladi. Muallif ularga chin dildan hamdardlik bildiradi. «Xo Sen haqida afsona»da yozuvchi ijodida ilk bor qo'zg'olon ko'targan dehqonlar tasvirlangan.

Pak Chivon kelajakda jamiyat sinsiz bo'lishiga va uning negizini mehnat tashkil etishiga ishongan. Shu sababli qissa oxirida muallif Xo Sen orolda odamlarni boylar va kambag'allarga ajratish odati bo'limgan mamlakatni yaratgani haqida hikoya qiladi. Pak Chivon asarlaridagi boshqa obrazlardan farqli o'laroq, Xo Sen obrazi u yashagan davrdagi Koreyaga xos emas. Bu — kelajak odami, yozuvchining estetik ijtimoiy ideallari timsoli.

Realist Pak Chivon hayotiy, tipik obrazlar galereyasini yaratgan. Oqil Min On, mehnatkash Om Xen Su shular jumlasidan. Ammo «Xo Sen haqida afsona»da yozuvchi romantik sifatida namoyon bo'ladi. To'g'ri, bu asarda Pak Chivon o'zi yashagan davrning realistik manzarasini yaratgan, lekin «Xo Sen haqida afsona» asosan romantik xususiyatga ega. Muallif o'zi tasvirlagan utopik davlat amalda ham mavjud bo'lishiga kitobxonni ishontirishga harakat qilgan.

Qissada Pak Chivonning falsafiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari o'zining badiiy ifodasini topgan. Shu ma'noda uni Volterning falsafiy asarlari bilan taqqoslash mumkin. «Kandid» muallifi kabi, Pak Chivon uchun ham muhimi syujet, qahramon obrazi emas, balki u ilgari surmoqchi bo'lgan fikrlardir. Yozuvchi yaratgan obrazlar feodal tizimning chirikligi va qoloqligini, uning ayrim vakillarining ojizligini ko'rishga yordam bergen. Pak Chivon ijodining g'oyaviy ahamiyati ana shundan iborat.

Pak Chivon adabiy asarlar shakli va mazmunining nisbatiga katta e'tibor bergen. «Mazmun — asarning eng muhim jihat, uning mohiyati, shakl esa — tashqi qobiq», degan u. Shu bilan bir vaqtda yozuvchi shakl va mazmun uzviy ekanligini ham ko'rsatib o'tgan. «G'oyaviy mazmun sarkarda bo'lsa, badiiy ifoda vositalari askarlardir».

Afsuski, Pak Chivonning barcha asarlari xitoy tilida yozilgan, shu bois xalqqa ular uzoq vaqtgacha ma'lum bo'lman. Bundan tashqari, hukumat yozuvchining asarlarini xavfli deb hisoblab, ularni nashr etishni taqiqlagan. Hozirgi kundagina Koreyada ular bilan keng kitobxonlar ommasi tanishmoqda, uning ijodi har tomonlama va chuqur o'rganilmoqda.

Pak Chivon haqli ravishda qisqa satirik hikoya janrini rivojlantirgan yirik yozuvchi, asarlarida o'zi yashagan davr xususiyatlarini aks ettirgan realist, koreys adabiyotida tanqidiy realizmga asos solgan adib, estetik qarashlari hozirgi zamon koreys adabiyotining rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatayotgan atoqli munaqqid hisoblanadi. Uning ijodiga bo'lgan ulkan qiziqish ayni shu omillar bilan izohlanadi.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib koreys adabiyotida satirik va realistik unsurlar sezilarli darajada rivojlandi. Li sulolasi davrining boshidagi asarlarda realizmga ishora ham mavjud bo'lmasa, *pxegvanlar* adabiyotida vogelikni realistik tasvirlash unsurlari paydo bo'ldi, *sosolda esa* realizm unsurlari birinchi o'ringa chiqdi va «real fanlar maktabi» namoyandalarining asarlarida yetakchi o'rinni egallay boshladи.

Shundan kelib chiqib, koreys adabiyotida realizm XVIII asrda shakllangan deb aytish mumkin. Bu davrda real holatlarda harakat qiluvchi, real qilmishlar sodir etuvchi oddiy odamlar asarlarning qahramonlariga aylandi. Bunga «Chxunxyan haqida qissa» va Pak Chivon asarlarining qahramonlari misol bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, XVIII asr ikkinchi yarmi koreys adabiyotiga ortodoksal konfutsiychilik mavzularidan uzoqlashish (asosan she'riy asarlarda) va kundalik hayot mavzulariga murojaat etish xosdir. She'riy asarlarda epik, hikoya unsurlari kuchayadi, ayni hol *kasa* va *sijoda* ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Nastriy adabiyotda *sosol* janri gullab-yashnaydi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi koreys adabiyoti umuman olganda demokratik va satirik elementlarning rivojlanishi va realistik unsurlarning sezilarli darajada kuchayishi bilan tavsiflanadi. Shu tufayli ham bu davrda vogelikni aks ettirishning realistik usuli to'liq shakllangan deb aytish mumkin.

---

## **IV. KOREYS TILIDAGI NASRIY JANRLARNING XUSUSIYATLARI**

*(XVII–XIX asrlar)*

XIX asrda koreys adabiyoti ko‘p qirrali bo‘lib, «adabiy iyerarxiya»ning yuqori qatlamini an’anaga ko‘ra xanmundagi nazm va nasr («oliy nasr» deb ataluvchi *chon* «biografik asar», *ki* «xotira, qayd», *nok* «risolalar») egallagan edi. Undan keyin koreys o‘rtas asr adabiyoti iyerarxiyasi «oliy nasri»dan quyiroq o‘rinni uning qutbi sifatida baholangan xanmundagi «turli-tuman ko‘ngilochar» nasr — *pxesol* egalladi. Ona tilidagi adabiyot xanmunda yaratilgan adabiyotga nisbatan past baholandi, ammo uning ham o‘z iyerarxiyasi mavjud edi: birinchi o‘rinda nazm (*sijo* va *kasa*), keyin nasr (roman va kundaliklar) va eng quyi o‘rinni «oddiy xalq adabiyoti» sanalgan «qissalar» egallagan.

XVII–XIX asrlarda ko‘p sonli asarlar yaratilgan bo‘lib, ularni mazkur ish doirasida nafaqat ko‘rib chiqish, hatto nomini sanab o‘tishning ham imkonи yo‘q. Biroq ushbu davrda yaratilgan asarlarga bir qur nazar tashlab chiqqanda ham, ularni birlashtirib turgan ba‘zi xususiyatlar ko‘zga tashlanadi: adabiyotda shaxsning o‘rnini ko‘tarilganligi kuzatiladi. Buning bir nechta sababi mavjud bo‘lib, ehtimol, shulardan biri, o‘qimishli tabaqa orasidan bir guruhining koreys davlati ichki holatidan noroziligi bo‘lgan. Yaponiya bilan bo‘lgan Imjin urushi (1592–1598) va manjurlarning 1627 va 1636–1637- yillarda mamlakatga qilgan hujumi katta talafot yetkazgan edi. Shaharlar va aholi yashaydigan punktlar vayron qilindi, mamlakat ichkarisidagi hukmron sinf o‘rtasida ham turli guruhboszliklar avj oldi. Hokimiyat va jamiyatda obro‘, mavqe egallashga intilgan bir-biriga qarshi ko‘plab guruhlar paydo bo‘ldi. O‘zaro ichki nizolar mamlakatga ham, uning iqtisodiga ham

sezilarli darajada zarar yetkazdi. XVIII asrda koreys hukumati tomonidan tinchlik siyosati yuritilgan bo'lsa-da, oppozitsion partiylar o'rtasida ochiq qurolli to'qnashuvlar boshlandi<sup>1</sup>. Ziyolilar o'rtasida tushkunlik kayfiyatni tarqaldi, insonning jamiyatdagi o'rni omonat ekanligi, o'ziga ishonchsizlikni his etish, hukumatning tinch hayotni ta'minlab bera olmasligidan umidsizlikka tushish holati ro'y berdi. Ulardan ko'plari xizmatga bo'lgan qiziqishlarini yo'qotib, «tabiatga ketishdi», tarki dunyo qilishdi, mavjud tartiblarni tanqid qila boshlashdi. Mana shular natijasida yangi ijtimoiy g'oyalar tug'ildi. Shu zamonning eng ilg'or, mutafakkir insonlari, eng avvalo, ta'lim tizimini qayta tashkil etish orqali yoshlar tarbiyasiga bo'lgan munosabatni o'zgartirish kerak, degan fikrda edi. Ular davlat gullab-yashnashi uchun an'anaviy, gumanitar ta'lim emas, balki amaliy bilimlar, «foydali» odamlar kerak, deb hisoblashardi. Ammo, bir tomondan, mamlakatni yakkalash siyosati boshqa xalqlardan ilg'or tajribalarni o'rganish imkoniyatini bermasdi, ikkinchi tomondan esa, davlat xizmatiga haqiqiy iqtidorli insonlarni jalb etishga yuqori tabaqa doiralari xalaqit berar edi<sup>2</sup>. Bu yo'nalish XVII asr o'rtasida jamiyatning ilg'or a'zolarini biriktiruvchi sirxak «aniq fanlar» oppozitsiya ruhidagi g'oyalar oqimining paydo bo'lishi va tarqalishiga olib keldi. Sirxak harakatini ma'rifiy harakatlar qatoriga kiritish mumkin, ammo uning tarafdorlari bir qator ijtimoiy talablarni ham olg'a surishgan. Ulardan eng muhimi, inson shaxsiyatining mustaqil qadriyati, ya'ni inson davlat boshqaruvida o'zining iqtidori va bilimlariga mos vazifalarni egallashi kerakligi haqidagi g'oya edi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Тягай Г.Д. Общественная мысль Кореи в эпоху позднего феодализма. — М.: Наука, 1972.

<sup>2</sup> Ванин Ю.В. Экономическое развитие Кореи в XVII—XVIII вв. — М., 1968; Тягай Г.Д. Общественная мысль Кореи в эпоху позднего феодализма. — М.: Наука, 1972.

<sup>3</sup> Тягай Г.Д. Общественная мысль Кореи в эпоху позднего феодализма. — М.: Наука, 1972. — С. 149—152.

Sirxak harakati butun bir madaniyat kabi, albatta, adabiyotga ham muhim ta'sirini o'tkazgan. Sirxak g'oyalari ta'siri ostida adabiyot hayotda faqat ko'ngilxushlik unsuri bo'lib qolmasdan, balki funksional burlish, xususan, ijtimoiy tengsizlik muammolari kabi muhim masalalarni qo'yishga qaratilgan vosita ham edi. Badiiy asarlarda «oliy» tabaqa vakillariga qarama-qarshi qo'yilgan kambag'al, huquqsiz inson obrazi ko'zga tashlana boshlandi. Insonga nafaqat alohida bir shaxsiyat sifatida qaraldi, balki qahramonlarni umumlashtirish sodir bo'ldi, unga ma'lum bir umumguruh nuqtayi nazardan aniq qatlama sifatida qarala boshlandi. Bu esa, adabiyotda insonni tasvirlashdagi yangi yondashuvlar yuz berayotganidan dalolat berardi. Adabiy qahramonga bo'lgan yangicha yondashuv adabiyotning jamiyatdagi o'rniغا bo'lgan qarashlarning o'zgarishiga olib keldi. Pak Chivonning fikriga ko'ra, adabiyot «jamiyatdagi salbiy hodisalarini ochib tashlash quroli» bo'lib xizmat qiladi va voqelikni qayta qurishga turtki bo'ladi<sup>1</sup>, ya'ni bunda adabiyotning ijtimoiy mavqeyini oshirishga, jamiyatdagi kayfiyatga, insonning dunyoqarashiga ta'sir qiladigan vosita sifatida qarash ta'kidlanmoqda.

Bu davr adabiyotida demokratizmning aniq elementi paydo bo'ldi, xususan, aynan o'sha davr adiblari o'zlarining asarlarini nafaqat an'anaviy mumtoz xanmunda, balki o'rta tabaqa koreys kitobxoniga tushunarli bo'lgan koreys tilida yarata boshladilar. Shuni alohida ta'kidlash joizki, koreys tilidagi adabiyot «navqiron» bo'lishiga qaramasdan, uzoq asrlar davomida muayyan qonun-qoidalarga bo'ysunib, an'analarga rioya qilib kelgan xanmunda yaratilgan adabiyotga nisbatan yangi g'oya va yangi uslublarga moyilroq edi.

Bu davrga kelib xanmunda yaratilgan she'riyat asosan ahmoq amaldorlar boshqaruvidagi kambag'al xalqning ahvoli haqidagi an'anaviy mavzularini yoritishga qaratilgan edi. She'riyatning eng yetakchi mavzularidan yana biri shaxsiy hissiyotni (tuyg'ularni) ifoda etish bo'lgan<sup>2</sup>. Mana shunday she'r namunalarini «Xon Kil

<sup>1</sup> Pak Chivon (taxallusi Yonam). Tanlangan asarlar. — Seul, 1956.

<sup>2</sup> Li Ga Von. Xanmundagi koreys adabiyoti tarixi. — Seul, 1961.

Don haqida qissa» muallifi Xon Gyun (1569–1618), mashhur nasrchi Lyu Mon'in (1559–1623), o'z sijosi bilan mashhur bo'lgan Sin Xim (1566–1628), koreys tilidagi birinchi romanlar muallifi Kim Manjun (1637–1692), yirik olim va sirxak oqimi g'oyasi tarafdori Chon Yagyong (1762–1836)lar ijodida ham uchratamiz. Ayniqsa, XVIII asrda keng tarqalgan *akpuda* (Li Ga Von akpuning 29 ta to'plamini aytib o'tgan)<sup>1</sup> lirik mavzular qatorida moziyga – dastlabki koreys davlati asoschilari va qadimgi rivoyatlar qahramonlarini kuylashga ham katta o'rinn ajratilgan. Bu mavzu boshqa ko'pgina xalqlarning adabiyotida keng tarqalgan bo'lib, ularda nomukammal dunyo qadimgagi mukammal jamiyatga an'anaviy tarzda qarama-qarshi qo'yilgan va o'sha eski qadrdon folklorga qiziqish ortishiga turtki bo'lgan. Barcha xalqlarga xos bo'lgan milliy o'zlikni anglash va XIX asr oxirida mustaqillikka erishgan bu xalq, o'sha davrda xitoy madaniyatidan xoli bo'lgan qadimgi koreys folklor mavzulariga bunday murojaat etishi koreyslarning o'zlarini milliy anglab yetganliklarining o'sishi bilan bog'liqdir. Bu haqda *sirxak* g'oyalarini o'rgangan P.K. Yan va G.Xenderson ham aytib o'tganlar. Ular «Xitoya munosabat bo'yicha subordinatsiya (bo'ysinish qoidasi)ni saqlash» siyosatining sirxakshunoslar tomonidan tanqid qilinishi bilan birga, buni koreyaliklar «milliy ruhi»<sup>2</sup>ning ifodasi sifatida baholashgan. Misol sifatida tadqiqotchilar Xon Deyonning katta davlatlarga bo'lgan munosabatida kichik davlatlarning majburiyatlari nazariyasi tanqidini keltirib, konfutsiy olimlari ko'z o'ngida Koreyaning Xitoya qaramligini oqlashganini ko'rsatadilar. Biroq Li Ga Vonning fikricha, «bu davr she'riyatida yuqori darajadagi biron-bir ahamiyatga molik original asarlar yaratilmagan»<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Li Ga Von. Xanmundagi koreys adabiyoti tarixi – Seul, 1961. – 235–270-b.

<sup>2</sup> Yang P.Key, Henderson G. An Outline History of Korean Confucianism // The Journal of Asian Studies. – Volume 18. – London, 1959.

<sup>3</sup> Li Ga Von. Xanmundagi koreys adabiyoti tarixi. – Seul, 1961. – 235–270-b.

«Oliy» darajadagi nasrda esa, yana o'sha xanmun she'tiyatidagi nomlarni ko'ramiz. Li Ga Vonning alohida ta'kidlashicha, «individual» *chon* (yoki nemis sinologi X. Frank bunday turdag'i adabiyotni taxallusli biografiya deb ataydi) rivojlangan va bu davrda hayvonlar, o'simliklar va hatto buyumlar tasvir predmeti bo'lgan. Agar bunday asarlarga qahramon sifatida muayyan inson obrazi kiritilgan bo'lsa, u albatta rasmiy davlat munosabatlaridan xoli tarzda tasvirlangan. Personajlar aksariyat hollarda kambag'al va ichkilikka mukkasidan ketgan marginallar (Kvon Pxilning (1569–1612) «Mayxonadagi amaki tarjimayi holi» va yoki Xo Gyunning kambag'al araqxo'r haqidagi «Chan tarjimayi holi») sifatida gavdalantirilgan. XII–XIV asrlardagi koreys taxallusli biografiya (psevdobiografiya) an'anasi Li Gyubo, Lim Jun va boshqalarning ijodida ko'rishimiz mumkin. Ularning asarlarida ham rasmiy davlat munosabatlaridan xoli, ijtimoiy shartlarga tobe bo'limgan shaxs tasvirlanadi. Bu asarlarning mafkuraviy asosida daosizm va buddizm g'oyalari yotadi.

Aftidan, bu ikki ta'limot yozuvchilar tomonidan insonning ichki dunyosiga tez-tez murojaat etgan, XVII asrda yaratilgan kichik shakldagi nasr – *pxesol* adabiyoti rivojlanishi uchun ijodiy turtki bo'lgan. Pxesol adabiyotining paydo bo'lishi, chamasi, beqaror hayat va shaxsning davlat faoliyati sohasidagi mustahkam bo'limgan mavqeyiga nisbatan ta'sirlanishi oqibatidir. Pxesol mualliflari turli narsalarni – turli mavzular, syujet tarixi, etnografiya va geografik xabarlar, uncha katta bo'limgan kulgili voqealar ni mushohada etganlar. Pxesol adabiyotining o'ziga xosligi va ahamiyatini uning ilk mualliflaridan biri Li Je Xyon (1328–1376) aniq belgilab, o'z asarini «Qari Emanning bema'ni yozuvlari» deb atagan. Li Je Xyon o'z asarining muqaddimasida bunday nomga izoh berib, «haqiqatdan yiroq (ya'ni, uning asosida real voqealar yotmaydi) va boshoqli o'simliklar orasida eng kichik hisoblangan tariq kabi past» ekanligini ta'kidlagan. Muallif uning «foydasizligi», ahamiyatini yo'qotganligini ta'kidlab, «Qari Eman» nomini berishda Chjuan-szining qari eman haqidagi mashhur rivoyatiga nisbat berib, foydasiz bo'lish uning o'zi uchun esa «foydalii»

ekanligini isbotlagan'. Pxesol real voqealarni tasvirlamaydi, ular vaqtichog'lik uchun «zerikkanda» yozilgan. Balki pxesolni o'ta «subyektiv» adabiyot sifatida qabul qilish kerakdir, chunki uning bosh mavzusi inson huquqlari va erkin ijoddir. Umuman olganda, bunday turdag'i adabiyot, vaqtichog'lik uchun tuzilgan to'plamlar, zerikkandan kelib chiqqan hikoyalari ko'pgina xalqlar, jumladan, Sharq va G'arbiy Yevropaning adabiyotlariga ham xos. Pxesol asarlari turli to'plamlardan iborat bo'lib, uning tarkibiga kichik hikoyalari, anekdotlar (latifalar), turli xildagi voqealar va o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan asarlar kiradi. Dastlabki pxesol mualliflari o'z asarlarini to'qib chiqarishmagan, ular tayyor ma'lumotlarni olishgan, ya'ni bu asarlarda muallifning uydirmalari deyarli yo'q. Pxesol mualliflari nasriy asarlar uchun yangi, «kitobxonlarni qiziqtirish» vazifasini o'z oldilariga qo'yganlari uchun keyinchalik ular «o'ylab topilgan» qiziq dalillar asosida yangi syujet yaratishni maqsad qilganlar.

O'rta asrlarda Koreyada pxesol adabiyotiga ikkinchi darajali, yuzaki, ahamiyatsiz narsaga qaraganday munosabatda bo'lishgan: yozuvchilar bo'sh vaqtlarida vaqtichog'lik uchun yoki o'sha notinch, alg'ov-dalg'ov vaqtida xizmatdan bosh tortib yozgan asarlar sifatida qabul qilishgan. Lekin, shu bilan birga o'rta asr mualliflarining asarlari, ko'pincha, *pxesol* – bu nafaqat xanmunda yaratilgan vaqtichog'lik nasri, balki ona koreys tilidagi syujetli nasr – qissa va romanlardir kabi baho berishlar ham uchraydi<sup>2</sup>. Asar tavsifi odatda uning nomida aks etadi. Masalan, Xo Gyunning «Dengizdan – sharqdag'i davlatdan dag'al nutq», Li Xanbokning (1556–1618) «Peksaning turli xil yozishmalari (xatlari)», Lyu Man Inning (1559–1623) «Ouning dag'al hikoyalari» va boshqa asarlar shular jumlasidandir. Qizig'i shundaki, sirxak oqimining ba'zi nazariyachilari ham o'z asarlarida «bema'ni yozuvlar» shaklidan foydalanishgan. Masalan, Li Sugvanning (1563–1629) «Chibonning avlodlar (nasl, zot, urug', qabila) bo'yicha to'plagan

<sup>1</sup> Атеисты, материалисты, диалектики Древнего Китая. — М.: Восточная литература, 1967.

<sup>2</sup> Pak Son I. Qadimgi koreys nasriy adabiyoti tarixi. — Seul, 1981.

turli voqealari» yoki Li Iknning (1682–1764) «Sanxoning bema’ni so‘zлari» bunga misol bo‘la oladi. Chamasi, sirxakchilar bu bilan rasmiy ortodoksal (sodiq, bir ta’limotga astoydil berilgan va undan qaytmaydigan) ilmiga o‘zlarining salbiy munosabatlарini bildirishgan.

XVI–XVII asrlar oxirida adabiyotga nafaqat yangi g‘oyalar kirib keldi va uning ijtimoiy roli o‘zgardi, balki yangi shakliy izlanishlar, yangi ifodalar bilan «eski» janrlar yangilana boshladi. Pxesol uslubidagi novella o‘zining yetuklik davrini boshidan kechirdi va bu uning g‘oyaviy-mavzuiy doirasini kengaytirishida o‘z aksini topdi. Bu davr novellasida yangi badiiy uslublar vujudga keldi va shu bilan birga, yangiliklarning namoyon bo‘lishiga olib keluvchi o‘rtas asr koreys qissalari ancha katta hajmda va turli janrlarda yuzaga chiqdi. Endi faqat inson hayotidan olingen biron-bir voqeani tasvirlash kabi kichik hajmdagi asarlar na kitobxonni, na mualliflarni qoniqtirdi. Endi qahramonning butun hayotini yoki hech bo‘lmasa uning ma’lum bir ahamiyatga molik qismini tasvirlash ehtiyoji kelib chiqdi. Bunda qahramon hayotidagi qator voqealarni faqat ko‘rsatish emas, balki uning ichki o‘zaro munosabatlari va tashqi hayotdagи voqealarga bog‘liqligini ko‘rsatish lozim edi. Birinchi marotaba o‘ziga bir emas, ikki-uch va undan ortiq personajlar hayoti voqealarini qamrab olgan, ya’ni «kengaytirilgan» novella usuli XVI asr pxesol adabiyotining yirik mualliflardan biri Kim Si Sip tomonidan qo‘llanildi.

XVI asr oxirida xanmundagi o‘rtacha hajmdagi syujetli asar keng tarqaldi va unda insonning ichki dunyosiga qiziqish aniq ifodalandi. Bu asarlarni zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qissa janriga kiritish mumkin. Mazkur syujetli asarlar ko‘proq to‘qima biografiya asosida rivoj topgan. XVI asr oxirida vujudga kelgan Kvon Pxelning «Chu tarixi», Lyu Yonning «Unyon», muallifi noma’lum bo‘lgan «Qizil va oq gullar» asarlari xanmundagi an’naviy *chon* belgisi bilan belgilangan birinchi qissalardir. «Unyon» qissasida bir-biriga taqdiri qo‘shilmagan va oxir-oqibat nobud bo‘lgan sevishganlarning azob-uqubatlari tasvirlangan. «Chu tarixi» ham sevgi-muhabbat haqida bo‘lib, u ham ayanchli yakunlangan: «Chu sevgan ayoliga qachonlardir

bergan va ’dasiga vafo qilmaydi» va u ayol g’amdan vafot etadi. Ikkala qissa ham alohida inson taqdiri, ularning ishqiy hissiyotlari bilan e’tiborni tortadi. Barcha voqealar birinchi shaxs, ya’ni qahramonning o’zi tomonidan bayon etilishi asarning ishqiy ekanligini yanada tasdiqlaydi. Ma’lum bir darajada bu asarlar adabiyotning kundalik shakliga yaqin, lekin bu faqat u yoki bu voqea, yo muallifning kayfiyatini ifodalovchi aniq ketma-ketlik bilan keladigan voqealar emas. Ehtimol, xanmundagi qahramonlarning «biografik hissiyotlari»ga bag’ishlangan ilk qissalar bu davrda juda keng tarqalgan ijod shakli hisoblangan kundaliklar ta’sirida vujudga kelgandir. Bular, masalan, XVI asr oxiri – XVII asrda vujudga kelgan coreys sarkardasi Li Sunsinning (1545–1598) «Harbiy voqealar kundaligi», Xvan Jinning (1562–1617) «Yaponiyaga sayohat kundaligi» yoki Chon Sixanning (1625–1707) «Tog’lardagi kundalik» va XVIII asr adabiyotida taniqli bo’lgan Pak Chivonning (1737–1805) «Jexey kundaligi» asarlaridir.

Insonning shaxsiy hayoti – oilaviy va ishqiy munosabatlarni biz XVIII asr oxiri – XIX asr xanmundagi dramalarda ham uchratamiz: Mun Yan Sining (yashagan davri noma’lum) «Sharqiylig fligel (ayvon)» va Kim Jon Inning «Manning uylanishi» dramalari shular jumlasidandir. Bu asarlar sevishganlarning azob-uqubatlari haqida bo’lib, ularning barcha kechinmalari baxtli tugallanishi bilan o’ziga xos. Bular qatoriga 1825-yilda «Chxunxyan»<sup>1</sup> syujetida yozilgan Yun Dalsonning «Kenglik va salqinlik ko’shki» asarini ham kiritish mumkin.

Koreys tilidagi adabiyot, eng avvalo, she’riyat va uning sijo va kasa kabi yetakchi janrlarida ham davrning tarixiy voqealarini o’z aksini topgan. O’zga yurt bosqinchilari bilan kurash mavzusi Pak In No (1561–1642) ijodida ancha yorqin ifodalangan. Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik g’oyalari, o’z burchiga sadoqat mavzusi sijo janridagi ko’pgina she’rlarda o’z aksini topgan. Noma’lum

<sup>1</sup> Chxunxyan – folklor motivlari asosida yaratilgan kisen (kisen – qo’shiqlichi yoki raqqosa) qizi va amaldorning yosh o’g’loni o’rtasidagi ishq-muhabbat haqida hikoya qiluvchi muallifi noma’lum asar. Asar syujetining adabiy varianti paydo bo’lishidan oldin afsona va qo’shiqlarda mavjud bo’lgan. «Chxunxyan» asari o’tta asr coreys adabiyotining eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

muallif tomonidan harbiy voqealar va yapon bosqinchilari bilan urishgan qahramonlarga bag'ishlangan «Imjin yili solnomasi» asari bu davrdagi nasriy asarlarga misol bo'la oladi.

Hayotning notinchligi sababli jamiyatning ziyoli qatlami orasida ikkilanishlar paydo bo'ldi. Ular ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishdan voz kechib, o'zlarini tabiat qo'yniga urdilar. Bunday kayfiyatlar «daryolar va ko'llar» deb ataluvchi peyzaj lirikasining shakllanishiga sabab bo'ldi. XVII asrning Yun Son Do (1587–1671), Sin Xim, Pak In No kabi shoirlari uchun (shu jumladan, xanmunda ijod qilgan dastlabki shoirlar uchun ham) tabiat – bu nafaqat kayfiyatni ko'taruvchi, ijodga ilhomlantiruvchi chirolyi manzara hisoblanadi. Tabiat – bu, eng avvalo, uyg'unlik timsoli, o'zgarmas dunyo bo'lib, u kishilik jamiyatiga qarshi qo'yilgan, ya'ni tabiat tartibsizlik, hayotning o'zgaruvchanligiga qarshi qo'yilgan sobit dunyodir. Shoirlar odamlardan uzoqlashib «daryolar va ko'llarga» tomon yo'naladi, u yerlarda mukammal dunyo bilan birlashib, tabiat qo'yniga singib ketadilar, tabiat va uning qo'ynida yashaydiganlar kabi yovvoyilashishga intiladilar. «Daryolar va ko'llar» she'riyati xanmunda yaratilgan pxesol nasri bilan to'qnashadi, chunki ikkalasi ham ma'lum darajada daochilarning dunyoga bo'lgan munosabatlari negizida shakllangan. Ehitimol, korcys tilidagi she'riyat avvallari, xuddi koreys adabiyotining boshqa har qanday ko'rinishlari kabi o'rtta asr odamlarining dunyoni qabul qilish jarayonida yuz bergen siljishlarida o'z ifodasini topgandir. XVIII asrda «uzun sijo» deb ataluvchi she'riyatga baland parvoz narsalar emas, insonlar ko'proq duch keladigan «o'rtamiyona qahramon», kundalik hayot va hayotning mayda-chuydalari kiradi.

Ayniqsa, XVII–XVIII asrlarda koreys adabiyotida qissa janri rivojlana boshladi va bu davrdagi asarlar ona tili – koreys tilida yozilgan. Ilk qissalar real tarixiy personajga bag'ishlangan edi. Koreys tilidagi birinchi qissa «Janubga surgun qilingan Sa xonimning kundaligi» va «To'qqiz kishining bulutli tushi» muallifi Kim Manjun hisoblanadi. Bunda, masalan, tashlab ketilgan ayol, bir oila ichidagi o'zaro munosabatlari (Kim Manjunning «Janubga surgun qilingan Sa xonimning kundaligi», «O'z burchiga xayrixoh

va fidoyi voqeasi») yoki qahramonlarning ishqiy sarguzashtlari (Kim Manjunning «To'qqiz kishining bulutli tushi» va noma'lum muallifning «Yashma ko'shkidagi tush») haqida so'z yuritiladi.

Demak, XVII–XVIII asrlarda koreys tilidagi nasr vujudga keldi va yuksaldi. O'rta asr koreys adabiyoti tarixi bo'yicha ko'pgina ishlarda, ona tilidagi nasr ayollar tomonidan ayollar uchun yaratilgan, chunki saroy ayollari ish yuzasidan, ya'ni rasmiy maqsadlarda koreys tili va adabiyotidan foydalanishgan, degan fikrlar keng tarqalgan<sup>1</sup>. Pak Son Ining aytishicha, saroy ayollari, hatto qirov avlodiga mansub ayollar ba'zida nasaqat xitoy badiiy nasrini, balki «jiddiy» adabiy asarlarni ham koreys tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanishgan<sup>2</sup>. Bunday fikrlarning asosli ekanligi ehtimoldan yiroq emas. Lekin bu asarlarni, biz ko'proq koreys tilidagi «oliy nasr» deb atalgan, ya'ni yuqori tabaqalar orasida tarqalgan asarlar qatoriga qo'shishimiz mumkin. «Oliy nasr»ga, eng avvalo, odatda, mualliflari yuqori martabali ayollar hisoblangan «saroy kundaliklari» kiritiladi. Masalan, noma'lum saroy ayoli tomonidan yozilgan «Kechxuk yili» (1613-yil) asari surgun qilingan malika (marhum qirov Sonjonning xotini) va uning qarindoshlarining shafqatsizlarcha jazolanishi haqidadir. Tuxt vorisi qirov Yonjonning xotini – Xon xonim (1735–1815) tomonidan yaratilgan «Xo'rlanganning kundaligi»da Xonning saroydagi hayoti tarixi, uning erga tegishi va erining o'limidan keyingi mashaqqatlari bayon etilgan.

Koreys tilidagi «oliy nasr»ga «saroy kundaliklaridan» tashqari, ayrim tadqiqotchilarining fikricha, o'sha davrda yaratilgan romanlar<sup>3</sup>, ayrim hollarda esa qissalarni ham kiritish mumkin. Masalan, 22 ta dastarga yozilgan, har bir daftar 50–60 varaqdan iborat bo'lgan muallifi noma'lum «Ikki bilaguzukning ajoyib qo'shilishi» asari<sup>4</sup> bunga misol bo'la oladi. Bu asarlarda insonning

<sup>1</sup> Pak Son I. Qadimgi koreys nasriy adabiyoti tarixi. – Seul, 1981. – 87–89-b.

<sup>2</sup> Ko'rsatilgan asar – 87–89-b.

<sup>3</sup> Троцевич А.Ф. Корейская средневековая повесть. – М.: Наука, 1975. – С. 13–15.

<sup>4</sup> О.Р. Petrovaning fikricha, qo'lyozma ayol kishining xati bilan yozilgan. Немирова О.П. Описание письменных памятников корейской культуры. – М.: Наука, 1963. – С. 127.

ichki dunyosi tasvirlangan. Oilaviy romanlar bir oila hayoti, ba'zida bu oilaning bir qancha avlodlari hayotini tasvirlaydi. Bu asarlardagi ziddiyat ko'pincha yaxshilik va yomonlik, axloqsizlik, go'zal xulq, boodoblik va beadablikning o'zaro to'qnashuviga qurilgan. Xonadondagi tinchlik, odatda, bu xonadonga kelgan makkor go'zal kanizak tomonidan oila boshlig'ini o'ziga og'dirib, uning xotinini ta'qib ostiga olishi bilan buziladi. Ko'pincha romanlarda qahramon duchor bo'ladigan baxtsizlik, keyin haqiqatni izlash va yomonlarni jazolash bayon etiladi. Oilaviy romanlarda qahramonlarning ishlariga baho Konfutsiyning inson axloqiy burchlari haqidagi tasavvurlari nuqtayi nazaridan beriladi, markaziy personajlar konfutsiylik axloqiy qoidalarining bajarilishiga qarab darajalarga bo'linadi.

Masalan, «Ikki bilaguzukning ajoyib qo'shilishi» asaridagi qator voqealar tasvitida ifodalangan qahramonlarning bir-biriga zid bo'lgan manfaat va intilishlarining to'qnashuv joyi oila boshlig'i Li Myonning noto'g'ri harakati tufayli sodir bo'ladi. U o'z burchini bajarmay, oila boshlig'i majburiyatlarini mensimasdan, go'zal joriyaning yolg'onlariga ishonib, o'zining mehribon ayolini uydan haydab yuboradi. Shundan keyingi yuz beradigan voqealar o'z rivojini topadi: badarg'a qilingan xotinidan Li Xyon ismli o'g'il tug'iladi. Li Xyon komil qahramon bo'lib, uning axloqi ota oldida o'g'llik burchini bajarishga intilishda namoyon bo'ladi. Bu burchni bajarish uchun u onasi va yosh xotinini tashlaydi va hatto xizmatdan ham voz kechadi. Qahramon harakatlarining ikkinchi qismi, uning sodiq fuqaro sifatidagi majburiyatları bilan bog'liq bo'lib, unga qirol tomonidan taklif qilingan «noqonuniy» lavozim va umuman, xizmatdan voz kechish voqealari bilan bog'liqdir. Romandagi qahramon ayollar mehribon xotin, o'z burchini bajaruvchi ayollar sifatida tasvirlanadi. Masalan, roman qahramonlaridan biri, yosh Lyuning barcha sarguzashtlari (uning uydan qochishi, erkaklar kiyimini kiyib «yengiltak ayollar» uyiga tushib qolishi, qaroqchilardan qochishi va h.k.) uning axloqiy fazilatlarini sinash uchun vosita hisoblanadi.

Muhabbat haqidagi romanlarda voqealar asosiy personajning sarguzashtlari atrofida avj oladi. Kim Manjunning «To'qqiz kishi-

ning bulutli tushi» romani qahramoni Yan Soyuni qirolga, oilaga xizmat qilish kabi axloqiy muammolar qiziqtirmaydi. Lavozimga erishish uchun u juda yaxshi imtihon topshiradi va davlat xizmatiga kiradi, lekin uning xayoli hayot quvonchlaridan, davlat amaldori sifatida imtiyozlardan rohatlanish, chiroylar ayollar bilan vaqtichog'lik qilishga qaratilgan. Yan Soyuning axloqi konfutsiylik qonun-qoidalarida belgilangan odamlar o'tasidagi munosabatlar nuqtayi nazaridan qulqoq eshitmagan becadablikdir, biroq bu bilan Kim Manjun qahramonini isyonchi deb ayta olmaymiz. Chunki roman oxirida bu ishlarining ma'nosi ma'lum bo'ladi. Qahramon hamma narsaga erishgandek, ya'ni u hurmat-izzatda, davlatning eng chiroylar ayollarini uning xotinlari va joriyalari. Biroq bularning barchasidan voz kechishga qaror qiladi va ulardan qutulish yo'llarini qidira boshlaydi. Budda ta'limotiga ko'ra, yerdagi huzur-halovatga bo'lgan tashnalikni qoniqtirib bo'lmaydi, chunki inson xohishi chegarasizdir. Yan Soyu o'z xohishlariga o'zi chek qo'yadi, o'zining shaxsiy tajribasidan gunohkorligini bilgan holda yerdagi barcha huzur-halovat vaqtinchalik xomxayol ekanligini tushunib yetadi. Kim Manjun romani syujeti asosida — dunyo va undagi inson turmushi Budda dini tushunchasi asosida talqin qilingan. Hissiyotli sevgi — bu azob chekishning bir turi bo'lib, yerdagi hayotda inson unga duchor bo'ladi; inson o'z xohishlaridan qutulish uchun harakat qilishi kerak, lekin undan qutulishga yo'l topish lozimligi haqidagi fikrga kelish uchun u bu azoblarni shaxsan boshidan kechirishi kerak.

Budda ta'limotiga ko'ra, yerdagi hayot azob-uqubat ekanligini biz koreys tilida noma'lum muallif tomonidan yozilgan «Tushda Kimsansa cherkovi bo'ylab sayohat» yoki «Tushda Sishuy bo'ylab sayohat» asarlarida ham uchratamiz. Yerdagi hayotning jirkanchligi haqidagi Budda g'oyasi ancha avvalgi davrda yozilgan Lim Jening (1549–1587) ijodida ham uchraydi. Masalan, uning «Vonning tushidagi sayohati» novellasi yoki Kim Si Sipning (1435–1493) novellalari bunga misol bo'la oladi. Ularning qahramonlari qandaydir bir vaqtida o'zlarining «yerdagi ehtiroslarini» behuda va foydasiz ekanligini tushunib yetib, undan qutulish yo'lini izlab topadilar.

Chet el bosqinchilariga qarshi kurash natijasida xalq o'zligini anglab, ijtimoiy tabaqaning quyi qatlami qadriyatlari yuzaga chiqadi. Chamasi, bu vaziyat koreys tilidagi adabiyotning juda tez rivojlanishiga va oddiy xalq orasidan kitobxonlarning jalb qilinishiga ma'lum bir jihatdan o'z ta'sirini ko'rsatgan<sup>1</sup>. Xalq orasida adabiyotning keng yoyilishiga, bizning nazarimizda, jamiyatning «quyi» tabaqałari o'rtaida ancha mashhur bo'lgan qissalarning yetakchiligi asos bo'lgan.

O'rta asrlar so'ngida yaratilgan nasriy asarlardan faqat qissalardagina insonlarning har qanday xo'rhanish va haqoratlarga qaramay, namunali xulqi hamda yuksak ma'naviyati sababli ijtimoiy uyg'unlikka erishish xususidagi g'oyalalar ommabop shaklda aks ettirilgan.

Odatda, koreys adabiyotida axloq-odob haqidagi tasavvurlar konfutsiylikning «yomonlik» va «yaxshilik» tushunchalari bilan bog'liq. Bu g'oyalalar xalq ertaklariga yaqin shaklda bayon etilgan, ya'ni hech bir sababsiz haydalgan olijanob qahramon azob-uqubat chekadi, lekin oxir-oqibat hamma o'z xizmatiga yarasha natijaga erishadi – yaxshilar rag'batlantiriladi, zolimlarning kirdikorlari ochib tashlanadi va ular tegishli jazo oladilar. Shuni aytish kerakki, qissalar oxirida qahramonlarning tan olinishi, yuzaga chiqishi aksariyat hollarda harbiy qahramonlik (agar u jangchi ayol bo'lsa ham) bilan yakunlanadi. Jang maydonidagi qahramonlik keng xalq ommasi uchun shuhrat qozonishning eng oson yo'li sifatida namoyon bo'ladi.

Xanmunda yaratilgan «ommaviy» adabiyotda o'z aksini topgan koreys tilidagi qissalarda komil insonning axloq-odobi haqidagi Buddha falsafasi g'oyalari va konfutsiylik tasavvurlari, inson o'zining avvalgi gunohlari uchun jazo sifatida bu dunyoda azob-uqubat (eng avvalo, yomon ishlari uchun) chekishi kerak, degan omma tasavvurlari bilan birlashib ketgan. Buning natijasida «to'g'ri yo'lga kirgan» qahramon oldiga Buddha rohibi yoki ruhoniysi kelib, uni osmonga, ya'ni abadiy huzur-halovatga taklif etadi.

<sup>1</sup> Pak Son I. Qadimgi koreys nasriy adabiyoti tarixi. – Seul, 1981. – 32–36-b.

«Yuqori uslub»dagi (eng avvalo, xanmundagi) adabiyot ksilografiya (yog‘ochga o‘yib yozish) yo‘li bilan chop etilgan, ba’zida bo‘rtma harf<sup>1</sup> yoki yaxshi qog‘ozga qo‘lda ko‘chirilgan asarlardan iborat. Qissalar qo‘lyozma yoki past sifatli sarg‘ish (kulrang) qog‘ozli arzon ksilografik bosmada tarqatilgan. Bunday kitobning muqovasi ancha qalin qog‘ozdan tayyorlanib, ba’zida kitob nomi qo‘l bilan, odatda, iyeroglifda yozilgan. Ba’zida muqova uchun eski, ilgari ishlatalilgan qog‘ozlardan foydalanilgan. Qissaning bunday nashri odatda 16 varaqdan 60 varaqqacha boradi.

Qissa nafaqat yozma shaklda tarqalgan, balki uni qissaxonlar so‘zlab ham berishgan. Bu haqdagi ma'lumotlar o‘scha davr asarlarida saqlanib qolining. Masalan, «Chxaja asarlari»da shunday yozilgan: «Ajoyib narsalarni hikoya qiluvchilar Sharqiy darvoza (poytaxt) oldida o‘tirib, «Sukxyang», «So Deson», «Sim Chxon», «Sor Ingvi» va shularga o‘xshash turli voqealarni aytib bergenlar<sup>2</sup>. Qissalarning aytib berilganiga juda ko‘p iboralar, ya’ni bayon boshida keladigan *xvasol* «aytishlaricha...», *chxasol* «yana aytishlaricha...» va matn o‘rtasida keladigan *kaksol* «hikoyani davom ettirdi» kabilar misol bo‘la oladi. Afsuski, bu iboralarning qachon paydo bo‘lganligini aniq belgilash imkonini beradigan maxsus matniy tadqiqotlar mavjud emas.

<sup>1</sup> Петрова О.П. Описаниес письменных памятников корейской культуры. — М.: ИВЛ, 1963. — С. 4–5.

<sup>2</sup> Pak Son I. Qadimgi koreys nasriy adabiyoti tarixi. — Seul, 1981. — 32-b.

## XULOSA

1. Koreys adabiyotshunosligida hamda rus koreysshunosligida koreys adabiyotini davrlashtirishda asosiy mezon sifatida sulolalar tarixi olinadi. Bunday davrlashtirish tartibi esa ko‘p hollarda o‘zini oqlamaydi. Binobarin, koreys adabiyoti tarixidagi janrlar taraqqiyoti masalasini ham bevosita e’tiborga olishda davrlashtirishning yuqorida tavsiya etilgan bosqichlari asosliday ko‘rinadi.

2. O‘rta asr koreys adabiyoti jamiyatda ro‘y beragan g‘oyaviy o‘sish va voqelik – inson va tabiat tasviridagi o‘zgarishlarni e’tiborga olgan holda rivojlandi. Albatta, bir davr nasri xususiyatlari o‘zidan oldingi davr nasridan tubdan farq qiluvchi jihatlarga ega, deb ta’kidlash noo‘rin. Bu davr adabiyotidagi asosiy o‘zgarishlar sekin-astalik bilan sodir bo‘ldi: ko‘tarilayotgan muammolar murakkablashdi, g‘oyalari va ularni tasvirlash usullari takomillashdi, janrlar o‘zgardi, ammo o‘z xususiyatlarini XIX asrgacha saqlab qoldi. Shunday bo‘lsa-da, taddiqot natijalariga ko‘ra koreys adabiyoti tarixini quyidagicha davrlashtirish taklifini kiritish imkonini beradi.

*Ilk davr* (X asrgacha) – bu davr yodgorliklarining saqlanib qolmagani tufayli noma'lumligicha qolmoqda. Uni shartli ravishda «notiqlik» davri deb atash mumkin.

*Ikkinci davr* (XI – XIV asrlar) nasrning novella shakllanishiga qadar bo‘lgan rivojlanish davri hisoblanadi. Bu davr adabiyoti rasmiy va norasmiy tarix tipidagi asarlarga syujetli va ba’zan folklor materiallarining kiritilganligi bilan xarakterlanadi.

*Uchinchi davr* (XIV – XVI asrlar) – bu davrda badiiy nasr shakllanib qaror topdi, *pxesol* to‘plamlari paydo bo‘ldi, folklor materiallarini adabiy ishlash boshlandi, badiiy tasvirning yangi vositalari ishlab chiqildi.

*To‘rtinchchi davr* (XVI – XVIII asrlar) – yangi g‘oya, yangi shakllarni izlash va yangi janrlar (qissa, roman)ning vujudga kelish davri. Bu davr adabiyotining muhim yutug‘i inson tasviriga butunlay

yangicha yondashuvda ko'rinadi. Qadimgi janr shakllari (qisqa novella) imkoniyatlari inson tabiatining chuqur va keng qamrovli tavsifini berish talabini qondira olmaganligi tufayli, yozuvchilar tasvirning yangi shakl va uslubini izlaganligi kuzatiladi. Bu davrda yaratilgan adabiy asarlarning muallif tomonidan kiritilgan badiiy to'qimalar bilan boyitilishi natijasida syujetli nasr rivojlanganligini qayd etish mumkin.

*Beshinchi davr* (XVIII – XIX) – yangi davr adabiyotiga o'tish bosqichi. Bu davr ma'rifatparvarlik davri deb ham nomlanadi. Unda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan serg'ayrat, chuqur fikr yurituvchi qahramon vujudga keldi, bu esa janrlar evolutsiyasi jarayonida inson obrazining transformatsiyasi natijasidir.

Demak, muayyan bir janrning paydo bo'lishi va taraqqiy etishi, adabiyotda yetakchi mavqeni egallashi (inson tasviri usullari kabi) muayyan tadqiqot yo'nalishida, o'rta asr koreys adabiyotini davrlashtirishda asos bo'lishi mumkin.

Koreys adabiyotining g'oyaviy yo'nalishi Uzoq Sharqdagi konfutsiylik, daosizm va buddaviylik kabi yetakchi diniy-falsafiy ta'limotlarga asoslangan. Adabiy asarlarda bu ta'limotlardan biriga, ba'zi asarlarda ikkitasiga yoxud uchlasiga xos g'oyalarni uchratish mumkin.

Koreys adabiyoti dastlab ikki tilda yaratilgan, shu bilan birga, ilk davrlarda koreys va xitoy tillarida yozilgan asarlar bir xil adabiy qimmatga ega bo'lib, ular mukammallik darajasi bo'yicha ajratilmagan. Ularni tasniflash keyinchalik yuz bergan bo'lib, koreys tilida yozilgan asarlar «quyi» darajadagi, xitoy tilida yozilganlari «yuqori» darajadagi asarlar, deb qabul qilingan. Turli xildagi asarlarni yozish uchun u yoki bu tildan foydalananishda afzalliklar vujudga kelgan. Masalan, mahalliy madaniyat bilan bog'liq matnlar uchun ko'proq koreys tilidan, rasmiy tarixiy asarlar uchun esa xitoy tilidan foydalilanilgan.

## **FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR**

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI I. KARIMOV ASARLARI**

1. Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
2. Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
3. Karimov I. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – 349 b.
4. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – T.: O'zbekiston, 1997. – 384 b.
5. Karimov I. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998. – 480 b.
6. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 139 b.
7. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T.: O'zbekiston, 2009. – 33 b.
8. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 80 b.

## **KOREYS TILIDAGI MANBA VA ADABIYOTLAR**

9. 소 중애. 흥길동. – 서울, 1995. – 108쪽.
10. 전영진. 흥길동전. 박씨 부인전. – 서울, 1995. – 285쪽.
11. 허균외 지음. 흥길동전. 전우치전. 임진록. – 성울, 1984. – 167쪽.
12. 이 명구. 흥부전. 흥길동전. 전우치전. 유충렬전. – 서울, 2004. – 222쪽.
13. 이 혜순. 고려 전기 한문학사. – 서울, 2004. – 532쪽.

## O'ZBEK TILIDAGI ADABIYOTLAR

14. Alimov S. Folklor va adabiy ertak. — T.: O'zbekiston, 1982. — 32 b.
15. Jalolov R. O'zbek folklorida janrlararo munosabat. — T.: Fan, 1979. — 190 b.
16. Jumanazarov U. O'zbek folklori va tarixiy voqelik. — T.: Fan, 1991. — 232 b.
17. Jo'rayev M. O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. — Buxoro, 1994. — 109 b.
18. Jo'rayev M. O'zbek xalq samoviy afsonalari (tarixiy asoslari, tasnifi va poetikasi masalalari). — T.: Fan, 1995. — 108 b.
19. Jo'rayev M. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. — T.: Fan, 2001. — 136 b.
20. Jo'rayev M. O'zbek folklorshunoslik maktabi va uning taraqqiyoti // O'zbek tili va adabiyoti. — T.: 2004. — №1. — B.9–18.
21. Ziyamuhamedov J. Xitoy adabiyotida hikoya janrining paydo bo'lishi tarixi va rivojlanish bosqichlari // Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy, adabiy, til aloqalari: o'tmish va hozirgi zamон: Ilmiy anjuman materiallari. — T.: 2004. — B.70–73.
22. Ziyamuhamedov J. Pu Sunglingning sehrli novellalari: Fil. f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — T.: TDShI, 2005. — 143 b.
23. Ziyamuhamedov J. O'rta asr novellalari. — T.: X/T «QUDRAT-PRINT», 2010. — 159 b.
24. Ziyamuhamedov J. Xitoy adabiyotida «chuanchi» janrining o'ziga xos xususiyatlari // Sharq mamlakatlariada adabiy jarayonlar: janr va poetika masalalari: Ilmiy anjuman materiallari. — T.: 2010. — 24–26-b.
25. Imomov K. O'zbek satirika ertaklari. — T.: 1974. — 207 b.
26. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. — T.: Fan, 1981. — 108 b.
27. Madayev O. O'zbek xalq ijodi. O'quvchilar uchun qo'llanma. 1-qism. — T.: Universitet, 1999. — 52 b.
28. Mahmudxo'jayev M., Ziyamuhamedov J. Lyao Jay rivoyatları. I, 2-qismlar. — T.: 2003. — 180 b.
29. Otajonova S. Hozirgi o'zbek nasrida folklor an'analari // Til va adabiyot. — T.: 2004. — №3. — B.77–79.
30. Sulaymon T. Jahonna: Dostonlar, ertaklar, hikoyalar, ocherklar. — T.: G'afur G'ulom NMIU, 1996. — 224 b.
31. Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va b. «Klassik koreys nasri antologiyasi». T., 2013
32. Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va b. «Klassik koreys she'riyati antologiyasi». T., 2013
33. Usmonova Z. O'zbek ertak novellalarining o'ziga xos xususiyati va badiiyati: Fil. f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — T.: 1999. — 141 b.

34. Xudoyqulov M. Rivoyatlar va hikoyatlar. — T.: O'zbekiston, 1998. — 368 b.
35. Shomusarov Sh. Arab-o'zbek folklor aloqalari (tarixiy-qiyosiy tahlil). — T.: Fan, 2002. — 318 b.
36. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. — Qarshi, 1999. — 169 b.
37. O'zbek xalq ertaklari. — T.: 1964. — 515 b.

## RUS TILIDAGI ADABIYOTLAR

38. Алексеев В.М. В старом Китае. Дневники путешествия 1907 г. — М.: ИВЛ, 1958. — 312 с.
39. Атсисты, материалисты, диалектики Древнего Китая. — М.: Наука, 1967. — 404.
40. Бамбук в снегу. Корейская лирика VIII—XIX в. — М.: Наука, 1978. — 327 с.
41. Баранников В.Д. Хрестоматия по литературе. — М.: Художественная литература, 1996. — 643 с.
42. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. — М.: Художественная литература, 1979. — 502 с.
43. Бахтина В.А. Время в волшебной сказке // Проблемы фольклора / под ред. М.Ганика. — М.: Наука, 1975. — С. 157—163.
44. Брагинский И.С. Поэзия и проза Древнего Востока. — М.: Наука, 1973. — 247.
45. Брагинский В.И. История малайской литературы. — М.: Наука, 1983. — 445.
46. Васильев Л.С. История религий Востока. — М.: Книжный дом «Университет», 1998. — 432 с.
47. Верная Чхун Хян. Корейские классические повести XVII—XIX вв. — М.: Художественная литература, 1990. — 381 с.
48. Воробьёв М.В. Очерки культуры Кореи. — СПб., 2002. — 367 с.
49. Гацак В.Л. Проблемы фольклористического перевода эпоса // Фольклор. Издание эпоса. — М.: Наука, 1977. — С. 182—198.
50. Герхардт М. Искусство повествования. — М.: Наука, 1984. — 453 с.
51. Голыгина К.И. Новелла средневекового Китая. — М.: Наука, 1980. — 325 с.
52. Голыгина К. Китайская проза на пороге средневековья. — М.: Наука, 1983. — 238 с.
53. Горький А.М. О фольклоре // Архив М.Горького. — М.: Гослитиздат, 1951. Т.III — 299 с.
54. Горяева Л.В. Опыт применения системы функций В.Я.Проппа для уточнения жанровых характеристик малайских сказаний «утешителей печали» // Литература и время. — М.: Наука, 1973. — С.3-13.

55. Горяева Л.В. Соотношение устной и письменной традиций в малайской литературе. — М.: Наука, 1979. — 153 с.
56. Де Юн Хи. Языковая ситуация корейцев Узбекистана: Автореф. ... дис. канд. филол. наук. — Т.: 2008.
57. Джалалов Г.А. Узбекский народный сказочный эпос. — Т.: Фан, 1980. — 256.
58. Джарылгасинова Р.Ш. Этногенез и этническая история корейцев. — М.: Наука, 1979. — 182 с.
59. Дьяконов И.М. История Индии. — М.—Л., 1956. — 257 с.
60. Дьяконов М.М., Дьяконов И.М. Избранные переводы. — М., 1985. — 242 с.
61. Елисеев Д.Д. Корейская средневековая литература пхэсоль. — М., 1968. — 136.
62. Елисеев Д.Д. Новелла корейского средневековья. — М.: Наука, 1977. — 256.
63. Ерёменко Л. Е., Иванова В.И. Корейская литература: краткий очерк. — М.: Наука, 1964. — 156 с.
64. Жирмунский В.М. Литературные отношения Востока и Запада как проблема сравнительного литературоведения // Труды юбилейной научной сессии ЛГУ. — Л., 1940. — С.156–160.
65. Жирмунский В.М. Народный героический эпос. — М.—Л.: Гослитиздат, 1969. — 435 с.
66. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. — Л.: Наука, 1974. — 723 с.
67. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. Избранные труды. — Л.: Наука, 1979. — С.161–162.
68. Жирмунский В.М. Из истории западноевропейских литератур. — Л.: Наука, 1981. — 303 с.
69. Зиямухамедов Ж. К вопросу о влиянии китайской литературы на корейскую литературу // Содействие развитию корееведения в странах СНГ: проблемы и решения: Материалы международной научной конференции по корееведению. — Т.: 2006. — С.46–49.
70. Ибрагимов Н. Арабский народный роман. — М.: ГРВЛ, 1984. — 255 с.
71. Ибрагимов Н. Арабский средневековый книжный эпос. — Т.: Фан, 1994. — 331.
72. Иванова В.И. Просветительство Кореи и творчество Ли Инджика. — М.: Наука, 1973. — 156 с.
73. Иванова В.И. Новая проза Корея. — М.: Наука, 1987. — 179 с.
74. История Кореи. С древнейших времен до наших дней. — М.: Наука, 1974. — 470 с.
75. История о верности Чхун Хян. Средневековые корейские повести. — М.: ИВЛ, 1960. — 684 с.

76. Календарные обычаи и обряды народов Восточной Азии. – М.: Наука, 1985. – 264 с.
77. Ким В.Н. Фольклор – источник формирования художественной литературы. – Ташкент, 1999. – 89 с.
78. Ким В.Н. Наследие художественной культуры востока и его место в формировании драматургии. – Ташкент, 2000. – 260 с.
79. Ким В.Н. Особенности традиционного народного искусства корейского и узбекского народов // Материалы международной научной конференции по корееведению. – Казахстан, 2006. – С. 279–285.
80. Ким В.Н., У.Т.Сайдазимова, И.Л.Пак. Ёрганилаётган мамлакат алабиёти Корея). – Тошкент, 2010. – 192 с.
81. Ким Мангжун. Облачный сон девяти /Перевод В. Артемьевой и Г. Грачкова. – М.–Л.: Гослитиздат, 1961. – 395 с.
82. Ким Н.Д. Грамматическая и функционально-семантическая природа главных членов предложения в корейском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Т.: ТГИВ, 2006.
83. Ким Соволь. Корейская поэзия XX века. –М.: Первое марта, 2003. –175 с.
84. Ко Жон Ок. О корейских сорхва. – Пхеньян, 1972. – 235 с.
85. Конрад Н.Н. Японская литература ХІІІ в. //Памяти академика Жирмунского В.М.: Сборник статей. – М.–Л.: Наука, 1973. – С. 246–261.
86. Корейская классическая поэзия /В переводе Анны Ахматовой. – М.: ХЛ, 1956. – 319 с.
87. Корейская классическая поэзия. – М.: Гослитиздат, 1956. – 259 с.
88. Корейские новеллы / Пер., предислов. и примеч. Д.Д. Елисеева. – М.: ИВЛ, 1959. – 203 с.
89. Корейские народные пословицы и выражения. – М.: ИВЛ, 1958. – С.71.
90. Корейские народные изречения (на корейском и русском языках). – М.: Наука, 1982. – 359 с.
91. Корейские предания и легенды. – М.: Художественная литература, 1980. – 286 с.
92. Корея. Справочник. Корейская служба информации для зарубежных корейцев. – Сеул: Самхва притинг, 1993. – 512 с.
93. Корнев В.И. Буддизм – религия Востока. – М.: Знание, 1990. – 63 с.
94. Культурное наследие народов Востока и современная идеологическая борьба. – М.: Наука, 1987. – 271 с.
95. Ли В.Н. О просветительских тенденциях в корейской литературе на рубеже XIX и XXвв. – М., 1970. – 104 с.
96. Ли В.Н. Корейская литература // История всемирной литературы. – М., 1989. Т.6. – С.622–624.
97. Лихачев Д.С. Культура Руси времен Андрея Рублева и Епифания Премудрого. – М.–Л.: Наука, 1962. – 172 с.

98. Лихачев Д.С. Развитие русской литературы. X-XII вв. — Л.: Наука, 1973. — 250 с.
99. Лихачев Д.С. Поэтика древнерусской литературы. — М.: Наука, 1979. — 352 с.
100. Лихачев Д.С. Исследования по древнерусской литературе. — Л.: Наука, 1986. — 404 с.
101. Лотман Ю.М. Статьи по типологии культуры. — Тарту: Университет, 1973. — 150 с.
102. Мелетинский Е.М. Герой волшебной сказки. — М.: Наука, 1958. — 262 с.
103. Мелетинский Е.М. Происхождение героического эпоса. — М.: Наука, 1963. — 458 с.
104. Мелетинский Е.М. Послесловие к книге В.Пропша “Морфология сказки”. Изд. 2-е. — М.: Наука, 1969. — 271 с.
105. Мелетинский Е.М. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. — М.: Наука, 1986. — 318 с.
106. Мелетинский Е.М. Историческая поэтика новеллы. — М.: Наука, 1990. — 273 с.
107. Мухтаров Т.А., Сагтиев А.И., Шамусаров Ш.Г. Очерки средневековой арабской прозы. — Т.: Фан, 1992. — 219 с.
108. Мухтаров Т. Новелла в классической арабской литературе. — Т.: Фан, 2002. — 192 с.
109. Мухтаров Т. Арабская средневековая новелла. — Т.: Узбекистан, 2004. — 120
110. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. — Т.: Фан, 2008. — 409 с.
111. Никитина М.И., Троцевич А.Ф. Очерки истории корейской литературы до XIV в. — М.: Наука, 1969. — 238 с.
112. Никитина М.И. Древняя корейская поэзия в связи с ритуалом и мифом. — М.: Наука, 1982. — 327 с.
113. Никитина М.И., Троцевич А.Ф. Корейская литература // История всемирной литературы. — М., 1984. Т.2. — С.148—154.
114. Никитина М.И. Корейская поэзия XVI-XIX вв. в жанре сиджо. — СПб., 1994. — 238 с.
115. Никулин Н.И. К типологии взаимосвязей средневековой исторической прозы // Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада. — М.: Наука, 1974. — С.117—152.
116. Никулин Н. Вьетнамская литература. От средних веков к новому времени. — М.: Наука, 1977. — 344 с.
117. Ним Чангун Джон / Повесть о полководце Ниме. Факсимиле ксиографа. Издания текста, перевод с корейского, предисловие и комментарий Д.Д. Елисеева. — М.: Наука, 1975. — 56 с.

118. О переходе от устного народного творчества к письменной литературе (этап ораторского искусства в литературах Востока)/ Никитина В.Б., Наевская Е.В., Позднеева Л.Д. и др. //Доклады на XXV Международном конгрессе востоковедов. – М., 1960.
119. Общая история корейской литературы. – Пхеньян, 1959. Т.1. – 438 с.
120. Петрова О.Н. Описание памятников корейской культуры. Вып.II. – М.: ИВЛ, 1963. – 130 с.
121. Полякова С.В. Из истории византийского романа. – М.: Наука, 1979. – 200 с.
122. Попова Ю.В. Пережитки тотемизма в религиозных обрядах корейцев // Религия и мифология Восточной и Южной Азии. – М.: Восточная литература, 1970. – 160 с.
123. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л.: ЛГУ, 1946. – 340 с.
124. Пропп В.Я. Русский героический эпос. – М.: Художественная литература, 1958. – 603 с.
125. Пропп В.Я. Морфология сказки. Изд-е 2-е. – М.: Наука, 1969. – 278 с.
126. Рифтин Б.Л. К изучению внутрирегиональных закономерностей и взаимосвязей: литературы Дальнего Востока XVII в. // Историко-филологические исследования: Сборник статей памяти академика Н.И.Конрада. – М.: Наука, 1974. – С.89–103.
127. Рифтин Б. Проблемы стиля китайского книжного эпоса // Памятники книжного эпоса. – М.: Наука, 1978. – С. 162–190.
128. Рифтин Б.Л. Типология и взаимосвязи средневековых литератур / / Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада. – М.: Наука, 1979. – С.9–68.
129. Рифтиц Б. Вступительная статья в кн. «Корейские легенды и предания» / пер. с хаммуна. – М.: Художественная литература, 1980. – С.3 – 15.
130. Роль фольклора в развитии литератур Юго-Восточной и Восточной Азии. – М.: Наука, 1988. – 169 с.
131. Серебряков С.Д. Интерпретация формулы В.Я.Проппа в связи с ее приложением к индийской сказке // Типологические исследования по фольклору. – М.: Наука, 1975. – С.293–300.
132. Тен Ю.П. Суперсегментные свойства сегментных единиц и их соотношения-проблема общего и частного языкоznания (на материалах корейского языка): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2005.
133. Типология народного эпоса. – М.: Наука, 1975. – 306 с.
134. Томашевский Н. Традиция и новизна. – М.: Художественная литература, 1981. – 275 с.

135. Троцевич А. Корейская средневековая повесть. — М.: Наука, 1975. — 264 с.
136. Троцевич А.Ф. История корейской традиционной литературы (до XX в.): Учебное пособие. — СПб. Издательство СПбГУ, 2004. —323 с.
137. Тягай Г.Д. Общественная мысль Кореи в эпоху позднего феодализма. — М.: Наука, 1972. — 256 с.
138. Утехин Н.П. Жанры эпической прозы. — М.: Наука, 1982. — 183 с.
139. Фильман О.Я. Три китайских новеллиста (ХVI-ХУП вв.). — М.: Наука, 1980. — 424 с.
140. Хван Л.Б. Культура как инструмент гуманизации социальных отношений, этнической и межэтнической консолидации (по материалам русской и корейской литературы) //В мире корееведения. — Т.: Фан, 2008. — С. 83—104.
141. Холодович А.А. Предисловие к книге «Корейские повести». — М.: ИВЛ, 1954. — 684 с.
142. Чудесное Зеркало. Старинные восточные сказания и повести. — М.: Правда, 1988. — 505 с.
143. Шидфар Б.Я. Образная система арабской классической литературы (VI-XII вв.). — М.: Наука, 1974. — 252 с.
144. Шидфар Б.Я. Генезис и вопросы стиля арабского народного романа (сиры) // Генезис романа в литературах Азии и Африки. — М.: Наука, 1980. — С.108—131.

### **INGLIZ TILIDAGI ADABIYOTLAR**

145. Kim Donguk. History of Korean Literature. — Tokyo, 1980.
146. Lee Jung Sun. A study on aspects of historical representation in Central Asian Koreans' novels //Central Asia and Korean diaspora: Theme of the conference. — Kazakhstan, 2010. — P. 318—326.
147. Hwahg Oak Son. The traditional Korean po for Men in the Yi Dynasty. //Journal of Korean Studies. — Volume 9. — Korea, 2007. — P. 37—58.

### **INTERNET RESURSLARI**

148. [www.all-korea.ru](http://www.all-korea.ru).
149. [www.imli.ru](http://www.imli.ru).
150. [www.korean.ru](http://www.korean.ru).
151. [www.mifolog.ru](http://www.mifolog.ru).

## MUNDARIJA

<i>So'zboshi</i> .....	3
I. Ilk adabiyot. Uch podshoflik va Silla davri ( <i>X asr o'rtalarigacha bo'lgan davr</i> ) .....	19
II. Koryo adabiyoti ( <i>X-XIV asrlar</i> ) .....	41
III. Choson (Li) suolasi adabiyoti ( <i>XV-XIX asrlar</i> ) .....	73
IV. Koreys tilidagi nasriy janrlarning xususiyatlari ( <i>XVII-XIX asrlar</i> ) .....	124
<i>Xulosa</i> .....	138
<i>Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar</i> .....	140

UMIDA SAYDAZIMOVA

## KOREYS ADABIYOTI TARIXI

(moziydan to XIX asrgacha bo'lgan davr)

«ISTIQLOL» — Toshkent — 2014

*Muharrir*  
*Rassom*  
*Musahhih*  
*Sahifalovchi*

*J. Razzoqov*  
*H. Yoqubov*  
*N. Ataboyeva*  
*S. Po'latov*

Litsenziya raqami AI № 217. 03.08.2012-y. Bosishga 2014-yil 29-dekabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×84/<sub>16</sub>. Ofset qog'oz. Times TAD garniturası. Shartli bosma tabog'i 9,25. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 47.

«ISTIQLOL NASHRIYOTI» MChJ, Toshkent sh., 100129, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Tel: 244-94-36, faks: 244-51-98. El. pochta: istiqlol-nashr@mail.ru.

«ISTIQLOL NASHRIYOTI» MChJ matbaa bo'limida chop etildi. Toshkent sh., 100129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.



ISBN 978-9943-4457-6-5



9 789943 445765

